

‘O’zbekiston RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI  
O’RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI

**O. AZIMOVA**

# **GARMONIYA**

**NAZARIY KURS**

*Madaniyat va san’at kollejlari uchun darslik*

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASRIYOTI  
TOSHKENT – 2004

## AZIMOVA O.

Garmoniya. Nazariy kurs. Madaniyat va san'at kollejlari uchun darslik.

– T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004. - 192 b.

Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi markazi.

Qo'lingizdag'i, ilk marotaba o'zbek tilida yozilgan, o'ta murakkab musiqiy-nazariy fanlardan biri – garmoniya asoslariga doir darslik san'at kollejlari va musiqa litseylari uchun mo'ljallangan.

Darslikda lad, akkord, ovozlar yo'naliishi, modulyatsiya, major-minor tizimi kabi mazkur kursning yetakchi mavzulari izchil yoritilishi tufayli, undan mutaxassis o'qituvchi yordamida o'rta maxsus ta'lif muassasalari o'quvchilari foydalanishi mumkin.

Mazkur darslikning Lug'at ilovasi M. Ro'zmetova bilan hamkorlikda tayyorlangan.

BBK 85.31 ya722

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi Madaniyat va san'at sohasi bo'yicha o'quv-uslubiy Kengashi tomonidan madaniyat va san'at kollejlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.**

M a s' u l m u h a r r u r – **T. B. G'afurbekov,**

*san'atshunoslik fanlari doktori,  
professor.*

T a q r i z c h i l a r

– **F. Sh. Muxtorova**

*san'atshunoslik fanlari nomzodi,*

– **L. I. Krasutskaya**

*san'atshunoslik fanlari nomzodi,*

– **A.M. Mansurov**

*professor v.b.*

4306021800-448

A \_\_\_\_\_ 2004

M361(04)-2004

ISBN 5-86484-121-8

© O.Asimova, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti; 2004y.

## SO‘Z BOSHI

Garmoniya oliv va o‘rtalik maxsus musiqiy ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan murakkab musiqiy-nazariy fanlardan biri bo‘lib, talabalarni kompozitorlik ijodiyotining muhim masalalari va nazariy musiqashunoslikning asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqiy til tizimi va garmoniyaning unda egallagan o‘rnini haqida aniq tushunchalar berishga mo‘ljallangan.

Ushbu kitob ilk marotoba o‘zbek tilida yozilgan garmoniya darsligidir. U muallifning O‘zbekiston Davlat konservatoriysi musiqashunoslik va ijrochilik fakultetlarida garmoniya fanini o‘qitish jarayonida to‘plagan tajribasini umumlashtirgan va san‘at kollejlari hamda maxsus musiqa akademik litseylari dasturiga muvofiq yozilgan. O‘rtalik bo‘g‘in ta’lim muassasalarida o‘zbek tilidagi garmoniya darsligiga bo‘lgan extiyoj materialni ushbu fanning dastlabki bosqichlarini ham qamragan holda bayon etishni taqazo qildi.

Kitobda o‘quv jarayonidagi tayanch mavzulardan “Garmoniyaning lad asoslari”, “Modulyatsiya”, “Ladlarning o‘zaro birikishi”, “Tabiiy ladlar garmoniyasi” kiritildi. Darslikini mazmuni va tarkibi o‘quv talablaridan kelib chiqqan holda yoritildi. Ta’lim jarayonlarining davlat tiliga o‘tkazilishi munosabati bilan ma‘ruzaviy materiallarning dolzarbliji kuchaydi. Ayni paytda maxsus atamalar va asosiy tushunchalarning ta’rifi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar yoq emas. Shuningdek, garmoniyaga oid qoidalarning O‘zbekiston kompozitorlari ijodiyotida namoyon bo‘lishini o‘rganish zaruriyati yaqqol sezilmoqda. Aynan shu masalalar ham bir qadar qamrab olindi.

Qo‘llanma turli dasturlar bo‘yicha o‘qitiladigan va turli tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan keng o‘quvchilar doirasiga mo‘ljallanganligi bois unda uy vazifalari va amaliy masalalar keltirilmaydi.

Ilovasi sifatida kiritilgan izohli lug‘at garmoniya fanida uchraydigan tushuncha va atamalarni mujassamlashtirgan.

Qimmatli taklif va tanqidiy mulohazalari bilan ushbu kitobning yuzaga kelishida ko‘maklashgan barcha musiqa jonkuyarlariga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

## GARMONIYANING LAD ASOSLARI

### 1. Lad ta'rifi

“Lad” tushunchasi slavyanchadan kelib chiqqan bo‘lib, balandlik tizimi tonlarining o‘zaro moslanishi ma’nosini anglatadi.

Lad turg‘un va noturg‘unlikning o‘zaro dialektik ta’sirida ifodalanuvchi prinsipidir. U musiqaning asosiy ikkinchi darajali, asosiy – tobe, markaz doiralanish va boshqa sifatdagi intonatsion-ma’noli holatlarining mantiqiy asosini tashkil etadi.

Musiqiy tilning rivojlanish jarayonida lad haqidagi tasavvurlar sezilarli taraqqiyotni boshidan kechirgan. Ladning so‘nggi ikki asrlarda Yevropa kompozitorlari ijodida yuzaga kelgan qonuniyatlarni o‘rganishga asoslangan ta’rifi ko‘proq ma’lum. Atoqli pedagog-nazariyachi I.V.Sposobin tomonidan ladga berilgan quyidagi ta’rif ana shu nuqtai nazarni ifodalaydi: “Lad – bir tovush yoki ohangdoshlik ko‘rinishida tonika markazi yordamida birlashtirilgan tovush aloqalarining tizimidir” (75, 24-b.). Bu ta’rif ladi yuqori darajali markazlashtirilgan XVIII-XIX asr kompozitorlari musiqasini o‘rganish asosida ishlab chiqilgan. Shuning uchun ham olim tonika va ohangdoshlikka alohida e’tibor bergenligi ko‘zga tashlanadi.

Shu bilan birga, keyingi o‘n yilliklarda XX asr garmoniyasini izchil o‘rganish, klassik garmoniyagacha mavjud bo‘lgan garmoniyani mufassal tadqiq etish, ladlarning xususiyati yuqorida ko‘rsatilganlardan keskin farqlanuvchi tabiatga ega bo‘lgan monodik musiqa qonuniyatlarini o‘rganilgani bois lad tushunchasini kengaytirish zarurati tug‘ildi. Ladning oxirgi va kengroq ta’riflaridan biri quyidagicha: “Lad bu tovush balandligi aloqalarining tizimliligidir” (94, 29-b.). Bu ta’rifda markaziy tovush yoki ohangdoshlikka tortilish to‘g‘risida gap yo‘q, tizim esa ladning asosini tashkil etuvchi belgi sifatida ko‘rsatiladi. Bundan kelib chiqadiki, ladni tashkil qiluvchi tovushlar funksional jihatdan teng ahamiyatga ega emas, ular o‘z mazmuniga ko‘ra tadrij qilingan va shu bois o‘zaro muayyan munosabatlarda bo‘ladilar.

Mazkur ta’rif qadimgi yunon tetraxordidan to zamonaviy atonal musiqagacha bo‘lgan yo‘nalishlarni qamrab olganligi tufayli, turli xil lad tuzilmalarini umumlashtirish imkonini beradi.

### 2. Lad va tovushqator

Lad va tovushqatorlarning o‘zaro munosabati tabiatini B.V. Asafyev quyidagicha belgilaydi: “Tovushqator ladni tashkil etuvchi tonlarning pog‘onama-pog‘ona grafik tasvirda ifodalanishi, biroq lad mazkur tizim intervallarining bog‘lanish sifati bilan aniqlanadi” (6,282-b).

### 3. Major-minor

Major-minor ladogarmonik tizimi uzoq tarixiy rivojlanish jarayoni natijasida shakllangan. Uning o'zgacha qoidalari yuzaga kelishida akustik omillar bilan uzviy bog'langan cholg'u musiqasi asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Akustik qonunlarga tayanish major-minorning tovushqatori mustahkamligi, funksional munosabatlari barqarorligi kabi xususiyatlarni belgilaydi.

Major-minor tizimiga ichki dinamizm, keskinlik, markazlashganlik va funksional aloqalarning boyligi xosdir.

### 4. Ladning asosiy funksiyalari

Eng umumiy tarzda lad funksiyalari musiqa tizimining ikki asosiy manbai turg'unlik va noturg'unlik, boshqacha aytganda statik va dinamik holatlarni ifodalaydi.

**Turg'unlik funksiyasi** statikaning ifodalanishi, ya'ni to'xtashlik hissiyoti asosida hosil bo'ladigan holat. Major-minorda ton yoki ohangdosh ko'rinishdagi markaziy unsur (*element*) turg'unlik yoki *tonika* (T) lad funksiyasiga ega. Ladning boshqa unsurlari funksiyasi markazga munosabati bo'yicha belgilanadi, ya'ni tonika-funksional aloqalarning bosh negizidir.

**Noturg'unlik funksiyasi** dinamikaning ifodalanishi, ya'ni tonika yoki unga qadar bo'lgan harakatning davomini kutish holati. Major-minor tizimida noturg'unlik muhiti *dominanta* (D) va *subdominanta* (S) qaramaqarshi funksiyalarga ajratiladi. Lad funksiyalari (S va D)ning qarama-qarshiligi tonikaga farq munosabatida ifodasini topadi.

D o m i n a n t a f u n k s i y a s i tonika tomon kuchli tortilishiga ega. Ayniqsa D-T aloqasi kuchli dinamik munosabatlarni hosil qiladi. Dominanta markazga intiluvchi kuch, tonikaga faol yo'nalishi tufayli tonallikni ravshan xarakterlay oladi.

S u b d o m i n a n t a f u n k s i y a s i esa aksincha, tonikaga tortilishining mavjud ermasligi bilan ajralib turadi. Subdominanta ko'pincha bo'ysundirish orqali asosiy tonikani inkor etishga intiladi. Shuning uchun subdominanta lad tarkibida markazdan chetlanuvchi kuchni ifodalaydi.

Major-minorning o'zagi hisoblangan T-S-D-T formulasi, bu tizimning funksional yo'nalishini aks ettiradi. U dialektik inkorni inkor qonunining garmoniyadagi in'ikosi hisoblanadi va quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o'tadi:

a) *boshlang'ich tonika* keyingi rivojlanishida o'zaro munosabatda bo'ladigan mantiqiy tayanch sifatida qabul qilinadi;

b) *subdominantning* mavjudligi tonikaning inkor etilishi sifatida sezildi. Bu holda tonika subdominantning dominantasi kabi talqin etilib, tobe ahamiyatga ega bo'ladi;

d) tonika tomon kuchli tortiluvchi *dominanta* subdominantani inkor etadi va uning markazdan uzoqlasha intilishlarini dominantaning markazga intiluvchi kuchi yengadi;

e) *yakunlovchi tonika* ladofunksional harakatdan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa sifatida anglanadi. Tonika subdominanta va dominanta orasida mayjud bo'lgan ziddiyatni yechib, qaytadan yangi xususiyat negizida hosil qilinadi.

## 5. Ohangdoshlarning ladofunksional tizimlanishi

Major-minorning uchfunkcionalligi barchaakkordlarning uchta funksional guruhlarga ajratilishni belgilaydi. Taniqli olim Yu.N. Tyulin quyidagi akkordlar tasnifini taklif qiladi (№1):

1.

Bu tasnidda funksional guruhlash umumiy tonlar soniga taalluqlidir. Tersiyali chizma har bir funksional guruhda uchtadan akkord borligini ko'rsatadi. Bunda medianta(VI, III pog'ona)lar uchtovushliklari o'z tovushlari tarkibiga ko'ra tonikaga yoki boshqa qo'shni akkordlarga yaqin bo'lishadi. Demak, mediantalar funksional ikkilanishi bilan farqlanadi.

Tyulin tersiyalilikdan kelib chiqib, akkordlarni funksional ahamiyati jihatidan uch turkumga ajratadi:

1) m a r k a z i y, funksional guruhlarning bosh vakillari asosiy uchtovushliklar (T, S, D);

2) a r a l a sh – mediantalar (TSVI, DTIII);


3) c h e k k a d o s h – SII va DVII pog'ona uchtovushliklari.

Tersiya qatori akkordning tovush tarkibi va uning funksional aniqligi o'rjasida qaramlik mavjudligini namoyish etadi. *Uchtovushliklar* funksional chegaralanishning eng ko'p imkoniyatlariga egadir. Misol uchun, funksional guruhlarning asosiy vakillari T, S, D bittadan umumiy tovushga ega yoki mutlaqo ega emas.

*Septakkordlar* esa bunday chegaralanish bilan xarakterlana olmaydi. Chunki subdominantva dominanta uchtovushliklari umumiy tovushga ega bo'lmasada, ularning septakkordlari bunga ega (№2 a).

*Ko'p tersiyali* akkordlar, o'z tarkibiga ko'ra, bir-biriga yanada ko'proq yaqinlashadi. Natijada, birgina akkordning turlicha funksional talqin etilishi

imkoniyatlari ortadi. Masalan: S<sub>9</sub> va D<sub>9</sub> uchta umumiylardan tovushga ega (№2 b).



## 6. Funksiyalarning o'zgaruvchanligi

Akkordlarning asosiy tonika bilan bevosita aloqasini ifodalovchi lad funksiyalari asosiy lad funksiyalari deb ataladi.

Akkordning *muvaqqat* tortilish markazlari (vaqtinchalik tonikalar) bilan aloqasini ifodalovchi lad funksiyalari o'zgaruvchan lad funksiyalari deb yuritiladi.

O'zgaruvchan funksiyalar tonal markazining muvaqqat va yumshoq siljishi natijasida vujudga keladi. Bunda major yoki minor uchtovushligi tonika funksiyasini o'ziga oladi. Boshqa akkordlar esa shu tonikaga qarab subdominanta va dominanta sifatida talqin etila boshlanadi. Bunday vaziyatlarda har bir akkord asosiy tonika va garmonik rivojlanish jarayonda vujudga kelgan vaqtinchalik, o'zgaruvchan tonika bilan munosabatda bo'lib, funksional jihatdan ikkilanib qoladi.

O'zining ta'siri jihatidan asosiy va o'zgaruvchan funksiyalar hech qachon teng bo'lmaydi. Ularning munosabatida har doim asosiy funksiyalarning ustunligi va o'zgaruvchan funksiyalarning tobeligini tasdiqlovchi subordinatsiya qonuniyatiga rioya qilinadi.

O'zgaruvchan funksiyalarning vujudga kelishi qator shart-sharoitlarga bog'liq. Ular orasida eng muhimlari quyidagilardir:

a) asosiy tonikaning zaiflashuviga yoki kam ko'rinishi. Bu tonikaning zaiflashuviga ko'pincha asosiy kvarta-kvinta munosabatlardan (T-D, T-S) chekinish va tertsiyali (T-DTIII, T-TSVI), sekundali (T-SII) munosabatlarni qo'llash orqali erishiladi;

b) tonika bo'lmagan akkordlarga asosiy tonika xususiyatlarini berish usullarining tarqalishi (akkordning konsonansligi, takting kuchli hissasida kiritilishi, jaranglash cho'zimi, tez-tez qaytarilishi, kvarta-kvinta munosabatida bo'lgan ohangdoshlar bilan o'ralganligi).

Asosiy va o'zgaruvchan funksiyalarning hamohang faoliyati har bir akkordga turli mazmun, mohiyat, rang baxsh etib, ladotonal tizimini boyitadi.

Quyidagi misolda P.I. Chaykovskiyning 1-simfoniyasidagi ikkinchi qismdan parcha asosiy Mi-bemol major va o'zgaruvchan do minor tonikalarining almashuviga asoslangan (№ 3):

*Adagio cantabile ma non tanto*

## II B O B

**OVOZ YO'NALISHI****1. Ovoz yo'nalishi tushunchasi**

Akkordning izchil bog'lanib kelishi ikki xil xususiyatga ega:

1.O'zaro funksional ta'sir.

2.Kuy aro munosabat.

Akkordning kuy aro munosabatida tonlarning birin-ketin qo'shilishi alohida kuy yo'lini yoki bir nechta kuy yo'llarini tashkil qiladi va ovoz y o' n a l i s h i deb yuritiladi.

Ikki ovozning birgalikda harakatlari uch ko'rinishda, ya'ni t o' g' r i, q a r a m a - q a r s h i va q i y a k o' r i n i s h l a r d a bo'ladi. To'g'ri harakatning muhim ko'rinishi parallel harakatdir (№ 4):

4.

to'g'ri

parallel

qarama –  
qarshi

qiya

Ko'povozlik uslubida ovozlarning bir nechta juft qo'shilmalari hosil bo'ladi. Shuning uchun harakatlarning o'ziga xos bo'lgan turli kombinatsiyalari mavjud (№ 5):



Har bir ovozning harakati r a v o n yoki s a k r a m a bo'lishi mumkin. Ovozlarning prima, sekunda, tersiya oraliqlaridagi harakati r a v o n harakat deyiladi. Kvarta, kvinta, seksta va ulardan kengroq intervallarga qilinadigan ovozlarning harakati s a k r a m a deb ataladi.

Soprano, alt, tenor ovozlarining harakat jarayoniakkord qo'shilishining ikki turini ajratadi:

1 Akkordning q a t ' i y qo'shilishi.

2 Akkordning e r k i n qo'shilishi.

Q a t ' i y qo'shilishdaakkordlar tovushlari bir-biri bilan ravon bog'lanib, lad aloqalariga munosib bo'ladi. Bu qoidalardan chekinish tufayli yuzaga kelgan sakrama harakatlar e r k i n qo'shilishni hosil qiladi.

Akkord ovozlarining xususiyatlari ularning joylashuvi bilan xarakterlanadi. Akkord tuzilmasida ikki chekkadosh ovozlar (soprano va bas) alohida o'rinnutib, garmonik harakatning tashqi ko'rinishi (konturi)ni tashkil etadi. Sopranoning kuy yo'li intonatsion tomondan chirolyi va ma'noli bo'lishi, bas esa, kuyga mos garmoniya funksiyalarini ta'kidlashi lozim. O'rta ovoz (alt va tenor)larakkordlar tuzilmasida uncha bo'rttirilgan emas, balki ular mustaqil kuy harakatiga ham ega bo'lmasdan, yordamchi ovozlar sifatida qo'llaniladi. Ushbu o'rta tovushlarning xususiyatlari, ularda ayrim ovozlar yo'nalishi qoidalaring buzilishi kamroq sezilishiga va natijada o'rinni deb hisoblanishiga olib keladi.

## 2. Ayrim intonatsion harakatlar

Ovozlar yo'nalishida ayrim g'ayritabiyy intonatsion harakatlarga ahamiyat berish lozim.

1. Orttirilgan intervallarga harakatdan voz kechib, ularning o'rniga kamaytirilgan intervallarga o'tish maqsadga muvofiqdir (№ 6):

6. yomon yaxshi yomon yaxshi yomon yaxshi

2. Katta septima ko'proq kichik septima bilan almashtirilgani ma'qul (№7):

7.

yomon  
yaxshi  
yaxshi

katta. 7      kich. 7      katta. 7

Bu ikki qoidaning paydo bo'lishi zaminida yagona sabab – tovushlarning o'zaro tekis muvozanatda bo'lishi yotadi. Ohangda tovush sakrab harakat qilganidan keyin, albatta, harakat teskarini tomonga yo'nalishi lozim. Ohangga doir bu qonun orttirilgan intervallarning yechilish qoidalariiga va yetakchi tovushning tabiiy tortilishiga zid keladi. Shuning uchun ham orttirilgan interval kamaytirilgan intervallar bilan almashtiriladi.

3. Bir yo'nalishda ketma-ket ikki marotaba kvinta yo kvarta harakat qilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Shu qatordagi har bir harakatdaakkordlarning chetidagi tovushlarning oralig'ida katta septima yoki nona intervali vujudga keltiriladigan bo'lsa, to'lqinsimon chiziq bilan almashtiriladi. Bu qoida ayniqsa bas ovoziga taalluqlidir (№ 8):

8.

yomon      yaxshi      yomon      yaxshi

### 3. Duchlanish<sup>1</sup>

Xromatik o'zgargan ton bir ovozdan ikkinchi ovozga o'tganda, yoqimsiz sado eshitiladi, u duchlanish deb ataladi. Bu holda bir ovozning yo'lini boshqa ovoz kesib o'tadi. Masalan, dastlabki "lya" tovushdan keyingi akkorddagi "lya ♭" tovushi yarim ton pastroq bo'lganligi bois duchlanishni tashkil qiladi (№ 9):

9. a)

<sup>1</sup> Mazkur tushuncha I.I. Dubovskiy (va boshqalar) "Garmoniya darsligi"ning o'zbekcha tarjimasida – z i d d i y a t deb atalgan.

9. b)


yomon



Ijodiy amaliyotdan farqli o'laroq, o'quv mashg'ulotlarida duchlanishga yo'l qo'yilmaydi. Lekin ducinianish ta'sirini pasaytiradigan bir nechta shartlar bor. Shartlar intonatsion harakatlarning lad mazmuni va ikki ovozda bir-biri bilan uyg'unlashmog'iga bog'liq. Mo'tadil, ya'ni neytral, sadosi birmuncha mayin duchlanish quyidagi sharoitlarda vujudga keladi:

1. Tovushlarning teskari harakatlarida (№ 10):

10.



2. Ovozlar bir-birini kesib o'tmaydigan holda.

Keltirilgan misolda pastga tushayotgan yuqoridagi ovoz "lya" dastlabki duchlanish bo'lib, jaranglaydigan tovush ("lya b") balandligiga yetmaydi (№ 11):

11.



Birinchi va ikkinchi sharoitlarda paydo bo'lgan duchlanish k e s i s h - m a y d i g a n deb nomlanib, o'quv jarayonida erkin qo'llaniladi.

3. Tovushlar har xil funksiyalarni bajarsa — y a r i m d u ch l a n i s h paydo bo'ladi. Keltirilayotgan misolda birinchi tovush "fa"akkordli, ikkinchisi "fa#" esaakkordsiz, o'tkinchi funksiyaga ega (№ 12):

12.



4. Garmoniya qanchalik murakkab bo'lsa, duchlanishning ta'siri shunchalik kamroq seziladi, chunki tinglovchining e'tibori ko'proq ana shu garmonianing murakkab rivojlanishiga jalb etilgan bo'ladi.

5. Tovushlarning o'rtaida s e z u r a kelsa.

#### 4. Parallel oktavalar va unisonlar

Garmonik to'rtovozlikda ovozlar mustaqilligiga ziyon yetkazadigan parallel oktava(unison)lar harakatiga yo'l qo'yish o'rinsizdir. Bunday ovoz yo'naliishi to'rtovozlik tizimini anglashda real uchtovushlikka aylantiradi. Ayniqsa chetki ovozlar o'rtaida sodir bo'ladigan parallel oktavalar yoqimsiz, bo'shlik taassurotini o'yg'otadi. Parallel oktavalar(unisonlar) juft ovozlarning birontasi tarkibida bo'lishi kerak emas (№ 13-a, b, d):

13.

Shuningdek, qarama-qarshi oktavalarga ham, unisondan oktava tomoniga bo'lgan harakatga yo'l qo'yilmaydi va aksincha (№ 14-a, b):

14. a)

b)

Avtentik kadanslarda qo'llaniladigan D,<sup>5</sup> – T ketma-ketligi bundan mustasnodir: chet tovushlarda parallel yoki qarama-qarshi oktavalar bilan echilishi mumkin.

Bu holda soprano dagi sakrash basning funksional yurishini kuchaytirib, umumiy garmonik tortilishiga (intilishiga) munosib bo'ladi (№ 15):

15.

Frisch und munter

R. Shuman. "Quvnoq dehqon".

Parallel oktavalarni birorta ovozning oktavada takrorlanishi bilan aralashtirib bo'lmaydi. Takrorlanuvchi tovushlar ovozni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Real to'rtovozlik bayonida bir yoki ikki ovozning oktavada juftlanish usuli juda keng tarqalgan (№ 16):

16.

Allegro grazioso

W. Motsart Son. № 13, III.


## 5. Parallel kvintalar

Musiqa nazariyasida parallel, qarama-qarshi sof kvintalar harakatiga yo'l qo'yilmaydi. Parallel kvintalar e f f e k t i v v a n e y t r a l turlarga ajratiladi.

E f f e k t i v parallel kvintalar to'rtovozlikning eng chetdagi tovushlari, soprano va alt, tenor va bas orasida vujudga keladi (№ 17-a):


17. a)

## Effektiv parallel kvintalar



Juda sezilarli effektiv parallel kvintalar yonma-yon bo'lmagan tovushlar orasida ham mavjud (№ 17-b):

b)



Effektiv parallel kvintalar kuchli va o'ziga xos taassurot qoldirishi munosabati bilan XVII asrdan boshlab kompozitorlar ijodidan asta-sekin chiqa boshladи. Lekin bir xil uslublarda yoki kompozitorning muayyan fikrini ifodalash uchun ataylab parallel kvintalar qo'llanilishi mumkin (№ 18):


18.

Andante meno mosso

T. Qurbonov. "Ballada".

Neytral parallel kvintalar alt va tenor o'rtasida mavjud bo'lib, ular ravshan eshitilmaydi. Shuning uchun u klassik garmoniyada va o'quv tajribasida qo'llaniladi. Neytral parallel kvintalar qatoriga mashhur "Motsart kvintalari" ham kiradi (№ 19):

19.

**Neytral parallel kvintalar****6. Yashirin parallelizm**

Ikki ovozning oktava yoki kvinta tomoniga to'g'ri harakati yashirin parallelizmni hosil qiladi. Bunday tovushlarning yo'nalishi zavqsiz bo'lib, ayniqsa chetdagi kuchli tovushlar harakati orqali eshitiladi. Effektiv yashirin parallelizmni qo'llash o'quv tajribasidagina man etilgan. Bunday hodisa quyidagi sharoitlarda uchrashi mumkin.


1. Chetdag'i ovozlar o'rtaida, soprano ning yuqori sakrashida (№ 20):

20.




2. Oraliqakkord ustidan oktava yoki kvinta tomoniga to'g'ri harakat natijasida (№ 21):

21.




3. Kamaytirilgan va sof kvintalarning chetki ovozlarida parallel bo'lgan harakatida (№ 22):

22.



4. Septima yoki nona oktavaga sekunda yoki tersiya oralig'ida yurib yechilishi natijasida. Bu holda effektiv yashirin parallellik chet va o'rta ovozlar orasida hosil bo'ladi (№ 23):

23.



### III B O B

## GARMONIK VERTIKAL

### 1. AKKORD

#### 1.1. Akkord ta'rifi

"Akkord" lotincha so'z bo'lib, "muvofiglashtiraman" ma'nosini bildiradi. Musiqashunoslik fanidaakkord "garmoniya" tushunchasi kabi, tovushlarning uyg'un, ohangdosh bo'lib qo'shilishini anglatadi. Akkordning ushbu umumiy ta'rifi musiqa rivojlanishi, xususan kompozitorlik tafakkurining boyishi jarayonida ancha o'zgarishlarga uchragan. Uning eng tarqalgan ta'rifi I.I. Dubovskiy, S.V. Yevseyev, I.V. Sposobin va V.V. Sokolovlarning "Garmoniya darsligi"da berilgan. Unda, birinchidan: "Baravariga eshitiladigan bir nechta uyg'un tovushlar birikmasi" (27, 7-b.) bo'lmish, "ohangdoshlik" degan tushuncha kiritiladi. Ushbu ta'rifga asoslanib "akkord" tushunchasi qo'yidagicha ifodalanadi: "...agar tovushlar tersiya bo'yicha joylashgan bo'lsa,

bu ohangdoshlikakkordni hosil qiladi” (27, 8-b.). Bu ta’rif Yevropa klassik kompozitorlari tajribasiga asoslangan bo‘lib, ko‘plab garmoniya darsliklarida keltiriladi.

XX asr musiqasi garmoniya vositalari doirasiga tub o‘zgartirishlar kiritdi. Shunga ko‘ra,akkordning avvalgi ta’riflari ham o‘zgara bordi. Xususan,akkordning avvalgi asosiy belgisi – tovushlar tersiya bo‘yicha joylashgan bo‘lishi kerak degan ma’nosi, zamonaviy musiqa tajribasida deyarli tasdiqlanmaydi. Yu.N. Tyulin akkordning quyidagi ta’rifini beradi: “Akkord - bu lad va akustika qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi, muayyan tuzilishga ega va lad tizimiga doxil bo‘lgan ohangdoshlikdir” (84, 28-b.). Lekin Tyulin bu ta’rifga quyidagicha to‘ldirish kiritadi: “Bu qoidalar tersiya bo‘yicha tuzilgan akkordlarda ayniqsa aniq ko‘rinadi” Demak, Tyulin fikricha, tu z i l-m a akkordning asosiy belgisi bo‘lmay, ikkinchi darajali belgi sifatida saqlanib qoladi.

Eng so‘nggi davrlarda odat tusini olayotgan akkordlar ta’riflarda, olimlar tu z i l m a belgisidan butunlay voz kechib, asosiy akkordning belgilari sifatida uning m u s t a q i l l i g i va y a x l i t l i g i n i ta’kidlaydilar. Jumladan, T.S. Bershadskaya: “Akkord – bu musiqa to‘qimasidagi mantiqiy differensiallashgan konstruktiv jihatdan yaxlit tonlar kompleksi birligidir” (12, 23-b.) deb ta’kidlasa, Yu.N. Xolopov: “Akkord - bu muayyan mantiqiy tamoyil asosida yaratilgan har qanday mustaqil ohangdoshlik” (94, 41-b) deya ta’riflaydi.


Akkord ta’rifining yana bir tomoniga ahamiyat berish lozim. Nazariyaning an‘anaviy ta’rifida akkord albatta uch tovushdan iborat bo‘lishi kerak deyiladi. Masalan. Yu.N. Tyulinning fikricha: “Akkordning konstruktiv yaxlitligi, balandligi bilan farq qiladigan, kamida uch tovushdan iborat...” Olimning fikricha ikki tovush majmuida akkord tuzilmaydi, chunki bu holda tovushlar birikmasi lad tizimida o‘z o‘rnii, ya’ni funksiyasini belgilab bera olmaydi. (84, 28-b.). Mazkur qoida ko‘rsatadiki, Tyulin bu masalani hal etishda ko‘proq klassik musiqa tajribasiga asoslangan. Ohirgi garmoniyaga bag‘ishlangan nazariy ilmiy asarlarda tahlil qilingan uslublarning doirasi kengayib, akkord ta’rifi, ayniqsa zamonaviy musiqa qoidalarining negizida son jihatidan kamida uchtovushlik bilan cheklanishi, qaytadan ko‘rib chiqilmoqda. T.S. Bershadskaya va Yu.N. Xolopov akkord ikki tovushdan ham iborat bo‘lishi haqida so‘z yuritib, akkordning asosiy belgilari tuzilmada emas, aksincha, tovushlarning o‘zaro yaxlitligida va mantiqiy differensiatsiyasida, deb uqtirishadi (12, 22-b., 94, 42-b.).

## 1.2. Klassik akkordning mantiqiy tuzilmasi

Tersiya bo‘yicha tuzilgan akkordlarning asosiy turlari – uchtovushlik, septakkord, nonakkordlardir.

Akkordning asosiy belgilari – yaxlitlik, birlik, akkordni tashkil qiladigan har bir tonning o‘ziga xos funksiyaga egaligi bilan bog‘liqdir.

Yu.N. Xolopov "Garmoniya" darsligidaakkordning quyidagi i c h k i funksiyalari chizimini beradi (№ 24):



1. *Asosiy ton.* Akkordning bosh tovushi butun ohangdoshlikni taqdim etish imkoniyatiga ega.

2. *Akkord konsonanslari* tarkibiga asosiy tondan yuqorida joylashgan sof kvinta va tersiya (katta yoki kichik) kiradi. Ushbu tovushlar asosiy tovush bilan birgalikda akkordning konsonanslik mohiyatini hosil qilishadi.

3. *Akkord dissonanslari* qatoriga esa septima, nona, seksta va barcha alteratsiyalangan tovushlar kiradi.

4. *Yondosh (qo'shimcha) tonlar* tarixiy akkord dissonanslariga o'xshab "to'xtab qolgan" o'tkinchi yoki yordamchi tovushlardan paydo bo'lgan. Lekin dissonans tonlaridan akkordning tersiyali tarkibini buzishi bilan farqlanadi. Misol: -D,<sup>6</sup>. Yondosh tovushlar guruhiiga organ punktlari ham kiradi.

5. *Akkordsiz tovushlar* to'xtalmalar, yordamchi va o'tkinchi tovushlar akkord tarkibiga kirmaydi, lekin u bilan ma'lum aloqada bo'lib, tashqari akkord funksiyalarini tashkil qiladi.

### 1.3. Klassik akkordlarning asosiy tomonlari

Har bir akkordning uch xususiyatli tomonlarini ta'riflash mumkin:

1 - akkordning tovushi, masalan tersiya yoki kvinta akkord toni sifatida izohlanishi bilan bir qatorda, kuyning tovushlari deb ham talqin qilinadi. Ya'ni, tonlarning gorizontal izchilligi akkordning k u y t o m o n i n i hosil qiladi.

Akkordning bu so'nggi xususiyati ayniqsa XX asr musiqasi uchun dolzarbo'lib, zamonaviy garmoniya va polifoniya qoidalari bilan chambarchas bog'lanib ketganligidan dalolat beradi;

2 - har bir akkord o'ziga xos f u n k s i y a g a ega. Bu funksiya tonikaga nisbatan belgilanadi;

3 - akkordning yorqinligi, rangi, ya'ni keskin, yumshoq, og'ir, yengil, mayin, qattiq, quyuq jaranglashi uning f o n i z m tomonini tashkil qiladi. Akkordning bu tomoni butunlay uning ichki tuzilishiga interval tarkibi, tovushlar soni, ikkilanishi, joylanishi va registriga aloqadordir.

Akkordning ikkinchi va uchinchi xususiyatlari bir umumiy qoidaga ega

– agarakkordning funksional tomoni kuchliroq bo'lsa, fonizm tomoni kuchsiz bo'ladi va aksincha, ta'sirli fonizm funksional aloqalarni bo'shashtiradi. Mazkur qonuniyat vaakkordning fonizm tomoni haqida birinchi bo'lib Yu.N. Tyulin yozgan (32, 24-b.). Olimning g'oyalariga asoslanib L.A. Mazel bu masalani boshqa nuqtai nazardan ko'rib chiqadi. Agarda Yu.N. Tyulin asosiy e'tiborni funksiya va fonizmni ta'riflash va differensiallashga bag'ishlagan bo'lsa, L. Mazelakkordning bu ikki jihatining bir-biri bilan bog'lanishini, o'zaro munosabatini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi: "...funksionallik va fonizmni cheklangan hollar sifatida ajratish bilan ularning o'zaro munosabati garmoniya tilingning katta bir sohasini tashkil qilishini nazarda iutish kerak" (18, 140-b.). Xususan, Yu.N. Tyulin kashf qilgan mazkur qonuniyatni umumiy deb talqin etib, L. Mazel bir qanchaakkordning ikki tomoni bir yo'nali shda harakat-lanishiga misollar keltiradi. Masalan, alteratsiya zo'r koloristik taassurot yaratib, bir yo'laakkordning funksional xususiyatlarini ham kuchaytiradi.

#### 1.4. Akkord tuzilishining akustik negizi

Nazariy musiqa ilmidaakkordning tuzilishi bilan bog'liq bir muammo haqida ko'p mulohazalar yuritilgan.

Ma'lumki, ko'p ovozli xalq musiqasida turli tuzilmalarga asoslanganakkordlar keng ommalashgan. Lekin klassik garmoniya uslubida faqat tersiya bo'yicha tuzilganakkordlar odattusini olib, bir necha asr davomida ularning yagona shakli sifatida yuritilgan. Ushbu jarayon yuzaga kelishiga qanday qonunlar sabab bo'lgan? Uning obyektiv negizi nimada? Bu kabi savollarga XVII asrda t a b i y t o v u s h q a t o r tizimi kashf etilgandan keyin munosib javob shakllandi. Ma'lum bo'ldiki, bir tovush yangraganida cholg'u asboblari tori butun uzunligi bo'ylab tebranishi uning alohida qismlarini ham tebratadi. Natijada, bir tovush to'laqonli eshitilsada, aynan shu sado ketidan bir talay tovushlarning majmuasi hosil bo'lishi aniqlandi. Bu tovushlar asosiy tovushdanyuqoriroq yangrab, aniq bir tartibda joylashgan. Masalan: "do" tonidan quyidagi tabiiy tovush qator tashkil bo'ladi (№ 25):

25.

Bosh tondanyuqoridagilari "oberton tovushlari" deb nomlanadi.

Intervallarning garmonik xususiyatlari ularning tabiiy tovushqatorda o'tmashganligi bilan bog'liqdir.

M u k a m m a l k o n s o n a n s l a r pastki, eng kuchli obertonlar vositasida hosil bo'ladi. Bu konsonanslarning turlari yo'qligi ularning intonatsion mustaqilligiga olib keladi.

N o m u k a m m a l k o n s o n a n s l a r kuchi nisbatan pastroq bo'lgan tersiya obertonlaridan yuzaga keladi. Bu konsonanslar tovushqatordagi kichik va katta tersiyalardan tashkil topib, intonatsion muqobil ko'rinishlari bilan ajralib turadi.

Sekundalar eng kuchsiz obertonlardan iborat bo'lib, tabiiy tovushqatorda hosil bo'ladigan turiarining ko'pligi ularni intonatsion variantlari jihatidan boyitadi.

Pastki oltita oberton k o n s t r u k t i v ahamiyatga ega. Zero, ular tarkibiga kiradigan konsonanslar major uchtovushligini tashkil qiladi. Ushbu konstruktiv obertonlardan yuqorida joylashgan tonlarakkord tuzilmasiga ta'sir qilmay, faqat tembr, bo'yoq jihatidanakkordni boyitadi.

Tabiiy tovushqatorning k o n s t r u k t i v qismida major uchtovushligi namunasi joy topganligiakkordning boshqa tuzilma va faktura hodisalarini to'laroq anglash uchun asos beradi.

Xususan, tovushqatorning bosh va oberton tonlarga bo'linishiakkord tuzilishida o'z aksini topadi:akkord ham ikki "qavat" –fundamental bas va birlashgan uch oberton tovushlaridan iborat.

So'ngra, oberton tovushlariga xos tovushlarning takrorlanishi (asosiy ton uch, kvinta ikki, tersiya bir marotaba)akkord tonlari juftlanishida va ovoz yo'naliш qoidalari o'matilishida ifodalanadi. Masalan: parallel oktavalar va kvintalarning man etilishi, ularning bosh ton bilan birlashib ketishi va natijada, bir real tovush g'oyib bo'lganday sezilishiga asos bo'ladi.

Oberton tovushqatorining kashf etilishi klassikakkord shakllanishining ko'p tomonini yoritib bersada, bir savolga javob bera olmaydi. Ya'ni mazkur oberton tovushqatori faqat major uchtovushligiga to'g'ri keladi, minor uchtovushlik tonlariga uning tarkibida joy topilmaydi. Demak, bu (minor) uchtovushlik qayerdan paydo bo'lgan, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Ko'p olimlar ushbu savolga javob berishga harakat qilishgan. Xususan, XIX asrda G. Rimann minorakkordini akustik jihatdan asoslash uchun "unterton nazariyasi"ni ishlab chiqqan. Rimann oberton qatoriga tayanib, simmetriya holda quyidagi unterton qatorini tuzgan (№ 26).

Darhaqiqat, ushbu tovushqatorda minor uchtovushligining tonlari sodir bo'lganday ko'rindi. Lekin mazkur tovushqator obyektiv, ya'ni tabiiy akustik qonunlarga asoslangan obertonlar qatoriga qaraganda faqat mantiqiy, mavhum tuzilma bo'lib, minor uchtovushligi sodir bo'lishi muammosini yoritib bermaydi.

Hozirgi davrda bu masala haqida eng jiddiy fikr Yu.N. Tyulinning ilmiy asarlarda bayon etilgan. Uning fikricha, minor uchtovushligi o'zining funksiyasi, tuzilishi bilan major uchtovushligiga yaqin. Har ikki

uchtovushlik tersiya bo'yicha, kvinta hajmida tuziladi. Har ikkisi – konsonanslik, turg'unlik va ladning to'laqonli tonikasi ekanligi bilan bir-biriga teng. Shu bilan birga minor uchtovushligi sadolarida major uchtovushligiga nisbatan ma'lum qarama-qarshilik mavjud: har bir tovush obertonlari asosida minor emas, major uchtovushligi (yashirin holatda bo'lsada) mavjud bo'ladi. Natijada, minor uchtovushligining tersiyasi va beshinchi oberton o'rtasida tug'ilgan ziddiyat, ushbu uchtovushlik xususiyatlarning yuzaga chiqishiga katta ta'sir qiladi.

Xususan, minor uchtovushligi nechog'lik mustaqil bo'lmasin, avtentik kadans yo'naliishlarda, uning major uchtovushligiga tobeligi his qilinib turiladi. Minordan keyin olingan major uchtovushligi turg'unlik sifatida sezilsada, xuddi teskari yo'naliish – bo'lingan kadensiyasiga o'xshab yana musiqiy rivojlanishni talab qiladi.

Birinchi vosita o'tmisht musiqasida keng qo'llanib kelingan. Masalan, I.S. Bax ijodida, minor tonalliklarida yozilgan asarlarining major uchtovushligi bilan tugallanishi nihoyatda xosdir.

Keyingi asrlarda buakkordlarning farqi ancha kamayib, minor uchtovushligi major uchtovushliklari qatorida teng turg'un funksiya tarzida qo'llanila boshlangan.

Barcha bayon etilgan ma'lumotlar akustika qonuniyatlarining musiqa tafakkuri mantig'iga ta'sir etishiga dalildir. Lekin shu bilan birga, aynan keltirilgan dalillar, xususan minor uchtovushligining major uchtovushligiga teng yuritilishi, bu ta'sir nisbiy tarzda ijodiy tajriba jarayoniga xos joy topganligidan dalolat beradi. Demak, musiqa hodisalarining izohlanishi, sezish qoidalari majmuiga va ushbu hodisalarga tarixan yondashuv bilan uzviy bog'langandir.

## **2. UCHTOVUSHLIKALAR**

## 2.1. Umumiyyat ta’rif

Majorning uchta asosiy uchtovushligi I, IV, V – pog'onalarda tuziladi. Ular, birinchidan, bosh funksiyalar (T, S, D)ni ifodalasa, ikkinchidan major uchtovushliklari sifatida ladning asosiy ta'riflari belgisi vazifasini o'taydi. Majorda uchta minor – II, III va VI – pog'ona uchtovushliklari qo'shimcha yoki yondosh guruhlarni tashkil qiladi. VII – pog'ona uchtovushligi tarkiban kamaytirilgan uchtovushlikni tashkil qiladi va boshqaakkordlardan noturg'unligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham u asosan sekvensiyada qo'llaniladi(№ 27-a):

27.a)

## **Do major Asosiy akk. guruhi**

## Yondosh akk. gunhi

Musical notation for 'gurumi' and 'guruhi' on a treble clef staff. The notes are arranged in two groups separated by a vertical bar. The first group consists of three eighth notes, each with a vertical stem pointing down. Below the first note is the Roman numeral I. The second group consists of four eighth notes, also with vertical stems pointing down. Below the first note of this group is the Roman numeral II. Below the second note is the Roman numeral III. Below the third note is the Roman numeral VI. Below the fourth note is the Roman numeral VII. The notes are positioned on the first, second, and third lines of the staff.

M inoring uch turidan garmoniyada tabiiy va garmonik xillari muhim rol o'ynaydi. Garmonik minor tabiiy minordan yetakchi toni bilan ajraladi, shuning uchun bu ladlarning yetakchi tonini kiritadigan akkordlari farqlanadi. Badiiy tajribada V – pog'onada tuzilgan uchtovushlik ko'pincha garmonik, III va VII – pog'ona uchtovushliklari esa tabiiy tarzda qo'llaniladi (№ 27 b):

b) Iva minor

## **Asosiy akk. guruhi**

## Yondosh akk. guruhi

A musical score for 'gurumi' on a treble clef staff. The staff has seven notes. Vertical lines group them into pairs: the first two notes are a pair, the next two are a pair, and the last three are a pair. Above the staff, the word 'gurumi' is written twice, once above each pair of notes. Below the staff, Roman numerals are placed under each pair: I under the first pair, IV under the second, V under the third, III under the fourth, VI under the fifth, VII under the sixth, and II under the seventh.

## **2.2. Uchtoiyushliklarning iuftlanishi va tuzilishi**

Akkorddagi juftlanish badiiy maqsadga daxldordir. Akkord musiqalarning rivojlanishi jarayonida ajralgan holda sezilmasligi uchun uning yangrashini ravon, tekis bo'lishi kerak, ovozlarning birortasi ham bo'rtib eshitilishi noma'quldir. Lekin biror akkordga diqqatni jalb etadigan bo'lsak, u o'zining lad yoki joylashuviga jihatidan g'ayritabiyy holda qo'llanishi lozim.

Akkord tonlari ravon va tekis yangrashi uchun: a) lad jihatdan eng yorqin tovush; b) fonizm jihatdan esa eng xarakterli tovush juftlanishi taviya etildi.

Shu nuqtai nazardan uchtovushlikda a s o s i y t o n juftlanishi m e' y o r i y ravishda o'rnatiladi. Bu holda eng to'la muvozanat vujudga keladi (№ 28):

28.

I. S. Bax. Xoral. №102

Lekinakkord yorqinligini boyitish yoki musiqiy fikr yo'nalishiga moslash maqsadida, ko'pincha kuyda joylashgan tersiya yoki kvinta tonlari ham ikkilanishi mumkin. Tersiya juftlanishi ayniqsa yondosh uchtovushliklarda keng tarqalgan.

Uchtovushliklarning *to'liq* va *to'liqsiz* turlari bor. Ko'pincha *to'liqsiz* uchtovushliklarda kvinta tushirib qoldiriladi. Bu holda hamakkord *to'liqdek* yangraydi, chunki kvinta primaning kuchli obertoni sifatidaakkordda aniq sezilib turadi (№ 29):

29.

W. A. Motsart. Son. №11, II.

Menuetto

Agar tersiya toni tushirib qoldirilsa, uchtovushlik o'zining lad belgisini yo'qotadi vaakkord neytral his qilinib, sadosi quruq, bo'sh bo'ladi. Shuning uchun bundayakkord klassik garmoniyaga xos emas. Lekin XIX va ayniqsa XX asrda tersiyasiz uchtovushliklar qo'llanishi ommalashdi (№30):

**Moderato**

### 2.3. Uchtovushliklarning qo'shilishi

Akkordning asosiy tovushlari (bas tonlari) orasidagi masofa a k k o r d - l a r n i s b a t i deyiladi. Akkordlarning *kvarta-kvintali*, *tersiyali* va *sekundali* nisbatlari mavjud. Ular yuqoriga yoki pastga tomon yo'naltirilgan nisbatlarni tashkil etishi mumkin (№ 31):

31. Yuqori kvartali  
nisbat

Past kvartali  
nisbat

Yuqori tersiyali  
nisbat

Past tersiyali nisbat

Yuqori sekundali  
nisbat

Past sekundali  
nisbat

*Tersiya* nisbatidagi uchtovushliklar orasida ikkita umumiy tovush, *kvarta-kvinta* nisbatidagi uchtovushliklar orasida bitta umumiy tovush bo'ladi. *Sekundali* nisbatdagi uchtovushliklar orasida umumiy tovushlar bo'lmaydi (№ 32-a, b, d):

32. a)

b)

d)



Uchtovushliklarning **qat'iy** qo'shilishida ovozlarning butunlay ravon yo'nalishi kuzatiladi. Bu holda asosan garmonik qo'shilish sodir bo'lishi mumkin, ya'ni umumiy tovush birlamchi ovozda o'z o'mida qolishi zarur.

Garmonik qo'shilishda *tersiya* nisbatida bo'lgan uchtovushliklarda ikki umumiy tovush o'z o'mida qoldiriladi (№ 33-a).

*Kvarta-kvinta* nisbatidagi uchtovushliklar orasida bitta umumiy tovush bo'lganligi tufayli, ovozlarning harakatchanligi oshadi (№ 33-b).

*Sekundali* nisbatdagi uchtovushliklar orasida umumiy tovush bo'lmasligi sababli, ular melodik tarzda qo'shiladi va tovushlarning birontasi ham o'z o'mida qolmaydi (№ 33-d):

33. a)

b)

d)

I III I VI I IV III VI IV V III IV

Uchtovushliklarning **yarim erkin** ovoz yo'nalishida tovushlar ravon tersiya yurishida qo'shiladi. Bundayakkordlarning ham bog'lanishi faqat melodik ravishda bo'ladi.

*Kvarta-kvinta* nisbatidagi uchtovushliklar melodik tarzda qo'shilganda barcha yuqoridagi tovushlar bir tomonga – yaqin tovushlarga harakat qiladi, bas esa aksincha, qarama-qarshi kvartaga o'tadi (№ 34-a,b).

*Tersiya* nisbatidagi uchtovushliklar melodik qo'shilganda, parallelizmdan saqlanish uchun, birinchi uchtovushlikning tersiyasi ikkinchi uchtovushlikning tersiyasiga o'tishi va altda sekunda harakati vujudga kelishi lozim (№ 34-d):

34. a)

b) ba'zida kam  
uchraydi

d)

*Sekundali* nisbatda qat'iy yo'nalishdan chetlanish faqat sakrash bilan hosil bo'ladi.

Erkin ovoz yo'nalishi tovushlarning sakrashi bilan hosil bo'ladi. Bunday yo'nalish barcha uchtovushliklar nisbatiga xos bo'lib, quyidagi umumiy qonunlarga asoslanadi:

1. Sakrash albatta j o y l a s h u v h o l a t i o' z g a r i s h i g a olib boradi. Masalan, sakrash soprano yuqori tomonga bo'lsa zich holatdan-keng holatga, pastda bo'lsa, keng holatdan - zich holatga o'tiladi.

2. Barcha nisbatlarda sakrash b i r o r t a s i n i n g t e r s i y a s i, albatta b o s h q a birining t e r s i y a s i ga sakrab o'tishi bilan bajariladi.

3. Eng katta sakrash soprano yoki tenorda bo'lishi mumkin, altda esa sakrash ravonroq bo'lib, yordamchi sifatida qo'llaniladi.

Ushbu umumiy qonunlardan tashqari har bir uchtovushlik nisbatida o'ziga xos qoidalar bor.

*Kvarta-kvintali* nisbatdagi uchtovushliklar tersiyalar sakrashi bilan qo'shilganda, umumiy tovush joyida qoladi, ya'ni bog'lanish albatta garmonik bo'ladi. Soprano dagi sakrashlar bunga misol (№ 35-a):

35.

a)

Agar sakrash *tenorda* bo'lsa joylashuv holati o'zgarishi soprano sakrashiga qaraganda teskari tartibda bajariladi: sakrash yuqoriga bo'lsa-keng holatga, pastga bo'lsa - zich holatdan keng holatga o'tiladi (№35-b).

*Altda* qo'llanadigan tersiya sakrashlari melodik qo'shilishni, akkordning birida yoki ikkala akkordda tersiya tonini juftlanishini talab

qiladi (№ 35 d):

I VI IV VI I III IV II

*Tersiya nisbatidagi uchtovushliklarni tersiyalar sakrashi bilan qo'shganda, albatta biror ovozda sekunda harakati saqlanishi kerak (№ 36 a, b):*

36. a) Soprano da sakrashlar

b) Tenor da sakrashlar

b)

I V III VI II VI VI II I IV

d)

I V III VI II VI VI II I IV

*Sekundali nisbatda sakrash faqat kvintadan asosiy tonga bo'lishi mumkin. Shu qo'shilishning tabiiyligini kuchaytirish uchun tersiya tonlari bir tovushda ulanishi shart. Bu ulanish pog'onama-pog'ona (mis. № 37-a) yoki past tornonga septimaga sakrashi bilan amalga oshiriladi. Oxirgi holda bir vaqtida altda ikkinchi sakrash hosil bo'ladi (№ 37-b):*

37. a)

b) lydian minor

IV V V VI IV V

### 3. SEKSTAKKORDLAR

#### 3.1. Umumiy ta’rif

Sekstakkord – uchtovushlikning birinchi aylanmasi bo‘lib, uning turg‘unlik xususiyati uchtovushlikka nisbatan sostroqdir. Shuning uchun sekstakkordlar asosan tuzim orasida qo‘llanib, musiqa rivojida uzlukszilik yaratadi. Umumiy qoidaga ko‘ra, jumla yoki davriya oxiridagi kadensiyalarda sekstakkorddan yakunlovchiakkord sifatida foydalanmaydi. Tuzimning yakunidan oldingiakkordi sifatida olingan sekstakkord har bir kadensiyani nomukammal kadensiyaga aylantiradi.

#### 3.2. Sekstakkordlarning juftlanishi

Sekstakkordlarning juftlanishi mazkur (26-b.) ta’kidlangan umumiyakkordlar juftlanishi qoidalariga bo‘ysunadi.

Shu nuqtai nazardan, asosiy sekstakkordlarda  $-T_6$ ,  $S_6$ ,  $D_6$  tersiya toni juftlanmaydi, chunki tersiya lad jihatdan buakkordlarning eng muhim va yorqin tovushidir. Uning juftlanishi sekstakkordlarning ichki muvozanatini buzadi.

Kamaytirilgan uchtovushlik sekstakkordning o‘ziga xos yangrashi prima va kvinta orasida vujudga kelgan triton bilan bog‘liq, ya’ni bu tovushlar juftlanishi maqsadga muvofiq emas.

Sekstakkordlarning normativ joylanishida asossiy yoki kvingtata tonlari juftlanadi. Shu guruhga  $T_6$ ,  $S_6$ ,  $D_6$ ,  $SII_6$  va tabiiy minorning  $dIII_6$ ,  $d_6$ ,  $dVII_6$  kiradi (№ 38-a, b):

38. a)

**kadensiyadan tashqari**

I<sub>6</sub>   I<sub>6</sub>   IV<sub>6</sub>   IV<sub>6</sub>   V<sub>6</sub>   V<sub>6</sub>   II<sub>6</sub>   II<sub>6</sub>

b) tabiiy minorda

III<sub>6</sub><sup>t</sup>   III<sub>6</sub><sup>t</sup>   V<sub>6</sub><sup>t</sup>   V<sub>6</sub><sup>t</sup>   VII<sub>6</sub><sup>t</sup>   VII<sub>6</sub><sup>t</sup>

$SII_6$  va  $DTIII_6$  (major, garmonik minor) tersiyasi juftlanishi mumkin. Bu hodisa akkordlarning kadensiyada qo'llanilishi bilan bog'liq – tersiya juftlanishi subdominanta ( $II_6$ ) va dominanta ( $III_6$ ) xususiyatlarining kuchaytirishiga olib boradi (№ 39):

39.

I            II<sub>6</sub>            III<sub>6</sub>            I

$DVII_6$  (major, garmonik minor) tersiyasi juftlanadigan sekstakkordlar o'rtaida alohida o'rin egallaydi. Bu akkorddan foydalanish ko'pincha muayyan kuy yo'nalishi bilan bog'liq: a) o'tkinchi akkord sifatida tonika va uning sekstakkordi o'rtaida (№ 40-a); b) tepadagi yuqoriga yo'nalgan tetraxordni (V-VI-VII-VIII) majorda va melodik minorda garmoniyalashtrishda qo'llanadi (№ 40-b):

40. a)

I<sub>6</sub>      VII<sub>6</sub>      I      I<sub>6</sub>      IV      VII<sub>6</sub><sup>r</sup>      I

b)

Melodik lya minor

Sekstakkordlarning juftlanishiga doir bayon etilgan asosiy qonunlarga quyidagi qo'shimchalar kiritish lozim. Agar sekstakkord o'z uchtovushligidan keyin harakatlansa (41-a), o'rni almashsa (41-b) yoki harakat ravon qarama-qarshi bo'lsa (№ 41-d) – tersiyalar juftlanadi:

41.

I      I<sub>6</sub>      III      III<sub>6</sub>      VI<sub>6</sub>      IV<sub>6</sub>      V<sub>6</sub>      IV<sub>6</sub>      III<sub>6</sub>

b)

d)

### 3.3. Sekstakkordlarning uchtovushliklar va boshqa sekstakkordlar bilan qo'shilishi

Ovoz **qat'iy**, **ravon** yo'nalishida: *kvarta-kvinta* va *tersiya* nisbatidagi akkordlar ko'pincha garmonik, *sekunda* nisbatidagi akkordlar – melodik qo'shiladilar (№ 42):

42.

I      IV<sub>6</sub>      VI<sub>6</sub>      III<sub>6</sub>      I<sub>6</sub>      V<sub>6</sub>      I<sub>6</sub>      III<sub>6</sub>      III<sub>6</sub>      V<sub>6</sub>      I<sub>6</sub>      IV<sub>6</sub>      V<sub>6</sub>      III<sub>6</sub>      IV<sub>6</sub>

**Erkin** ovoz yonalishida *kvarta-kvinta* munosabatidagi akkordlarning qo'shilishi bir akkordning primasi ikkinchi akkordning primasiga, kvintasi-kvintaga *sakrab* o'tishi orqali sodir bo'ladi. Sakrash soprano da yuqoriga yo'nalgan bo'lsa, uchtovushlik albatta sekstakkordga o'tishi kerak; sakrash pastga yo'nalgan bo'lsa, uchtovushlikning sekstakkord bilan almashuvi har xil kelishi mumkin (№ 43-a).

Agar tovushlar parallel yoki qarama-qarshi kvartalar orqali yo'nalishsa, prima bilan kvinta qo'shaloq sakrashi ham mumkin (№ 43-b).

43. a)

Akkordning turli tovushlari orasida ham sakrashlarga imkon bor (№ 44):

44.

Tersiya munosabatida bo‘lganakkordlarning erkin qo’shilishida sakrash bir xil yoki turli ovozlar o’rtasida sodir bo’lishi mumkin (№ 45):

45.

Sekunda nisbatidagi sakrashlar cheklangan va kam tarqalgan. Quyidagi misollar bunday qo’shilish yo’llarini namoyish etadi (№ 46):

46.

IV<sub>6</sub>      V<sub>6</sub>      IV<sub>6</sub>      V      VI      V<sub>6</sub>

## 4. KVARTSEKSTAKKORDLAR

### 4.1. Umumiy ta'rif

Kvartsekstakkord uchtovushlikning ikkinchi aylanmasi bo'lib, uning basi juftlanadi. O'z xususiyatlari bilan buakkord uchtovushliklar va sekstakkordlardan ancha ajralib turadi. Chunki bas bilan yuqoridagi bironta tovush kvartani tashkil qiladi. Kvarta esa, ko'p musiqa uslublariga xos bo'lgan tersiya bo'yicha akkord tuzilishiga zid kelib, dissonans sifatida seziladi va yechilishi taqozo etiladi.

### 4.2. Kvartsekstakkordlar turlari

To'liq va yarim kadensiyalarda qo'llanadigan birinchi pog'ona kvartsekstakkordi k a d a n s k v a r t s e k s t a k k o r d i ( $K_{6/4}$ ) deb nomlanadi. Bu akkord odatda dominantadan oldin kelib, nisbatan kuchliroq hissada joylashadi. Tipik hollarda  $K_{6/4}$  subdominant a yoki tonikadan keyin go'llaniladi (№ 47):

47.

I. S. Bax. Xoral. №87.

Kadans kvartsekstakkord ikki yoki uch ovozda D,D, da bo'lgan to'xtalmadan paydo bo'lib, tovush tarkibi jihatidan: a) tonika funksiyasiga; b) basi, to'xtalma xususiyatlari bilan dominanta funksiyasiga aloqadordir. Demak, K<sub>6/4</sub> ikki funksional (bifunksional) xususiyatiga ega.

O'tkinchi kvardi kvarsekstakkord uchtovushlik va uning sekstakkordi orasida, kuchsiz hissada pog'onama-pog'ona harakatda hosil bo'ladi. Bunday o'Ichov sharoit va ovoz yo'nali shining yetakchiligi izchillik funksiya tomonidan uyushiq tarzda jaranglashiga olib boradi.

Tipik ovoz yo'nali shishi (№ 48-a, b):

48. a)

I      V<sub>64</sub>      I<sub>6</sub>      II<sub>6</sub>      VI<sub>64</sub>      II      IV      I<sub>64</sub>      IV<sub>6</sub>

Ayrim hollarda, o'tkinchi T<sub>6/4</sub> subdominantalarga ko'ra takning kuchli hissasida ham qo'llanishi uchraydi (Mis. № 48-b):

b)

IV<sub>6</sub>      I<sub>64</sub>      IV      V<sub>2</sub>      I<sub>6</sub>

Yordamchi kvartsekstakkord uchtovushlik va uning takrori orasida, kuchsiz hissada hosil bo'ladi (№ 49-a):

49. a)

I      IV<sub>64</sub>      I      VI      II<sub>64</sub>      VI      III      VI<sub>64</sub>      III

Buakkord yordamchi tovushlardan kelib chiqib, funksional tomondan kam muayyanligi tufayli chetgiakkordlar funksiyasiga bo'ysunadi. Natijada,akkord asosiy xususiyatlar sirasiga biror-bir funksiya ta'sirini uzaytirish qodirligini kiritadi. Shu bois T - S<sub>6/4</sub> - T izchilligi ko'pincha davriyaning boshida yoki oxirida, kadansdan keyin, qo'llaniladi. Ya'ni, davriyaning tonika funksiyasi jiddiy ko'rsatiladigan o'rinda joylashadi. Quyidagi misolda kadansdan keyin kelgan T - S<sub>6/4</sub> - T izchilligi uzoq vaqt mobaynida sadolanib, Si majorni asosiy tonallik sifatida tasdiqlaydi (№ 49-b):

49. b)

W. A. Motsart. Son. №18, II.

*Allegretto*

Oraliq kvartsekstakkordi birakkordning basi garmonik tonlar bo'yicha harakati bilan vujudga keladi. Bu holda ham kvartsekstakkord mustaqil ohangdosh sifatida qo'llanilmaydi. Uning paydo bo'lishi basning xarakterli yurishi va kuy yo'nalishi bilan bog'liq (№ 50-a, b, d).

XIX asr oxiridan boshlab kvartsekstakkordlar erkin qo'llaniladigan bo'ldi. Ular mustaqilakkord ma'nosiga ega bo'lib, uchtovushliklar va sekstakkordlarga o'xshab, faqat muayyan izchillikda bo'lmasada, biroq har qanday musiqa rivojiga to'g'ri keladigan joyda foydalaniadi (№ 51).

50. a)

b)

I      I6      I64      I

d) Andante

I. Akbarov. "Samarqand  
manzaralari". "Bibixonim".

K. Debussy. "Preludiya". №3.

Mouv de Habanera

## 5. SEPTAKKORDLAR

### 5.1. Umumiy ta'rif

Septakkordlar uchtovushlikka yuqoridañ tersiya qo'shilishi bilan yuzaga keladi<sup>1</sup>. Diatonikada tuzilishi bilan farq qiladigan ja'mi 7 ta septakkord uchraydi. Ularning nomi tarkibidagi uchtovushliklar va mavjud septimalarga bog'liqdir. Chetdag'i ovozlarida *katta septima* tashkil qiladigan septakkordlar – katta major septakkordi, katta minor septakkordi va katta orttirilgan septakkordlardir (№ 52-a):


<sup>1</sup>Badiiy tajribada diatonikaning barcha septakkordlaridan foydalanişda sekvensiyalar katta rol o'ynagan. Polifonik va gomofonik uslublarda muhim o'rın egallab, sekvensiyalar, musiqaning harakati to'xtosiz, muttasil bo'lishiga imkon tug'diradi. Tonal sekvensiyalarga shunday izchilliklar xoski, ular funksional jihatdan eng kuchli aylanishlarni sodir etishadi: V<sub>7</sub> - I; V<sub>2</sub> - I<sub>6</sub>; II<sub>6/5</sub> - V<sub>2</sub> va hokazo.




Chetdagi ovozlarida *kichik septima* tashkil qiladigan septakkordlat kichik major septakkordi, kichik minor septakkordi va kamaytirilgan uchtovushlik septakkordlaridir (№ 52-b).

Chetdagi ovozlarida *kamaytirilgan septima* tashkil qiladigan septakkord kamaytirilgan uchtovushlik asosida yuzaga keladi va kamaytirilgan deb nomlanadi (№ 52-d):

b)



d)



Septakkordlarning qo'llanishi va tarqalishi bir xil emas. Ularning ta'sirli imkoniyatlari faqat tovush tarkibi va funksional ma'nosi bilangina emas, balki yorqinligi, dissonansligi darajasi bilan ham chambarchas bog'liqidir. Badiiy tajribada *kichik*, ayniqsa, *kichik major*, *kichik kamaytirilgan uchtovushlik septakkordlari* va *kamaytirilgan septakkordlar* ko'proq uchraydi. Katta septima bilan chegaralangan septakkordlar esa nisbatan *kamroq targalgan*.

Septakkordning funksional qarashligi uning negizidagi uchtovushlik xususiyatlariiga bog'liq, lekin u yoki bu funksiyani ifodalash darajasi – septima mavjudligi tufayli o'zgaradi.

Ushbu nuqtai nazaridan septakkordlarni ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhdagи D<sub>7</sub>, DVII, va SII,akkordlarga mavjud septima lad jihatidan zidlik qilmaydi va noohanglik sifatidaakkordlar tarangligini kuchaytiradi. Bu septakkordlar dastlabki funksional ahamiyatga ega bo'lib, *bosh septakkordlar* deb nomlanadi.

Ikkinci guruh septakkordlari S<sub>7</sub>, TSVI<sub>7</sub>, T<sub>7</sub>, DTIII, da esa aksinchalad jihatidanakkordlarga zidlik kiritib, funksional noaniq, aralash bo'lishiga olib keladi. Masalan, bular ichida eng keng tarqalgan S, da septima – ladning tonikasiga kiradigan turg'un ton bo'lsada, aynan subdominant uchtovushligiga bu ton kirmaydi. Demak, S, subdominant uxtusiyatlariiga zid kelib, funksional tomonidanakkordni bo'shashtiradi.

Bu guruhakkordlari birinchi guruhdagilarga qaraganda ancha kam qo'llanilishi tufayli *yondosh septakkordlar* deb nomlanadi. Ular funksional tomonidan kuchsiz bo'lib, garmoniyani ko'proq bo'yoq, fonizm tomonidan boyitadi.

Septakkordlar mustaqilakkord sifatida (uchtovushliklarga qaraganda) badiiy tajribada ancha kech o'zlashtirila boshlangan. Ma'lumki, birinchi

bo'lib septakkordlardan italyan kompozitori K. Monteverdi (1567-1643) o'z operalarida foydalangan. Lekin garmoniyaning bu hodisasi nazariya fanida, xususan, dominantseptakkordning bifunksional, dissonans ohangdoshlik sifatida yoritilishi, faqat fransuz olimi va kompozitori J.F. Ramo (1683-1764)ning tadqiqoti ("Garmoniya haqidagi risola, uni tabiiy tomonlariga mujassamlashtirish")da 1722 - yili o'z aksini topadi.

Septakkordlar qo'llanishi musiqa asarida garmoniya rivojlanishiga dinamika qo'shdi — yechilishni talab qilgan dissonanslar tonikaning turg'un xususiyatlarini kuchaytirib, laddaakkordlarning funksional differensiyasini chuqurlashtirdi.

### 5.2. Septakkordlarning kiritilishi

S e p t a k k o r d l a r q o ' l l a n i s h i funksional jihatdan uchtovushliklar qo'llanishidan kam farq qiladi.

Faqat septima mavjudligi septakkordlarga o'ziga xos xususiyat baxsh etadi va ovoz yo'nalishini murakkablashtiradi.

Barcha septakkordlarning kiritilish qoidalari asosan s e p t i m a bilan bog'liq bo'lib, D, ga o'xshaydi. Ya'ni, septakkord ko'pincha *ravon* ovoz yo'nalishida qo'llanadi: septima, yoki pastlama pog'onama-pog'ona harakatda (№ 53-a), yoki bir ovozda saqlangan umumiyl tovush sifatida kiritiladi (№ 53-b).

Septimaning *sakrash* yo'li bilan kiritilishi ham keng tarqagan. Bu sakrash albatta yuqori tomonga bo'lishi kerak, chunki aks holda septimaning majburiy pastga yo'nalishi kuy shaklining asosiy tamoyiliga (har bir sakrash qarama-qarshi harakat bilan to'ldiriladi) zid keladi (№ 54):

53.

a)

V V<sub>7</sub>

b)

I I<sub>2</sub>

54.

IV V<sub>2</sub>

II V<sub>7</sub>

V<sub>6</sub> V<sub>65</sub>

### 5.3. Dominantseptakkord va uning aylanmalari

D, beshinchi pog'onada tuzilgan septakkord bo'lib, dominanta funksiyasini kuchli ifodalovchiakkordlar safiga kiradi.

D, ning *to'liq*, *to'liqsiz* (kvintasiz) va *sekstali* (kvinta o'rniga seksta kiritilgan) turlari mavjud.

*To 'liq D, qat'iy T ga yechilishida septima va kvinta bir pog'ona pastga, tersiya bir pog'ona yuqoriga, asosiy ton - tonikaning asosiy toniga o'tadi* (№ 55-a).

Ushbu qoidalarga asoslanib D, - TSVI uchtovushligiga ham yechilishi mumkin. Bu holda bo'lingan aylanma paydo bo'ladi (Mis. № 55-b):

55. a)

b)

V<sub>7</sub>      I      V<sub>7</sub>      VI      V<sub>7</sub>      VI

*To 'liq bo 'Imagan D<sub>7</sub> (D<sub>7</sub><sup>5</sup>) va sekstali D<sub>7</sub> (D<sub>7</sub><sup>6</sup>) larning qat'iy yechilishi ham mazkur qoidaga bo'yusupadi* (№ 55-d):

d)

V<sub>7</sub><sup>5</sup>      I      V<sup>6</sup>      I      V<sup>6</sup>      I

D<sub>7</sub> aylanmalarining qo'llanishi bas tovushi harakatlanishiga imkoniyat yaratadi. D<sub>2</sub>, D<sub>6/5</sub>, funksional jihatdan D<sub>4/3</sub> ga ko'ra faolroqligi bilan ajralib turadi, chunki D<sub>4/3</sub> ning basi dominanta garmoniyasiga xos emas. D<sub>6/5</sub>, D<sub>4/3</sub>, D<sub>2</sub> – xotima kadensiyada ishlatalmaydilar.

D<sub>7</sub> aylanmalarining tonikaga qat'iy yechilishi D<sub>7</sub> yechilishidan farqlanmaydi (№ 56).

**Yarim erkin** ovoz yo'nalishida:

1) kvinta bir pog'ona yuqoriga yechilishi mumkin. Bu holda tonikada tersiya juftlanadi (№ 57-a).

2) D<sub>7</sub> tersiyasi pastga, tonikaning kvintasiga o'tishi mumkin. Bu holda D<sub>7</sub> to'liq tonikaga yechiladi (№ 57-b).

3) D, yechilganida septima yuqoriga yurishi mumkin. Agar zich joylashgan D, da tersiya melodik holatda o'mashsa, bu holda yuqoridagi yetakchi ton boshqa tovushlarni o'z yo'liga jaib etib, parallel sekstakkordlar harakatini tashkil qiladi (№ 57-d):

56.

V<sub>65</sub> I V<sub>43</sub> I V<sub>2</sub> I<sub>6</sub>

57.a)

b)

d)

V<sub>2</sub> I<sub>6</sub> V<sub>65</sub> I V<sub>7</sub> I V<sub>7</sub> I

**Erkin** ovoz yo'nali shida D, va aylanmalari tonikaga s a k r a b yechilishi lozim.

1. a) kadanslarda to'liq bo'limgan D, tonikaga asosiy tonlar sakrashi bilan yechilishi mumkin. Bu holda chetki ovozlarda parallel yoki qaramaqarshi oktavalar paydo bo'ladi (№ 58-a).

b) D, tonikaga kvinta tonlari sakrashi bilan ham yechilishi mumkin. Bu holda paydo bo'ladigan parallel yoki qarama-qarshi kvintalarga yo'il qo'yilmaydi (№ 58-b):

58. a)

b)

V<sub>7</sub><sup>5</sup> I V<sub>7</sub><sup>5</sup> I V I

2. D, ning aylanmalari yechilishida sakrash asosan yuqori tovushlarda sodir bo'ladi. Sakrash yo'li bilan prima, tersiya, kvinta yechilishi mumkin. Erkin yo'nalishda ko'proq D<sub>2</sub> qo'llaniladi, D<sub>3/4</sub> va ayniqsa D<sub>6/5</sub> tonikaga sakrab yechilishi kamroq tarqalgan (№ 59):

59.

#### 5.4. Barcha septakkordlarning yechilishi

Har bir septakkord yoki uning aylanmasi tarkibiga kiradigan asosiy uchtovushlikdan tashqari, har qanday uchtovushlikka (aylanmasiga) avtentik yoki plagal uslubda yechilishi mumkin.

A v t e n t i k yechilishda *septima – bir pog'ona pastga* harakat qiladi. Septima bu yo'nalishida har bir septakkord kvarta, sekundaga – yuqori va tersiyaga past joylashgan uchtovushliklarga yechiladi.

Barcha septakkordlarning *kvartaga yuqori* joylashgan uchtovushlikka yechilishi D, (aylanmalari) tonikaga yechilishi yo'lida o'tadi (№ 60):

60.

*Sekundaga yuqori* joylashgan uchtovushlikka septakkordlarning yechilishi yetakchi septakkord (DVII<sub>7</sub>) va uning aylanmalari tonikaga yechilishi tamoyiliga asoslanadi (№ 61):

61.

VII<sub>7</sub> I III<sub>7</sub> IV I I<sub>65</sub> II<sub>6</sub>

*Tersiyaga past* joylashgan uchtovushlikka yechilishda septakkordning kvintasi bir pog'ona yuqoriga, septima pastga harakat qilib, umumiyl tovushlar joyida qoladi. **Bunday yechilish ko'pincha qo'yidagi aylanmalarda qo'llaniladi:** I<sub>2</sub> - VI; III<sub>2</sub> - I; VI<sub>2</sub> - IV (№ 62):

62.

I I<sub>2</sub> VI III<sub>2</sub> I VI VI<sub>2</sub> IV

**P l a g a l** yechilishda har bir septakkord quartaga va sekundaga past joylashgan uchtovushlikka yechilishi mumkin. Bu holda *septima joyida qoladi*.

Septakkordning sekundaga past joylashgan uchtovushlikka yechilishida II, tonikaga yechilishi namuna bo'lishi mumkin (№ 63):

63.

II<sub>7</sub> I<sub>6</sub> II<sub>65</sub> I<sub>6</sub> II<sub>43</sub> I<sub>64</sub> II<sub>2</sub> I III<sub>65</sub> II<sub>6</sub> VI<sub>2</sub> V

**Kvartaga** past joylashgan uchtovushlikka septakkordning yechilishi mazkur bayon etilgan usullarga qaraganda universal ahamiyatga ega emas. Asosan S, -- T izchillik shaklida amalga oshiriladi (№ 64):

64.

IV<sub>7</sub>      I

### 5.5. Septakkordlarning qo'shilishi

Diatonikaning rivojlanishi jarayonida XVIII – XIX asrlarda ko'povozlik musiqada dissonansning-dissonanssga o'tishi keng qo'llanila boshlandi. Ya'ni,akkordlar izchilligida dissonans konsonansga yechilish o'rniغا dissonanssga o'tadigan bo'ldi. Bunday qo'shilishlarda, odatda ikkinchi dissonansda kutilayotgan konsonans funksiyasi va bir necha tovushlari saqlanadi.

Septakkordlarning izchilligi tabiiy sezilishi uchun ular ravon sekundaga harakat vositasida ulanishi lozim. Tovushlarning bunday harakati uch xil yo'l bilan vujudga kelishi mumkin:

1. Septima harakati bilan, DVII,-D<sub>6/5</sub> o'tishiga o'xshab (№ 65):

65.

VII<sub>7</sub>      V<sub>65</sub>      VII<sub>65</sub>      V<sub>43</sub>      VI<sub>7</sub>      IV<sub>65</sub>      II<sub>2</sub>      VII<sub>7</sub>

2. Ikki ton harakati bilan, SII,-D<sub>4/3</sub> o'tishiga o'xshab (№ 66):

66.

II<sub>7</sub>      V<sub>43</sub>      II<sub>2</sub>      V<sub>65</sub>      III<sub>65</sub>      VI<sub>2</sub>      I<sub>43</sub>      IV<sub>7</sub>

3 Uch ton harakati bilan (septima albatta tersiyadan past joylashishi kerak, (№ 67):

67.

Musical score for exercise 67. It consists of two staves: treble and bass. The treble staff has a clef, and the bass staff has a bass clef. The music is in common time. The harmonic progression is indicated below each measure:

- Measure 1: IV<sub>7</sub>
- Measure 2: V<sub>2</sub>
- Measure 3: I<sub>2</sub>
- Measure 4: II<sub>43</sub>
- Measure 5: III<sub>43</sub>
- Measure 6: IV<sub>65</sub>

Quyida A. Kozlovskiyning "Ulug'bek" operasidan parcha – septakkordlar izchilligining bir namunasi sifatida keltiriladi (№ 68):

68.

A. Kozlovskiy. "Ulug'bek", I s.

Musical score for exercise 68. It consists of two staves: treble and bass. The treble staff has a clef, and the bass staff has a bass clef. The tempo is Allegro. The music is in common time. The harmonic progression is indicated below each measure:

- Measure 1: IV<sub>7</sub>
- Measure 2: V<sub>2</sub>
- Measure 3: I<sub>2</sub>
- Measure 4: II<sub>43</sub>
- Measure 5: III<sub>43</sub>
- Measure 6: IV<sub>65</sub>

Musiqaning ayrim ijodiy oqimlarida garmonianing bo'yоq toromonlariga ahamiyat kuchayadi. Ayniqsa XX asr garmoniyasiga xos bu sifat akkordlarning funksional aloqalarining zaiflashishiga va bиринчи planga yorqin xususiyatlari chiqishiga asos yaratadi. Xususan, D, bifunktionalligi D<sub>2</sub>, DVII<sub>4/3</sub> va DVII<sub>2</sub> bevosita tonikaga plagal yechilishiga yo'l qo'yadi (№ 69, 70):

69. a)

Musical score for exercise 69. It consists of two staves: treble and bass. The treble staff has a clef, and the bass staff has a bass clef. The music is in common time. The harmonic progression is indicated below each measure:

- Measure 1: V<sub>2</sub>
- Measure 2: I
- Measure 3: VII<sub>43</sub>
- Measure 4: I
- Measure 5: VII<sub>2</sub>
- Measure 6: I

70.

S. Prokofyev. "Uchta apelsinga  
bo'lgan muhabbat". 4 s., 2.

**Allegro moderato**

Shu qatori septakkordlarni kiritish va yechish yo'llari odatdag'i ovoz yo'naliши qoidalariga bo'ysunmaydi: septima boshqa ovozdagi oktava yoki bir qancha tovushlar ustidan yechiladigan bo'ladi (№ 71):

71.

P. Chaykovskiy. "U meni  
juda sevardi".

**Moderato**

Zamonaviy musiqada keng tarqalgan usul – septakkordlarning parallel harakati melodik aloqalarga asoslanib, garmoniyaning yorqin tomonini kuchaytirib, namoyish qiladi (№ 72):

72.

S. Prokofyev. "Oniy lahza", №1.

**Lentamente**

## 6. NONAKKORDLAR

### 6.1. Umumiy ta'rif

Nonakkord septakkordlarga yuqorida tersiya qo'shilishidan yuzaga keladi (№ 73):

73.

A musical staff in G major (treble clef) and common time. It shows a sequence of chords: I<sub>9</sub>, II<sub>9</sub>, III<sub>9</sub>, IV<sub>9</sub>, V<sub>9</sub> (katfa), V<sub>9</sub> (kichik), VI<sub>9</sub>, and VII<sub>9</sub>. The chords are represented by vertical stacks of three notes each, indicating dissonances.

Nonakkordlar boshqa dissonanslarga o'xshab avvalo to'xtalma sifatida, sekvensiyalarda paydo bo'lgan. XIX asrda mustaqilakkord sifatida birinchi bo'lib D<sub>9</sub>, odat tusiga kiradi. Keyinroq SII<sub>9</sub> va boshqa pog'onalar nonakkordlari vujudga keladi. Ijodiy tajribada nonakkordlarning boshqaakkordlarga qaraganda kech shakllanishi, ularning quyidagi xususiyatlarini belgilaydi: a) funksiya jihatidan faqat D<sub>9</sub> va SII<sub>9</sub> aniq namoyon bo'lgan; b) nonakkordlarning aylanmalari kam uchraydigan va shuning uchun rasmiy nomga ega emas; d) nona hozirgacha ham ko'pinchaakkordsiztovush, ya'ni to'xtalma sifatida talqin etiladi (№ 74):

74.

L. Beethoven. Simf. №9, II.

Molto vivace

A musical excerpt in 3/4 time, featuring two staves: treble and bass. The key signature is one flat. The music consists of a series of chords, primarily nonakkords, played in a rhythmic pattern indicated by 'v' and 'z' symbols above the notes. The bass staff provides harmonic support with sustained notes.

### 6.2. Funksional xususiyatlari

Nonakkordlar septakkordlar singari bifunktional ohangdoshlardir. Ularning bifunktionalligi, ayniqsa aylanmalari qo'llanilishida aniq namoyon bo'ladi. Agar asosiy nonakkord funksiyasi basqa qaram bo'lsa (mis. № 75), aylanmalari funksiyasini ko'proqakkordning ustki "qavati" belgilaydi (№ 76):

75.

76.

Two musical staves comparing harmonic progressions. Staff 75 shows a progression where the dominant ninth chord (V<sub>9</sub>) is followed by a dominant chord (D). Staff 76 shows a progression where the dominant ninth chord (V<sub>9</sub>) is followed by a dominant seventh chord (D<sub>7</sub>).

Nonakkordlaming aylanmalari funksional ikkilanishi musiqa tajribasida akkordning asosiy ko‘rinishi ustunligiga sabab bo‘lgan. Zero, bunday hollarda nonakkordlarning aynan bifunksional xususiyatlari kamroq seziladi.

Nonakkordlar funksiyasini oydinlashtirishda ovozlarning joylashuviga ham katta ahamiyatga ega. Masalan, akkord zinch shakllanishida basning funksiyasi ustunlik qiladi (№ 77):

A musical score for piano, page 77, titled "Andantino". The score consists of two staves. The top staff is in treble clef, 3/8 time, and the bottom staff is in bass clef, 3/8 time. The key signature is A major (no sharps or flats). The music features various dynamics and articulations, including slurs, grace notes, and a fermata. The right hand has a prominent eighth-note pattern, while the left hand provides harmonic support.

Lekin, tersiya toni tushirib qoldirilgan holda yoki yuqorida joylashgan uchтовушлик registr yordamida ajralib, alohida birikma sifatida qo'llanilganda, nonakkordning bifunksionalligi (ya'ni funksional "qavat"liligi) yuzaga chiqadi (№ 78):

78. K. Debyussi. "Bahorning suyukli o'g'li".

**Andantino**

спе - шат вагла - нуть на - шес - таи - е под не - бом веш - ним

3 3

### 6.3. Nonakkordlarning qo'llanishi

To'rtovozli tizimda nonakkordlar ko'proq kvintasiz, kamroq tersiyasiz qo'llaniladi (№ 79- a):

79. a)

A musical score for four voices (treble and bass staves) showing a harmonic progression. The voices are labeled below the staff:  $V_9$ ,  $II_9$ ,  $V_9$ ,  $II_9$ ,  $V_9$ , and  $II_9$ . The progression consists of six chords:  $V_9$ ,  $II_9$ ,  $V_9$ ,  $II_9$ ,  $V_9$ , and  $II_9$ .

Nonakkorddagagi o'ziga xos xislatlardan biri nonaning yuqoridagi ovozda jylanishidir (mis. № 79-a). Kamroq hollarda nona altda yoki tenorda uchrashi mumkin (№ 79-b):

b)

A musical score for four voices (treble and bass staves) showing a harmonic progression. The voices are labeled below the staff:  $V_9$  and  $II_9$ . The progression consists of two chords:  $V_9$  and  $II_9$ .

Nonakkordlar, xuddi septakkordlarga o'xshab asosiy tondan yuqori kvartada joylashgan uchtovushlikka yechilishi, yuqorigi sekundada, pastki sekundada, tersiyada va kvartada joylashgan uchtovushliklarga o'tishi mumkin (№ 80):

80.

A musical score for four voices (treble and bass staves) showing a harmonic progression. The voices are labeled below the staff:  $V_9$ ,  $I$ ,  $II_9$ ,  $V$ ,  $V_9$ ,  $VI$ ,  $V_9$ ,  $IV_6$ ,  $V_9$ ,  $III$ ,  $V_9$ , and  $II$ . The progression consists of twelve chords:  $V_9$ ,  $I$ ,  $II_9$ ,  $V$ ,  $V_9$ ,  $VI$ ,  $V_9$ ,  $IV_6$ ,  $V_9$ ,  $III$ ,  $V_9$ , and  $II$ .

Nonakkorddan septakkordlar va nonakkordlarga ham o'tiladi. Eng keng tarqalgan nonakkordning pog'onadosh septakkordga o'tishi bilan bir qatorda (mis. № 78), nonakkord asosiy tondan yuqorigi kvarta va sekundada, pastki sekunda va tersiyada hamda kvartada joylashgan septakkordlar(mis. № 81-a) va nonakkordlarga (mis. № 81-b) o'tadi (№ 81-a, b, d):

81. a)

Musical score for exercise 81.a. It consists of two staves (treble and bass) over five measures. The chords shown are V $\frac{5}{9}$ , I $_7$ , V $_9$ , VI $_7$ , V $\frac{5}{9}$ , IV $_7$ , V $_9$ , III $43$ , V $\frac{5}{9}$ , and II $_7$ . The bass staff shows sustained notes throughout.

b)

Musical score for exercise 81.b. It consists of two staves (treble and bass) over eight measures. The chords shown are V $_9$ , I $_9$ , I $_9$ , VI $_9$ , V $_9$ , V $_9$ , III $_9$ , V $_9$ , and II $_9$ . The bass staff shows sustained notes throughout.

81. d)

S. Yudakov. "Ey duxtare".

Jonli

Musical score for S. Yudakov's "Ey duxtare". It consists of three staves (treble, middle, and bass) over four measures. The lyrics are "Ey, dux-ta-re", "mah-bu-ba-i", and "dil-sho-di-man". The harmonic analysis below the bass staff indicates chords IV $_9$ , V $_9$ , and VI.

XX asrda nonakkordlarning parallel harakati ham tarqaladi. Septakkordlarning parallel yo'nali shiga o'xshab, bu usul garmoniyaning

bo'yoq sifatlarini bo'rttirib ko'rsatishiga olib keladi (№ 82):

82.

S. Prokofyev. "Sarkazmlar"  
(Achchiq kinoya), №2.

*Allegro rubato*

## 7. KO'POVOZLIK OHANGDOSHLIKLARI

Garmoniya taraqqiyotida XIX–XX asrlarakkordlarning murakkablashtirishi bilan ajralib turadi. Nonakkord qatorida oltitovushlik – undetsimakkord, yettitovushlik – tersdetimakkord, sakkiztovushlik – kvintdetimakkordlar ham joriy etiladi. Kvintdetimakkord ohangdoshlarning tersiyalar birin-ketin qo'shilishi natijasida yuzaga kelishi jarayonini oxiriga yetkazadi (№ 83).

83.

Bu ohangdoshliklar ko'proq tonallikning I, V va II pog'onalarida uchraydi (№ 84).

84.

Nonakkordlarga xos polifunktionallik ko'povozli ohangdoshliklarda birmuncha kuchayadi. Bunday tuzilmalar umumiy uyg'unlik yaratmasdan, aksincha, mustaqillikka ega bo'limgan birikmalar sifatida seziladi. Shuning uchun ham ko'p holatlarda mazkur tuzilmalarga "akkord" tushunchasi deyarli to'g'ri kelmaydi.

Ko'povozlik tuzilmalarning funksional qatlamlarga bo'linishi natijasida ham ko'pincha bir funksiya bosh, ikkinchisi esa tobe tarzida keladi. Bunday hollarda asosiy funksiyani odatda pastki "qavat" muayyanlashtiradi. M. Ravelning "Olijanob va nazokatli valslari"da basdag'i dominanta ( $D_9$ ) ustidan aniq seziladigan subdominanta ( $S_9$ ) "qavati" sodir bo'ladi. Dominanta funksiyasi ustunligi ko'povozlik ohangdoshning tonikaga o'tishi bilan quvvatlanadi (№ 85):

85.

M. Ravel. "Valslar", №1.

*Modere tres franc*

I. Akbarovning "Xamsa"ni varaqlaganda poemasidan keltirilgan misolda III pog'onada tuzilgan tersdetsima bir vaqtning o'zida tabiiy va alteratsiyalangan tovush (mi, mi ♭) sadolanishi tufayli murakkablashgan (№ 86):

86.

I. Akbarov. "Xamsa"ni varaqlaganda".

*Allegro*

## 8. TERSIYASIZ TARKIBDAGI AKKORDLAR

### 8.1. Umumiy ta'rif

XIX va ayniqsa XX asrda oldingi davrlarga ko'raakkord tuzilmasining rivojlanish jarayoni ancha faol kechdi. Bu davrda asosiyakkord tarkibining ikki qarama-qarshi taraqqiy etish yo'li ajralib turadi. Ikkala yo'nalish,

major va minor uchtovushligiga asoslanib, bir tomondan,akkordning ko'povozli shakllari paydo bo'lishi, ikkinchi tomondan, to'liqsizakkordlar va ikkitovushliakkordlarning ommalashishiga olib keladi.

## 8.2. Tersiyaviy tuzilmasi o'zgarganakkordlar

Tersiyaviytarkibib o'zgarganakkordlar asosiy ikki usul bilan shakllanadi: 1) tersiya yoki kvinta toni tushirib qoldirilishi bilan; 2) tersiyalarga asoslanganakkordlarga "begona" qo'shimcha bo'lganakkordsiztovushlar kiritilishi bilan.

Toni tushirilgan tersiyaviytuzilmaga tayanganakkordlarning taassuroti oberton tovushqatori xususiyatlari, jumladan, mazkur oberton qatorida tushirib qoldirilgan tovushning ahamiyati bilan bog'liqidir. Masalan, agar tersiya tushirib qoldirilsa,akkord sadolanishi bo'sh, "quruq" his etiladi. Chunki tersiya toni oberton tovushqatorda faqat bir marotaba keladi va real tovushning joyini to'ldira olmaydi. Aksincha,akkordda kvintaning yo'qligi konstruktiv obertonlar guruhida ikki marotaba uchraydigan kvinta toni bilan qisman tiklanadi. Keltiriladigan parchada yakunlovchi kadensiya,tersiyasi nobud bo'lgan uchtaakkord yo'naliishi bilan shakllanadi –DTIII, D, T (№ 87):

87.

M. Musorgskiy. "Ajal raqsi  
va qo'shig'i". "Trepak".

*Lento assai.  
Tranquillo*

*pp*

To'liqsiztersiya bo'yicha tuzilganakkordlarniuzviytersiyasiz, ya'ni kvarta-kvinta tuzilmasidagiakkordlardan farqlash kerak. Bunday ohangdoshliklar to'liqsizakkordlarsifatida sezilishi uchun ulartersiyaviyakkordlarsurshovida qo'llanishi lozim.

Akkordningko'povozli shakllari faqattersiyalar qo'shilishi bilan emas, balki "qo'shimcha" tonlar kiritilishi tufayli ham hosil bo'ladi. Natijada,tersiya qatoriga kirmaydigan tonlardan tuzilgan, ammosfersiyaviyomil bilan aniq bog'langantuzilmalar yuzaga keladi.

Qo'shimchahatonlar,tersiyaviytuzilmalarakkordsiztovushlar bilan murakkablanishi natijasida paydo bo'ladilar. Ko'pincha bu sekunda, kvarta va sekstadir. Qo'shimchatonlar diatonik va xromatik bo'lishlari mumkin. Bir necha qo'shimchatonlarningbirga jaranglashi keng qo'llaniladigan usuldir.

Qo'shimcha tonlar almashuvchi va joriylanuvchi turlarga bo'linadi.

*Almashuvchi* tonlar ohangdoshlikdaakkord tonlarining o'miga boshqa bir tovushlar kiritilishi bilan vujudga keladi. Bunday tonlardan birinchi bo'lib dominantseptakkordda kvinta toni o'mida seksta paydo bo'lган. Keyinchalik shu yo'l bilanakkordlarni murakkablanishi keng qo'llanila boshlangan. Masalan, DVII,, SII, tersiya toni o'miga kvarta toni joriy etiladi. Tonikada esa, tersiya o'mida kvarta, kvinta o'mida seksta kiritilishi mumkin (№ 88).

88.

Almashuvchi tonlar qo'llanishiakkordlar funksiyasini o'zgartirmaydi, chunki almashtiriladigan tovush odatda, asosiy lad funksiyasini ko'rsatuvchisi bo'lmaydi.

Keltirilgan misolda yakunlovchi tonika (do# minor) ikki variantda an'anaviy va tersiya o'miga kvarta o'matilgan shaklda ko'rsatilgan (№ 89).

89.

X. Azimov. "F-no uchun pyesa".

Allegretto

Almashuvchi tonlar fakturaviy o'zgarishlar talab qilmay, almashilgan tonlar yo'lida yechiladilar.

*Joriylanuvchi* tonlar to'liq tersiya tuzilganakkordlartarkibiga yondosh tovush (tovushlar) kirishi bilan yuzaga kelib,akkord sadolarini keskinlashtiradi (№ 90).

N. Zokirovning "Fantaziya" sida re minor uchtovushligi (t) kiritilgan tovushlar (mi, si) bilan murakkablangan (Mis. № 91 a). Bunday tovushlar bilan qo'llanganakkordlarning ovoz yo'naliishiga kompleks (parallel) harakat xosdir (№ 91-b).

90.

4-measure musical score for exercise 90. The score consists of two staves: treble and bass. The first measure shows a C major chord (I). The second measure shows a D major chord (II). The third measure shows a C major chord (I). The fourth measure shows a G major chord (IV). The key signature changes between measures: I (no sharps or flats), II (one sharp), I (no sharps or flats), IV (one sharp).

91. a) N. Zokirov. "Fantaziya". b) T. Qurbanov. "Rondo".

Two Allegro sections from different compositions. Section a) is from N. Zokirov's "Fantaziya" and section b) is from T. Qurbanov's "Rondo". Both sections show chords I<sup>k. 2,6</sup> and II<sup>k. 2</sup>.

### 8.3. Uzviy tersiya bo'yicha tuzilmaganakkordlar

Uzviy tersiya bo'yicha tuzilmaganakkordlar ikki asosiy guruhni tashkil qiladi: monointervalli va poliintervalli.

**Monointervalli**akkordlar bir xil intervallardan tuzilgan bo'lib, kvartali (kvartakkord), kvintali (kvintakkord) va sekundali (sekundakkord) turlarga bo'linadi.

*Kwart va kvintakkordlar* kvarta va kvinta bo'yicha tuzilgan ohangdoshliklar bo'lganligi bois, tonlarining soni ikkitadan to o'n bittagacha yetishi mumkin (№ 92).

92.

#### kvartakkordlar

#### kvintakkordlar

8-measure musical score for exercise 92. The score is divided into two sections: quartal chords (left) and quintal chords (right). The left section shows I<sub>44</sub>, I<sub>44</sub>, I<sub>44</sub>, I<sub>44</sub>, I<sub>55</sub>, I<sub>55</sub>, I<sub>55</sub>, I<sub>55</sub>. The right section shows I<sub>55</sub>, I<sub>55</sub>, I<sub>55</sub>, I<sub>55</sub>. The key signature changes between measures: I<sub>44</sub> (no sharps or flats), I<sub>44</sub> (one flat), I<sub>44</sub> (one flat), I<sub>44</sub> (one flat), I<sub>55</sub> (no sharps or flats), I<sub>55</sub> (no sharps or flats), I<sub>55</sub> (one flat), I<sub>55</sub> (no sharps or flats).

O'zbekiston kompozitorlarining asarlaridan keltirilgan quyidagi lavhalar ikki tovushli kvintakkordlar va uch, to'rt, besh tovushli kvartakkordlar qo'llanishiga namunadir (№ 93, 94):

93.

## N. Norxo'jayev. "Prelyud".

**Lento**

94.

## N. Zokirov. Sonata №3.

**pin mosso**

Akkordlarning tarkibi sof va orttirilgan intervallar ishlatalishi bilan o'zgarishi mumkin.

Tersiya va kvarta-kvinta bo'yicha tuzilganakkordlar garmonik funksiyasining aniqlashtirishi farqlanadi. Tersiyaviyakkordlarda garmonik funksiya asosiy ton(prima)ga qarab belgilanadi,bas esa faqatakkordning aylanma holatini muayyanlashtiradi. Kvarta-kvinta bo'yicha tuzilganakkordlarda aksincha, garmonik funksiya faqat bas bilan belgilanadi. Yuqorida keltirilgan misollarda birinchi kvintakkord (№93) va kvartakkordning uch,to'rt, besh ovozli variantlari (№94) tonika funksiyasini namoyish etadi.

*Sekundakkordlar* katta va kichik sekundalarning qatlamlanishi bilan shakllanadi. Hosil bo'lganakkordlar uch, to'rt va ko'proq tonlardan iborat bo'lishi mumkin: (mis. № 95). G. Sviridovning "Kursk qo'shiqlari"da uchtovushlikdan iborat bo'lgan sekundakkord katta sekundalar bo'yicha tuzilib, tabiiy VII pog'ona funksiyasini ifodalaydi (№ 96):

95.

96.

G. Sviridov. "Kursk qo'shiqlari". №5.

Keng, kuchli

*Klaster* (ingl. cluster – g'ujg'on, g'uj-g'uj) sekundakkordlarning keng tarqalgan turi. Bu ohangdoshlikning ajratuvchi belgisi tovushlarning nihoyatda zich joylashishi bilan xarakterlanadi (№ 97-a).

97. a)

klasterlar

N. Zokirov 3-fortepyano sonatasining II qismida tonika sifatida to'liqsiz olti tovushdan shakllangan klaster ishlatalig'an (№ 97-b):

97. b)

N. Zokirov. Sonata №3, II.

Allegro

Sekundakkordlar bironta garmonik funksiyani namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lislari qatorida (ayniqsa,akkordlar I, IV, V pog'onalarda joylashgan holatlarda), faqat koloristik e'tiborga ega bo'lislari ham mumkin.

Buakkordlarningfonizm taassuroti tarkibiy tonlar soniga, katta yoki kichik sekundalar ustunligiga, fakturaviy uyuşhtirilishiga (tonlar bir vaqtida yoki birin-ketin kiritilishi)ga tobedir.

**Poliintervalli**akkordlar, ya'ni xilma-xil intervallardan tuzilganakkordlar zamonaviy musiqada eng keng tarqalgan ohangdoshliklar guruhini tashkil etib, ichki turlarga aniq bo'linmaydi.

Ko'p hollarda bundayakkordlar kuyning asosiy tonlarining bir vertikalga jamlanishi bilan vujudga keladi (№ 98):

98.

R. Abdullayev. "Bahor keldi seni so'roqlab".

## IV B O B

### MODULYATSIYA

#### I. MODULYATSIYANING UMUMIY NAZARIYASI

##### 1.1. Umumiy ta'rif

M o d u l y a t s i y a tushunchasi musiqada keng qo'llanilib, garmoniyadan tashqari, musiqaviy shakl, lad, metro-ritm sohalariga ham taalluqlidir. Ushbu tushuncha T. Bershadskaya bergen umumiytarifiga ega: "Modulyatsiya – muayyan turg'un tuzimning har qanday o'zgarishidir" (5, 100-b.). Garmoniyada xususan tonallik yoki lad tizimlari o'zgarishga moyildir. Masalan, turg'un Do major modulyatsiya natijasida Re majorga o'tadi. Bu holatda tonallik o'zgaradi. Agar Do major do minorga o'tsa lad modulyatsiyasi sodir bo'ladi. Demak garmoniyada modulyatsiyaning ikki turi mavjud: tonallik (Mis. № 99) va lad modulyatsiyalaridir.<sup>1</sup> (№ 100):

<sup>1</sup> Modulyatsiyaning bu tasnifi Yu.N.Tyulinning nazariy ishlarida mavjud. *Tonallik modulyatsiyasi ta'rifi* "Bir tonallikdan ikkinchi tonallikka ko'chish" *Lad modulyatsiyasining ta'rifi*: "Bir tonallikdan nomdosh tonallikka ko'chish" (88, 365-b. 263-b.).

99.

P. Chaykovskiy. "Yil fasllari", "Aprel".  
Allegretto con moto e un poco rubato

*p dolc poco cresc*

*mf*

Si bemol maj. -  
re min.

100.

I.S. Bax. "Xoral № 48".

lya min. - Lya maj.

T. Bershadskaya XIX, ayniqsa XX asr musiqasining lad tuzimlarining turli-tumanligini nazarda tutib, mazkur lad modulyatsiya tushunchasi hajmini kengaytiradi va nomdosh tonalliklar doirasiga (ya'ni klassik major va minor qatoriga) xilma-xil lad tuzimlarini kiritadi. Masalan, frigiyl, miksolidiy kabi diatonik ladlar, zamonaviy garmoniyada paydo bo'lgan simmetrik ladlar va boshqalar.

## 1.2. Tonal modulyatsiya

Tonalliklar munosabatida ularning turg'un xususiyatlariga ahamiyat berish lozim. Tonalliklarning turg'un xususiyatlari kadansning mustahkamligi, uzunligi (davomiyligi)ga bog'liqdir. Ushbu belgilarga ko'ra

modulyatsiyalar ikki kategoriyaga bo'linadi:

1. **Mukammal modulyatsiya.** Bu holda yangi tonallik dastlabki tonallikdan turg'unroq bo'ladi;

2. **Nomukammal modulyatsiya.** Bu holda boshlang'ich tonallikning turg'unlik xususiyatlari kuchliroq ifodalananadi. Modulyatsiyaning bu shakli muayyan o'ringa ega bo'lmay, yangi tonallikni noturg'un ko'rsatadi va ko'pincha, kuchli kadans vositalarini ishlatmaydi;

Nomukammal modulyatsiya o'z navbatida ikki turga ajratiladi:


a) *Og'ishma*. Bu modulyatsiya asosiy tonallikdan yangi tonallikka qisqa bir muddatga o'tishi va yana ilk tonallikka qaytishi bilan xarakterlanadi.

Keltirilayotgan misolda davriyani tashkil qiladigan ikkala jumlada asosiy lya minordan – Do majorga og'ishma amalga oshiriladi (№ 101):

101.

R. Shuman. "O'smirlik uchun album" № 5.

Langsam.



b) *O'tkinchi modulyatsiya*. Bu modulyatsiya asosiy tonalliklar o'ttasida joylashib, shaklning bog'lovchi, rivojanuvchi qismlarida qo'llaniladi. Ko'pincha shu asosiy tonalliklar o'ttasida bir necha o'tkinchi modulyatsiyalar bir tizmani vujudga keltiradilar.


Keltirilayotgan davriyaning ikkinchi jumlesi (asosiy modulyatsiyasi - Do major - Mi major) – bir nechta o'tkinchi tonallik (re minor, lya minor, si minor, Do major)lar kiritilishi bilan boyitiladi (№ 102):

102.

R. Shuman. "O'smirlik uchun album" № 21.

Langsam und mit Ausdruck  
zu spielen





### 1.3. Modulyatsiyaning turlari

Tonalliklarning modulyatsion qo'shilish yo'llari har xil bo'ladi. Yangi tonalliklarga o'tish xususiyatlariga asoslanib, beshta modulyatsiya turlari ajratiladi:

1. Funksional modulyatsiya.
2. Engarmonik modulyatsiya.
3. Melodik-garmonik modulyatsiya.
4. Melodik modulyatsiya.
5. Taqqoslama modulyatsiya.

## 2. FUNKSIONAL MODULYATSIYA

Funksional modulyatsiyalar tonalliklarning garmonik o'xshashligiga asoslanadi. Ushbu holda tonalliklar u m u m i y akkordlarga, ya'ni aynan ikki tonallik tarkibiga kiradigan bir xil akkordlarga ega bo'lishadi.

Umumiy akkordlar yo'qligida funksional aloqa v o s i t a c h i tonalliklar yordamida sodir bo'ladi.

Boshlang'ich tonallikka ma'lum bir funksiyaga ega bo'lgan umumiy akkord (tonallik) navbatdagi yangi tonallikka boshqa bir funksiyaga ega bo'ladi.

### 2.1. Tonalliklarning o'xshashligi

Modulyatsiya yo'nalishini Yu.N. Tyulin tonalliklarning o'xshashlik darajasi tomonidan tasniflagan. Bu tasnif N.A. Rimskiy-Korsakov g'oyalariga asoslangan. Shu ikki tasnifning farqi faqat quyidagicha: nomdosh tonalliklarni (masalan Do major-do minor) Rimskiy-Korsakov ikkinchi darajali turdosh tonalliklar guruhiга kiritadi. Tyulin esa bularni lad modulyatsiyasi deb hisoblaydi va turdosh tonalliklar qatoridan chiqarib qo'yadi. Darhaqiqat, major-minor tuzimida nomdosh tonalliklarda pog'onalar, akkordlar funksiyalari bir-biriga to'g'ri keladi va ikkinchi turdoshlik darajali tushunchasiga to'g'ri kelmaydi.

Funksional belgilariiga asoslanib, tonalliklar u c h t u r d o s h d a-r a j a s i ajratiladi.

*Birinchi* darajali turdosh tonalliklar bevosita tonikalar orqali bog‘lanadi, ya‘ni *tonalliklarning tonika uchtovushliklari umumiyakkord* bo‘ladi.

*Ikkinci* darajali turdosh tonalliklar funksional aloqasi tonikalar orqali emas, balki *boshqa umumiyakkordlar* orqali yuzaga chiqadi.

*Uchinchi* darajali turdosh tonalliklar bevosita funksional aloqada bo‘lmaydi, chunki ular tarkibida umumiy uchtovushliklar uchramaydi. Bu yiroq tonalliklarning aloqalari *vositachi tonalliklar* orqaligina o‘rnataladi.

## 2.2. Bevosita funksional modulyatsiya

Bevosita funksional modulyatsiya ko‘proq birinchi darajali turdosh tonalliklar o‘rtasida qo‘llaniladi. Ikkinci darajali turdoshlik modulyatsiyada jarayon keskinligi tufayli **bu** hodisa kamroq o‘rin oladi.

Bevosita funksional modulyatsiya jarayonida jami to‘rtta bosqichdan iborat vazifalar bajariladi:

1-dastlabki tonallikni ko‘rsatish;

2-umumiyakkordni ko‘rsatish;

3-modulyatsiyalovchiakkordni ko‘rsatish;

4-ikkinci tonallikni ko‘rsatish (tugallovchi kadensiya tarzida).

1. *Dastlabki tonallikni* ko‘rsatish yo‘llari ko‘p. Lekin, ikki narsaga alohida e‘tibor berish lozim: a) dastlabki tonallikning garmonik rivoji ancha davomli bo‘lishi kerak, aks holda birinchi tonallik asosiy tonallik sifatida sezilmaydi; b) umumiyakkord oldidan kadans aylanishi qo‘llanilmaydi, chunki bu holatda garmoniya rivojlanishi umuman to‘xtab qoladi.

2. *Umumiyakkord* sifatida, nazariy jihatdan, har qandayakkord qo‘llanishi mumkin. Ayniqsa, birinchi darajali turdosh tonalliklar o‘rtasida umumiyakkordlar soni ko‘p. Lekin, ko‘pincha, umumiyakkord sifatida birinchi tonallikning tonikasidan foydalanadilar. Umumiyakkord boshlang‘ich tonallikda boshqa bir funksiya, navbatdagi yangi tonallikda boshqa bir funksiya ahamiyatiga ega bo‘ladi. Lekin, ikkinchi tonallikda umumiyakkordning funksional baholanishi faqat modulyatsiyalovchiakkord paydo bo‘lganidan so‘nggina ayonlashadi. Demak, umumiyakkordning ikki tomonlama funksional baholanishi ancha murakkab jarayondir. Shuning uchun umumiyakkord dastlabki tonallikda ko‘pincha eng oddiy funksiya - tonika funksiyasiga ega bo‘ladi. Ikkinci tonallik tonikasi esa umumiyakkord sifatida kiritilmaydi, sabab - modulyatsiyalovchiakkorddan keyin paydo bo‘ladigan yangi tonallikning funksional ta’siri susayadi.

Modulyatsiya bajarilishida umumiyakkord tonalligiga **og‘ishma** usulini ham qo‘llash mumkin. Shu bilan birga, birinchi darajali turdosh tonalliklar modulyatsiyasida og‘ishma bo‘lishi shart emas. Lekin, tonalliklar ikkinchi darajali turdoshlikda bo‘lsa umumiyakkord tonalligi, ya‘ni *vositachi tonallikka* og‘ishma nihoyat o‘rinlidir. Og‘ishma boshlang‘ich tonallikdan keskinroq ajralish va yangi tonallik sadolari eshitilishini yengillashtirishga yordam beradi.

3. *Modulyatsiyalovchiakkord* ahamiyatiga ega bo‘lib, umumiyakkorddan

so'ng keladigan va yangi tonallikka xarakterli bo'lgan ohangdoshlik. Modulyatsiyalovchiakkordlar sifatida noturg'un ohangdoshlar, ayniqsa yechilishga moyil bo'lgan dissonansakkordlar qo'llanadi (SII,, DVII,, DD,, D, va ularning aylanmalari, K<sub>6/4</sub>).

4. *Tugallovchi kadensiya* o‘z xususiyatlari bilan to‘g‘ri kelgan hollarda bevosita modulyatsiyalovchiakkord -K<sub>6/4</sub> bilan boshlanishi mumkin. Lekin, tugallovchi kadensiyaga modulyatsiyalovchiakkordning funksiyasi xarakterli bo‘lmasa (masalan - D,, DVII, va uning aylanmalar), funksional harakat odatda yangi tonikagacha yetkaziladi va so‘ngra tugallovchi kadensiya kiritiladi (№ 103, 104):

103. Andante Do maj. L. Betxoven. Sonata № 10, I.

dastlabki tonalik Sol maj.

cresc sf cresc. sf p

umum. modu-  
akk. lyas.  
I=IV akk.

### **2.3. Tadrijiy funksional modulyatsiya**

Tadrijiy modulyatsiya bir-biridan yiroq ikki tonallikning o'zaro birinchi turdosh darajada bo'lgan tonalliklar vositasida amalga oshiriladi.

Vositachi tonalliklar va ularning soni har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, Do majordan-Mi majorga tadrijiy modulyatsiya quyidagi tonalliklar orqali bajarilishi mumkin: C - d - A - E; (mis. № 105), C - e - h - A - E (№ 106):

**105. Do maj.**

rc min. Lya maj. Mi maj.

106. Do maj.

A musical score for two voices, Treble and Bass. The Treble voice (top) consists of a series of eighth notes on the A, C, E, G, B, D, F, and A lines. The Bass voice (bottom) consists of eighth notes on the F, A, C, E, G, B, D, and F lines.

mi min.      si min.      Lya maj.      Mi maj.

Vositachi tonalliklar kvinta doirasi bo'yicha tanlanilsa tadrijiy modulyatsiya ravon ko'chadi.

Ikki asosiy tonalliklarning o'rtasida joylashgan vositachi tonalliklar og'ishma orqali kiritilib, kadensiya bilan mustahkamlanmaydi, chunki bu jarayonda modulyatsiya harakatiga to'sqinlik tug'iladi, oxirgi tonallikka intilish kuchi pasayadi. Shu bois ham tadrijiy modulyatsiya musiqa shaklining o'rta, noturg'unroq qismlariga xosdir.

#### 2.4. Birinchi darajali turdosh tonalliklarga modulyatsiya

Birinchi darajali turdosh tonalliklarga bajarilayotgan modulyatsiyalarda akkordlar tarkibiga t o n i k a l a r kiradi (№ 107, 108):

**107. Dastlabki tonallik Do maj.**

**108. Dastlabki tonallik lya min.**

Dastlabki tonallikka nisbatan birinchi darajali turdosh tonalliklarni uch guruhga ajratsa bo'ladi:

1. Birorta kalit belgisiga farq qilmaydigan parallel tonallik. Tabiiy ko'rinishda birinchi va yangi tonallik jami 7 ta umumiy akkordga ega (№ 109):

**109.**

Do maj.	I	II	III	IV	IV	V	VI	VII
ly a min.	III	IV	V	VI	VII	I	II	

2. Atigi 1 kalit belgisiga farq qiladigan tonalliklar. Masalan, D va ularning parallel tonalliklari. Bularda 4 ta umumiy akkord mavjud (№ 110):

110.

Do maj. I VI V III Do maj. I VI IV II  
Sol maj. IV II I VI Fa maj. V III I VI  
mi min. VI IV III I re min. VII V III I

3. Jami 4 ta kalit belgisiga farq qiladigan majorda-garmonik S va minorda garmonik D tonalliklari. Bular 2 ta umumiy akkordga egadir (№ 111):

111.

Umumiy akkordning mumkin funksional ahamiyati modulyatsiyaning yo'nalishiga taalluqlidir.

*Dominanta* sari bajarilgan modulyatsiyalar (major va minorda - III, V pog'onalar tonalliklari, minorda - VII pog'onaning tonalligi)da dastlabki tonallikning tonikasi yangi tonallikda albatta, ma'lum bir ko'rinishda namoyon bo'ladi. Masalan, u umumiy akkord sifatida kadentsiya shakllanishi uchun nihoyatda o'rinli bo'ladi (№ 112):

112.

Do maj. - Sol maj.

Dastl. ton.

I V<sub>65</sub>

umum. mod.

I=IV II<sub>65</sub>

tugallovchi kadensiya

K<sub>64</sub> V<sub>7</sub> I

**lya min. - Sol maj.**

Dastl. ton.      umum.      mod.      **Tugallovchi kadensiya**

I      V<sub>65</sub>      I=II      II<sub>65</sub>      DD<sub>65</sub>      K<sub>64</sub>      V<sub>7</sub>      I

Bunday modulyatsiyada, tonikadan tashqari, yangi tonallikda S sifatida boshqa umumiyligini qo'llanishi mumkin. Masalan, Do majordan - mi minorga modulyatsiya bajarilganida yangi tonallikkiga S sifatida ikki umumiyligini ishlatalishi mumkin (№ 113-a, b, d):

**113. a)**

Do major      I      VI

mi minor      VI      IV

**113. b)**

**Do maj. - mi min.**

I      V<sub>65</sub>      I=VI      II<sub>43</sub>      DD<sub>43</sub>      K<sub>64</sub>      V      I

**d) Do maj. - mi min.**

I      V<sub>65</sub>      I      VI=IV      DD<sub>65</sub>      K<sub>64</sub>      V<sub>7</sub>      I

*Subdominanta sari modulyatsiyalar* (major va minorda - IV, VI pog'onalalar tonalliklari, majorda - II pog'ona tonalligi)da umumiyakkord yangi tonallikda xilma-xil ahamiyatiga ega bo'lishi mumkin. Agar yangi tonallikda umumiyakkord D ahamiyatiga ega bo'lsa, modulyatsiya tugal ravishda sezilishi uchun yangi tonallik kengaytiribroq ko'rsatilishi zarur (№ 114-a, b):

**114. a) Do maj. - re min.**

I      V<sub>65</sub>      I=VII<sup>t</sup>      V<sub>7</sub>      VI      IV      K<sub>64</sub>      V<sub>7</sub>      I


b)

I      I<sub>6</sub>      VI=V<sup>t</sup>      V<sub>2</sub>      I<sub>6</sub>      II<sub>43</sub>      K<sub>64</sub>      V<sub>7</sub>      I

### 2.5. Ikkinci darajali turdosh tonalliklarga modulyatsiya


Ikkinci darajali turdosh tonalliklar T orqali emas, biroq boshqa umumiyaakkordlar yoki vositachi tonalliklar orqali funksional aloqada bo'lishadi.

Dastlabki majorga, masalan-Do majorga nisbatan, quyidagi tonalliklar ikkinchi darajada hisoblanadilar<sup>1</sup>



<sup>1</sup> Yodlab olish jarayonini osonlashtirish maqsadida tonalliklar Do major va Iya minorga nisbatan yarim tonliklar bo'yicha joylashtirildi.

Dastlabki minorga, masalan lya minorga nisbatan esa, quyidagilar:



Bu tonalliklar dastlabki tonallikdan 2, 3, 4 va 5 kalit belgilari bilan farqlanadi<sup>1</sup>

Ikkinci turdosh darajada bo'lgan tonallikka ikki xil o'tish yo'li ma'lum – bu *bevosita* va *tadriiy* modulyatsiya.

*B e v o s i t a* modulyatsiya qo'llangan holda yangi tonallik kiritilishi kutilmagan hodisa effektini tug'diradi. Shu tufayli, bunday modulyatsiya maxsus holatlardagina ishlataladi. Tonalliklar o'tasida kalit belgilari farqining ko'payishi, modulyatsiyaning badiiy koloristik ifodasini kuchaytiradi.

*T a d r i j i y* modulyatsiya ikkinchi turdosh darajada bo'lgan tonalliklarni bevosita modulyatsiyaga ko'ra ravon bog'laydi va shuning uchun ham amaliyotda ko'proq qo'llaniladi.

Tadriiy modulyatsiya ikki yo'l bilan bajarilishi mumkin:

1. Vositachi tonalliklar kvinta doirasini bo'yicha tanlanib - modulyatsiyaviy jarayonning davomi ko'pincha dastlabki va oxirgi tonalliklar o'tasida mavjud bo'lgan kalit belgilari farqiga qaramdir. (106 mis. qarang)

2 Tezlashtirish usuli orqali.

*Umumi akkordlar yoki tonalliklarning topilishi.*

Tonalliklar umumiy akkordlari soni va sifati jihatidan ikki gunuhga bo'linadi.


*B i r i n ch i g u r u h g a ikkita kalit belgisiga* farqlanuvchi tonalliklar kiradi: C– D, h, B, g


a – h, D, g, B

Bu tonalliklar dastlabki tonallik bilan ikki umumiy akkordga ega bo'ladi. Bu umumiy akkordlar vositachi tonalliklarning tonikasi sifatida ham talqin etilishi mumkin. Vositachi tonalliklar, dastlabki va oxirgi tonallikdan bir kalit belgisiga farq qilib, kvinta doirasida shu ikki tonallik o'tasida joylashadi.

Masalan, Do majordan – Re majorga o'tishda vositachi akkord yoki tonallik sifatida Sol major, mi minor (yoki ularning tonikalari) qo'llanishi mumkin:

<sup>1</sup> Quyidagi simmetrik jadval tonalliklar o'tasidagi kalit belgilari farqini tez aniqlash uchun yordam beradi:





Modulyatsiya mazkur aytilgan ikki yo'l bilan bajarilishi mumkin  
(№ 115, 116):

115.

Do maj. - Re maj.

Bevosita mod.

III=II

116.

Do maj. - Re maj.

Tadrijiy mod.

mi min.

Sol maj.

I.S. Baxning Xoralida Si bemol majordan – Do majorga tadrijiy modulyatsiya vositachi sol minor va Fa major orqali amalga oshiriladi (№ 117):

L.Betxovenning 2-sonatasidan keltirilgan lavhada fa diez minordan - sol diez minorga modulyatsiya bevosita - umumiyakkord ( $V=IV$ ) orqali bajariladi (№ 118):

Allegretto

L. Betxoven. 2 son. III.

I k k i n c h i g u r u h g a qolgan 7 tonallik kiradi. Bu holda bevosita va tezlashtirilgan tadrijiy modulyatsiya bajarilganida *major tonalliklar* bog'lanishida vositachiakkord yoki tonallik sifatida *garmonik S* ishlataladi. Agar modulyatsiya bemol belgili tonalliklar sari bo'lsa garmonik S birinchi tonallikda tuziladi (№ 119-a, b):

Do maj. - Re bemol maj.

Bevosita mod.

IV=III

b) Do maj. - Re bemol maj. Tadrijiy (tezlashtirilgan) mod.

fa min. si  
bemol min.

Modulyatsiya diez belgili tonalliklar sari bo'lsa ikkinchi tonallikning garmonik S si vositachi sifatida qo'llaniladi (№ 120-a, b):

120. a) Do maj. - Mi maj. Bevosita mod.

VI=IV<sup>g</sup>

b) Do maj. - Mi naj. Tadrijiy (tezlashtirilgan) mod.

ly a min.

L. Betxovenning 6-fortepiano sonatasining birinchi qismida mazkur bevosita modulyatsiya mavjud. Re majordan Fa majorga, birinchi tonallikning garmonik S si orqali o'tilgan (№ 121):

121.

L. Beethoven. Son. № 6, I.

Allegro

Modulyatsiya *minordan-minorga* sodir bo'lsa vositachiakkord yoki tonallik sifatida *garmonik D* ishlataladi. Agar modulyatsiya diezli tonalliklar sari bo'lsa *garmonik D* birinchi tonallikda tuziladi. Masalan: a-E-gis (№ 122-a, b):

122. a) lya min. - sol# min.

$V^8 = VI$

b) lya min. - sol # min.

Tadrijiy (tezlashtirilgan) mod.

Mi maj.      Si maj.

Modulyatsiya bemolli tonalliklar sari bo'lganda esa, garmonik D ikkinchi tonallikda tuziladi. Masalan: a - C - f, (№ 123).

**123. lya min. - fa min.**

III=V<sup>g</sup>

Keltirilgan lavhada modulyatsiya mi minordan - re diez minorga birinchi tonallikning garmonik D si yordamida bajarilgan (№ 124):

**124.**

F. Shubert. "Qish yo'lli":  
"Jilg'a bo'yida"

Langsam

### 2.6. Uchinchi darajali turdosh tonalliklarga modulyatsiya

Uchinchi darajali turdosh bo'lgan tonalliklar u m u m i y a k k o r d-g a e g a e m a s d i r.

Bu yiroq tonalliklar guruhini ikkinchi darajali turdoshlar doirasiga kirmagan tonalliklar tashkil qiladi:

1. a) dastlabki major bilan bunday munosabatda 3, 4, 5 diezga farq qiladigan – uch minor tonallik: (C-fis, cis,gis);
- b) dastlabki minor uchun 3, 4, 5 bemolga farq qiladigan – uch major tonallik (a - Es, As, Des);

2. 6 kalit belgiga farq qiladigan-major va minor tonalliklar (C, a - Ges(Fis), es(dis).<sup>1</sup>

Yiroq tonalliklarga modulyatsiya ikkinchi darajali turdosh modulyatsiya uslubida bajariladi, ya'ni, aloqa birinchi daraja turdoshlikda bo'lgan vositachi tonalliklar yordamida amalga oshiriladi. Faqat bunda hatlash soni ko'payadi.

Agar modulyatsiya *majordan-diezli tonalliklar sari* bo'lsa, birinchi oraliq tonalligi sifatida parallel minor yoki bir diezga farqlanuvchi minorni tanlash ma'qul. Bu holatda birdaniga to'rt diezga, minorning garmonik D tonalligiga o'tish imkoniyati tug'iladi. Masalan: C - a - E - gis; C - e - H - dis (№ 125):

125.

*Do maj. - sol # min.*

ly a min.      Mi maj.

Modulyatsiya *minordan-diezli tonalliklar sari* bo'lsa birinchi oraliq tonalligi sifatida garmonik D tonalligining kiritilishi ma'qul. Bundan keyin bir yoki ikki birinchi darajali turdosh tonalliklar tomoniga hatlash bilan modulyatsiya bajariladi. Masalan: a - E - gis - Fis. (№ 126):

126.

*ly a min. - Fa # maj.*

Mi maj.      sol # min.

<sup>1</sup> Uchinchi darajali turdosh tonalliklarni tezroq aniqlash yo'li quyidagicha:

uch ton    sof. 5    sof. 5    sof. 5  
 C → Fis,    fis    cis,    gis,    dis

uch ton    sof. 4    sof. 4    sof. 4  
 a → es,    Es,    As,    Des,    Ges

Modulyatsiya *bemolli tonalliklar tomoniga* bajariladigan holda: dastlabki tonallik *major* bo'lsa, uning *garmonik S tonalligi* vositachi tonallik sifatida qo'llanishi lozim - C-f-Des-Ges (№ 127):

127.

**Do maj. - Sol bemol maj.**

Boshlang'ich tonallik *minor* bo'lsa, vositachi major tonalligi va uning garmonik S ga qarab yo'l tutmoq lozim – a – F – b – Ges – es (№ 128):

128.

Iva min. - mi bemol min.

Fa maj.    si bémol min.    Sol bémol maj.

Modulyatsiyaning rejasi tuzilganida tonalliklar bir-biridan bir xil intervallar oralig'ida joylashmasligiga ahamiyat berish lozim. Masalan:

s.4   s.4   s.4   k.3  
C - f - b - es - Ges emas

s.4   K.3   K.2   k.3  
balki   C-f - Des - es - Ges   bo'lgani ma'qul.

Badiiy tajribada yiroq tonalliklar munosabati shaklning *rivojlov* qismlarida uchraydi, ekspozitsiyada esa faqat yirik shakllarda bo'lishi mumkin.

### 3. ENGARMONIK MODULYATSIYA

Engarmonizm - balandlik jihatidan bir xil sadolanuvchi, biroq nota yozuvida turlicha belgilanib, har xil nomlanadigan musiqiy tovushlarning tengligidir. Engarmonik ravishda nafaqat tovushlar, balki intervallar, turli ohangdoshliklar va hatto tonalliklar ham tenglashtiriladi. Masalan, bir xil jaranglovchi uchtonlar: "si-fa" va "si-mi diez" har xil pog'ona soniga ega: birinchisi-beshta, ikkinchisi - to'rttadir. Engarmonik tenglashtirish hodisasini temperatsiyalangan tizimdagina hosil qilish mumkin.

Engarmonizmning *haqiqiy* va *soxta* turlarini farqlash lozim. Haqiqiy engarmonizmdaakkordlarning tuzilishi o'zgaradi. Soxta engarmonizmda esa,akkordlar tuzimi saqlanib qoladi, faqatgina notalarning yozilishi va o'qilishni yengillashtirish uchun alteratsiya belgilarining engarmonik almashuvi kiritiladi.

Engarmonik qayta talqin etish imkoniyatlari modulyatsiyalashda keng va xilma-xil yo'sinda qo'llaniladi. Engarmonik modulyatsiyaning maqsadi shundan iboratki, bir tonallikka taalluqliakkord engarmonik almashtirish natijasida yangi tonallikda o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Akkordlarni engarmonik o'zgartirib talqin etish akkordlarning interval tuzimida o'zgarish va shunga mos ravishda tortilishlar sodir etadi. Shunday akkordlarning lad funksiyasi ba'zi hollarda o'zgaradi, ba'zi hollarda esa saqlanib qolaveradi.

Engarmonik modulyatsiyaning o'ziga xosligi shundaki, birgina akkordda vositachi va modulyatsiyalovchi akkordlarning xususiyatlari uyg'unlashadi.

Engarmonik modulyatsiya uchun qo'llaniladigan akkordlar, ko'pincha dissonanslar bo'lib, kamaytirilgan septakkordlar, D, va orttirilgan uchtovushlikning engarmonik talqinlanishi keng tarqalgan. Bundan tashqari, engarmonik talqin uchun alteratsiyalangan akkordlar, xususan D, ko'tarilgan va pasaytirilgan kvinta bilan qo'llaniladi.

Engarmonik almashtirish uchun ishlataladigan turg'un konsonans akkordlar, ya'ni minor va major uchtovushliklari ishtirokidagi modulyatsiyalar kamroq uchraydi.

Engarmonik modulyatsiya boshqa tonallikka kutilmaganda o'tishi natijasida yorqin bo'yoqli taassurot hosil qiladi. Bu taassurot engarmonik modulyatsiyaning mazmuni va tabiatiga ko'proq mos keluvchi uzoq tonalliklarning qo'shilishida kuchayadi.

Engarmonik modulyatsiyaning ko'rsatib o'tilgan sifatlari uning shaklda tutgan o'mini ham belgilaydi. Bu, dastavval, har xil predikt va boshlovchi tuzilmalardir. Bunday modulyatsiyalar ekspozitsiyada, masalan, takroriy tuzilishdagi davriyalarda juda kam qo'llaniladi.

Musiqi amaliyotida kamyatirilgan septakkord (VII,) birinchi engarmonik o'zgacha talqinlangan akkord bo'ladi. Vena klassik kompozitorlari ijodida esa D, engarmonizmi paydo bo'ladi. Orttirilgan uchtovushlik, alteratsiyalangan akkordlar va boshqalar engarmonik modulyatsiyada anchayin kech qo'llanila boshlanadi.


### 3.1. Kamaytirilgan VII, orqali modulyatsiya

Kamaytirilgan VII, vositasidagi modulyatsiya-engarmonik modulyatsiyaning universal turi hisoblanadi. Chunki, bu yo'l bilan istalgan tonallikka modulyatsiyani amalgalashirish mumkin.

Agar kam. VII, istalgan tovushdan tuzilsa, u holda kichik tersiya oralig'ida mazkur akkord yangrashi takrorlanadi. Demak, shunga mos muvofiq ravishda, temperatsiyalangan tuzimning 12 tovushida hammasi bo'lib uchta jaranglashi turlicha kam. VII, tuzish mumkin.



Bu chegaralanish kam. VII, ba uning aylanmalarining engarmonik jihatdan tengligi bilan belgilanadi:



T, D va S ga yetakchi bo'la olishi tufayli, buakkordlarni turlicha yozilgan holda 24 tonallikning har qaysisida uchraydi.

T ga yetakchi bo'lgan holatida kam. VII, - sakkizta tonallikka yechilishi mumkin (№ 129):

129. Kam. VII<sub>7</sub> → T(t)

kam. VII<sub>7</sub>      kam. VII<sub>65</sub>      kam. VII<sub>43</sub>      kam. VII<sub>2</sub>

Do maj.  
do min.

Lya maj.  
lyा min.

Fa # maj.  
fa # min.

Mi bemol maj.  
mi bemol min.

Shunga muvofiq ravishdaakkordlarni D va S ga yetakchi sifatida talqin etish natijasida ham sakkiztadan tonallik hosil bo'ladi (№ 130, 131):

130. Kam. VII<sub>7</sub> → D

DD kam. VII<sub>7</sub>      DD kam. VII<sub>65</sub>      DD kam. VII<sub>43</sub>      DD kam. VII<sub>2</sub>

Fa maj.  
fa min.

Re maj.  
re min.

Si maj.  
si min.

Lya bemol maj.  
lyा bemol min.

131.

Kam. VII, → S

kam. VII<sub>7</sub> — S      kam. VII<sub>65</sub> — S      kam. VII<sub>43</sub> — S      kam. VII<sub>2</sub> — S

Sol maj.  
sol min.

Mi maj.  
mi min.

Do # maj.  
do # min.

Si bemol maj.  
si bemol min.

Modulyatsiyalovchiakkordning yechilishi yangi tonallikdagi funksional ahamiyatiga muvofiq kelgan holda amalga oshiriladi.

1. Agar kam. VII, yangi tonallikda T ga yetakchiakkord vazifasini bajarsa, bu holda uni yechishdan avval D, ning biron-bir aylanmasiga o'tkazish maqsadga muvofiqdir (№ 132):

132.

Do maj. - Mi bemol maj.

kam. VII<sub>7</sub>    VII<sub>2</sub>    V<sub>7</sub>    VI

Do maj. - fa # min.

kam. VII<sub>2</sub>    kam. VII<sub>65</sub>    V<sub>43</sub>

2. Agar kam. VII, yangi tonallikda D ga yetakchi vazifasini bajarsa (DD VII,), bu holda u ko'pincha K<sub>6/4</sub> ga yechiladi yoki D, ning biror aylanmasiga o'tkaziladi. Modulyatsiyalovchiakkordning K<sub>6/4</sub> ga yechilishida ovozlarni silliq yo'naltirish uchun uni shunday aylanmaga o'tkazish kerakki, bunda bas kadans basidan sekunda (baland yoki past) oralig'ida joylashsin (Mis. № 133):

133.

Do maj. - Re maj.

kam.VII<sub>7</sub> ∞ DDVII<sub>65</sub> K<sub>64</sub>

Do maj. - Si maj.

kam.VII<sub>43</sub> ∞ DDVII<sub>7</sub> K<sub>64</sub>

3. Agar kam. VII<sub>7</sub> yangi tonallikda S ga yetakchi vazifani bajarsa, bu holda modulyatsiyalovchiakkord subdominantalaridan biriga o'tadi (Mis. № 134 a) yoki D<sub>7</sub>ga (uning aylanmasiga) uch karrali yarim tonli to'xtalma sifatida e'tirof etiladi. Bunda yuqoriga yechiluvchi tovushlarning joylashuvini aniqlash uchun D<sub>7</sub> bilan umuniy tonni topish kifoya. Bu D<sub>7</sub> ning to'xtalmalarining yechilishi vaqtida o'z o'mida qoladigan primasidir (№ 134 b):

134. a) Do maj. - do # min.

kam. VII<sub>7</sub> ∞ kam. VII<sub>43</sub> >(IV)

b) Do maj. - do # min.



M. Musorgskiyning “O’lim qo’shiq va raqlari” turkumidagi “Serenada”dan keltirilgan parchada D, dan keyin kutilgan mi minor (major) tonikasi o’miga mi bemol minorga engarmonik modulyatsiya mavjud (kam. VII, →S ⌂ kam. VII<sub>4/3</sub>). Bunday tasodifiy tonallik siljishi asarning teran mazmuni bilan uzviy bog’liq ravishda kechadi (№ 135):

135. **Moderato**

**M. Musorgskiy "Ajal raqsi  
va qo’shig'i". "Serenada".**

### 3.2. Dominantseptakkord engarmonizmi

D<sub>7</sub> orgali modulyatsiya kichiik septima va orttirilgan sekstaning engarmonik tengligiga asoslanadi. Engarmonik jarayon oddiylik murakkablikka almashtirilishi bilan ajralib turadi, ya'ni, kichik septima – orttirilgan seksta bilan, tabiiy septakkord – alteratsiyalangan septima bilan almashadi.

D<sub>7</sub> engarmonik jihatdan bir qator alteratsiyalanganakkordlarga teng. Buakkordlar vositachiligida engarmonik modulyatsiyada quyidagi variantlar bo'lishi mumkin (№ 136):

136.

D<sub>7</sub>      DDVII<sub>65</sub><sup>b3</sup>      VII<sub>65</sub><sup>b3</sup>      II<sub>65</sub><sup>#1</sup>      VII<sub>43</sub><sup>b5</sup>  
 Do maj.  
 do min.      Si maj.  
 si min.      Fa # maj.  
 fa # min.      Re maj.  
 re # min.

1. a) Engarmonik o'zgaruvchi D<sub>7</sub> asosiy ko'rinishda yangi tonallikda minoring VI – pog'onasi yoki majorning VI – pasaytirilgan pog'onasida tuziladi va DDVII<sub>65</sub><sup>b3</sup>, ya'ni qo'sh dominantanining orttirilgan kvintsekstakkordi sifatida talqin etiladi va K<sub>6/4</sub> yoki o'tkinchi T<sub>6/4</sub>ga yechiladi (№ 137-a):

137. a)

Do maj. - Si maj.

b)

b) Ushbuakkord-sekundakkord ko‘rinishida (yangi tonallikning IV-ko‘tarilgan pog‘onasida) qo‘llanib, DDVII, $\flat^3$  sifatida talqin etiladi (№ 137-b).

D, ning alteratsiyalangan DD ga turlicha “o‘tishlari” kompozitorlik amaliyotida keng tarqalgan (№ 138):

138.

F. Shopen. Mazurka, op. 56. №1.  
poco pin mosso

*Allegro non tanto*

2. a) D, asosiy ko‘rinishda yangi tonallikning II-pasaytirilgan pog‘onasida tuzilib, VII $6/5$ ,  $\flat^3$  sifatida talqin etiladi va asosiy dominantalardan biriga o‘tadi (№ 139-a):

139. a)

Do maj. - mi min.

b) Berilganakkord – sekundakkord ko‘rinishida (yangi tonikadan yarim ton pastda tuzilgan)-VII,  $\flat^3$  ga tenglashtiriladi va asosiy dominantalardan biriga o‘tadi (№ 139-b):

b) Do maj. - mi **bemol** min.

3. a) D, asosiy ko'rinishda yangi tonika tersiyasidan yarim ton yuqorida tuziladi va engarmonik II<sub>6/5</sub><sup>#1</sup> (majorda) va VII<sub>4/3</sub><sup>b5</sup> (minorda)ga tenglashtiriladi.Undan keyin T yoki D (ko'pincha alteratsiyalangan) garmoniyasi keladi (№ 140-a, b):

140. a)

Do maj. - Lya maj.

b)

Do maj. - sol min.

b) Berilganakkord – sekundakkord ko'rinishida yangi tonika tersiyasidan yarim ton pastga tuziladi.. Engarmonik modulyatsiya bajarishda modulyatsiyalovchiakkord silliq ovoz yo'nalişda dastlabki tonallikning T si yoki boshqaakkorddan keyin og'ishma yoki elliptik uslubda kiritiladi.

### 3.3. Orttirilgan uchtovushlik engarmonizmi

Orttirilgan uchtovushlik musiqa amaliyotiga nisbatan kech kirib keldi va hozirda ham birmuncha kam qo'llaniluvchi vositalardan sanaladi. Bu uning o'ziga xos yangrashi va funksional imkoniyatining ma'lum chegaralanishi bilan izohlanadi.

Orttirilgan uchtovushlikning sadolanishi shuakkord ishtirokidagi modulyatsiyaga o'ziga xos – jilolanuvchi kolorit beradi.

Sadolari jihatidan turlicha bo'lgan to'rtta orttirilgan uchtovushlik mavjud:

Ularning har biri turlicha ladofunksional talqinga ega.  
Majorning orttirilgan uchtovushliklari:

Minorning orttirilgan uchtovushliklari:

Har bir orttirilgan uchtovushlikning major va minordagi to'rtta funksional variantlarini ko'rib chiqib, shuningdek, uning aylanmalarini nazarda tutgan holda, orttirilgan uchtovushlikning engarmonizmi yordamida o'tish mumkin bo'lgan quyidagi tonalliklar doirasini hosil qilamiz. Masalan:



Do, Lya bemol, Mi majorlarda-VI<sup>g</sup>, Re bemol, Fa, Lya majorlarda – V<sup>#5</sup>, fa, lya, do diez minorlarda- III<sup>g</sup> va mi, lya bemol, do minorlarda- IV<sup>b</sup> uchtovushlik sifatida qo'llanishi mumkin.

To'rt ovozlik tuzimlarda orttirilgan uchtovushlikda yangi tonallikka yechilish jarayonida o'z o'mida qoladigan tovushlar juftlanadi (№ 141):

**141.**

<b>Do maj. - Mi maj.</b>	<b>Do maj. - Lya maj.</b>

<b>Do maj. - do # min.</b>	<b>lya min. - fa # min.</b>

**F.** List ijodida orttirilgan uchtovushlik orqali bajarilgan engarmonik modulyatsiya ko'p va turlicha qo'llangan (№ 142):

**Allegro agitato**

F. List. "Qachondir Fulda qiro  
yashagandi".

fa min.      III<sup>8</sup>      VI<sup>8</sup>

Lya  
bemol  
maj.

#### **4. MELODIK-GARMONIK MODULYATSIYA**

Dissonansakkordlarning melodik aloqasiga asoslangan va muayyan funksional munosabatga ega bo'lman modulyatsiya m e l o d i k – g a r m o n i k modulyatsiya deb ataladi.

Modulyatsiyaning bu turi kutilmagan va to'satdan sodir etilgan toifaga taalluqli va shuning uchun ba'zi mualliflar tomonidan e l l i p t i k modulyatsiya deb ham yuritiladi.

Shartli ravishda, har xil tonalliklar dissonansakkordlarining o'zaro munosabati turlarini quyidagichcha tasniflash mumkin:

1. Dastlabki tonallik D sining yangi tonallik D si bilan munosabati;
2. D ning S bilan munosabati;
3. S ning S bilan munosabati,
4. S ning D bilan munosabati.

Bu funksiyalar xilma-xil aylanma va joylashuviga ega bo'lgan turlichaakkordlar orqali ifodalanishi mumkin.

Melodik-garmonik modulyatsiyaning kutilmagan tarzda ekanligi ovoz yo'nali shining tabiiy va silliq bo'lishiga alohida diqqat - e'tibor talab qiladi. Bunda chetdagi ovozlarning harakati alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ovozlarning harakati keyingi tonallikka zid bo'lmasi ligi kerak.

Keltirilgan misolda Re major va Fa majorning dissonansakkordlari D<sub>6/5</sub> va D<sub>7</sub> bevosita funksional aloqada bo'lmay, faqat kuychanlik yo'li bilan bog'langandir (№ 143).

Melodik-garmonik modulyatsiyaning xarakterli xususiyati – uning serjilolidigadir. Taqqoslangan tonalliklarning turdoshligi uzoqlanishi bilan kuchayadi. Modulyatsiyaning bu ko'rinishi odatda musiqaviy shaklning rivojlanuvchi qismlarida ko'proq qo'llaniladi. Faqat XIX asrning oxiriga

kelib, u garmoniya tilining murakkabligi bilan ajralib turuvchi musiqa uchun xarakterli bo'la boshladi va ekspozitsion bayonda ham joy oladigan bo'ldi.

143.

L. Beethoven. Sim. №7, III.

## 5. MELODIK MODULYATSIYA

Tonalliklarning bog'lanishi ovozning kuychan melodik harakati natijasida sodir bo'ladigan modulyatsiya m e l o d i k modulyatsiya deb ataladi.

Bog'lama bir ovozli yoki unison yoki oktavada takrorlangan bo'lishi mumkin.

Do diez minordan—Lya majorga ifodali melodik modulyatsiyaga misol keltiramiz (№ 144):

144.

V.A. Motsart. Son. № 11. III.

*Allegretto*

## 6. TAQQOSLAMA MODULYATSIYA

Taqqoslama modulyatsiya yangi tonallikning tayyorgarliksiz kiritilishidan hosil bo'ladi. Tayyorgarliksiz bog'lovchi (vositachi va modulyatsiyalovchi)akkordning mavjud emasligi, dastlabki rivojlanishning ko'proq yoki kamroq tugal bo'lishi bilan ifodalanishi mumkin.

Taqqoslama modulyatsiya ko'pincha shakl bo'limlarining chegaralarida qo'llaniladi.

Navbatdagi misol taqqoslangan tonalliklarning katta sekundali munosabatini namoyish etadi (№ 145):

145.

Con vivacita

S. Prokofyev. "Oniy lahza", insho 22. № 10.

V B O B

## LADLARNING O'ZARO BIRIKISHI

Birgina tonika *nomdosh* va *parallel* tonalliklar akkordlarining birlashishi diatonik major va minor tovushqatorlarini murakkablashtirish yo'llaridan biridir.

### 1. NOMDOSH MAJOR-MINOR TIZIMI

Nomdosh major-minor tizimi tabiiy nomdosh tonalliklarning birlashirilishidan (Do major - do minor) vujudga keladi.

Tizimni ikki varianti mavjud:

- nomdosh minor akkordlari bilan boyitilgan major, bu holda major-minor hosil bo'ladi;
- nomdosh major akkordlari bilan boyitilgan minor, bu holda avvalgining aksi, ya'ni minor-major hosil bo'ladi.

Major-minor va minor-majorning pog'onali va akkordli tarkibini keltiramiz (№ 146):

146.

Tabiiy major (Do major)

Tabiiy minor (do minor)

The image shows five staves of musical notation. The first two staves are for 'Do major-minoring' (Tabiiy major) and 'Do major-minor' (Tabiiy minor). The third staff shows the transition from minor to major with labels: T (Tonic), t (Subtonic), III<sup>P</sup>, VI<sup>P</sup>, VII<sup>P</sup>. The fourth and fifth staves show the transition from major to minor with labels: do minor-majorning (Tonic), do minor-majorning (Subtonic), III<sup>6</sup>, VI<sup>6</sup>.

Major-minor akkordlari funksiyaviy tamoyillari bo'yicha guruhanadi (№ 147):

147.

A diagram showing three chords on a single staff. The first chord is labeled 'S' (Subtonic). The second chord is labeled 'T' (Tonic) with a bracket above it. The third chord is labeled 'D' (Dominant).

Major-minor tizimining barcha akkordlari (aylanmalari bilan)-septakkordlar kam hollarda-nonakkord ko'rinishlarida ishlatilishi mumkin.

Barcha lad tizimlari orasida nomdosh major-minor va minor-major aniqligi va tarixiy barqarorligi hamda e'tiborliligi bilan ajralib turadi.

Bunda, major-minor tizimining funksiyalanishida majorning boshqaruvchi mazmuni va minoring tobe holatini ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, bu major-minorning, minor-majorga nisbatan ertaroq shakllanganligi va ko'proq tarqalganligida ko'rindi.

Major va minorni yagona tizimga birlashtirishning dastlabki zamini garmonik minor bo'ldi. Minorda yetakchi ton (VII-pog'ona)ning paydo bo'lishi uning imkoniyatlarini majorniki bilan tenglashtirish zarurati tufayli

tug‘ildi. Natijada, V bosqich majorakkordlarining dominanta guruhi shakllandi, keyinchalik kamaytirilgan yetakchi septakkordni qo’llash imkoniyati ham paydo bo‘ldi.

Biroq garmonik minor va uningakkordlari ilgaridanoq maxsus vositasifatida qabul qilinmay, balki tez orada normallik ahamiyatiga ega bo‘ladi.

Minorda yozilgan asarning major tonikasining uchtovushligi bilantugallash an’anasi, nomdosh major va minorming ilk yaqinlashuv shakllariga taalluqlidir. Bu an’ana I.S.Baxgacha (1685-1750) saqlanib qoldiki, u major uchtovushlighining ko‘proq akustik turg‘unligi bilan izohlanadi (№ 148):

148.

J.B. Lyulli. "Tezey" operasidan raqs.

Zamonaviy musiqada ham bu usul ba’zi hollarda o‘z ifodasini topgan: S.Yudakovni “Maysaraning ishi” operasida Maysaraning markazi ariyasi re minorga asoslangan bo‘lsada, asar mazmunidan kelib chiqib Re majorakkordi bilan tugallanadi.

Nomdosh major-minorming koloristik va jilolantiruvchi imkoniyatlari musiqiy romantizm davrida ayniqsa katta qiziqish uyg‘otishi va keng qo’llanishiga muhim omil bo‘ldi.

Major va minor uchtovushliklari muqoyasasining koloristik imkoniyatlari har bir major yoki minor uchtovushligini nomdosh uchtovushlik bilan almashtirish amaliyotiga olib keladi. Bu dastlabki nomdosh major-minorningakkord tarkibini muhim darajada boyitdi (№ 149):

149.

## 2. MAJOR-MINORNING O'ZIGA XOS AKKORDLARI

### 2.1. VI-pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi ( VI<sup>p</sup>)

VI pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi subdominanta guruhiakkordlarining eng dastlabki va ko'proq tarqalganidir. U diatonik VI pog'ona uchtovushligi qo'llanadigan sharoitlarda ishlataladi.

VI<sup>p</sup> ning "bo'lingan" aylanmalarda ( $D_{\flat}$ -VI<sup>p</sup>) qo'llanishi ko'proqxarakterli bo'lib, ta'sirchanlik effektiga ega (№ 150).

VI<sup>p</sup> dan keyin odatda garmonik subdominanta ( $S^e$ , SII<sup>e</sup>), qo'shdominanta (DD) akkordlari keladi (№ 151).

150.

V7      VI<sup>p</sup>      V7      VI<sup>p</sup>

151.

V7      VI<sup>p</sup>      II<sub>43</sub><sup>g</sup>

Betxovenning 7-fortepiano sonatasidan keltirilgan lavhada "bo'lingan" aylanma ikki turda mavjud: birinchi marotaba - diatonik, ikkinchisida esa – major-minor ko'rinishida (№ 152):

152.

Allegro

L. Betxoven. Son. № 7, IV.

VI<sup>p</sup> bevosita bog'lovchi rishta sifatida tonika va subdominanta o'rtasida qo'llaniladi. T va VI<sup>p</sup> esa faqat garmonik yo'naliishda qo'shiladi (№ 153):

## 153.

I VI<sup>P</sup> II<sub>65</sub><sup>n</sup> I VI<sup>P</sup> IV<sup>g</sup>

VI<sup>P</sup> subdominanta sifatida tonikaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishida plagal aylanish va plagal kadensiya sodir bo‘ladi. Major uchtovvushliklarining bevosita tersiya oralig‘ida taqqoslanishi yorqin koloristik effekt hosil qiladi va XIX asr ikkinchi yarmi amaliyotining odat tusidagi garmonik vositasi bo‘lib qoladi (№ 154):

## 154.

I VI<sup>n</sup> I IV<sup>g</sup> VI<sup>P</sup> I

VI<sup>P</sup>-o‘z dominantasi, ya’ni III pasaytirilgan pog‘onaakkordi yordamida kiritilishi yoki mustahkamlanishi mumkin (№ 155):


## 155.

V<sub>43</sub> → VI<sup>P</sup> I

M. Ashrafiyning "Shoir qalbi" operasidagi "Vals"da shodiyona avjni tashkil etadigan garmoniya ikki major uchtovushligining (I-VI<sup>p</sup>) taqqoslanishi va VI<sup>p</sup> o'z dominantasi (D<sub>6/5</sub>, D<sub>2</sub>) bilan mustahkamlanishiga asoslanadi (№ 156):

156.

**M. Ashrafiy "Shoir qalbi" op. "Vals bilan xor".**



## 2.2. III-pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi (III<sup>p</sup>)

Major-minor tizimining dominanta guruhiakkordlari - III<sup>p</sup>, VII<sup>p</sup>, V minor uchtovushligi (kam uchraydiganakkord). III<sup>p</sup> major uchtovushligi ayniqsa T bilan izchillikda (T-III<sup>p</sup>) yorqin tersiyaviy muqoyasa hosil qiladi (№ 157):

157.

**Andante con moto**

**M. Musorgskiy "Xovanshina".**

III<sup>p</sup> uchtovushligi ko'pincha frigiy tetraxordiga o'xshash aylanmalarda ishlatalidi (№ 158).

III<sup>p</sup> major-minorakkordlari orasida o'zining subdominantasi (VI<sup>p</sup>) va dominantasiga (VII<sup>p</sup>) ega va shuning uchun ham ularning yordamida serjilo og'ishmalarni amalga oshirish mumkin bo'lgan markaz sifatida ham namoyon bo'ladi (№ 159-a):

## 158.

III<sup>p</sup>                    III<sup>p</sup>

## 159. a)

8

Keltirilgan misolda Fa major nomdosh fa minorakkordlari bilan boyitilgan ( d, VII<sup>p</sup>, III<sup>p</sup>, III<sub>2</sub><sup>p</sup>, IV<sup>g</sup><sub>6/5</sub>). Shu qatorda garmoniya rivoji aynan III<sup>p</sup> uchtovushligiga og'ishma tufayli murakkablangan (№ 159-b):

## 159. b)

## A. Kozlovskiy "Ulugbek" op."Mehmonlar xori".

Allegro

### **2.3. VII pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi (VII<sup>p</sup>)**

Dominanta guruhining navbatdagiakkordi-VII pasaygan pog'ona uchtovushligi kamroq ishlatalidi. Uni major-minorming frigiy aylanmasiga kiritish xarakterlidir (№ 160, 161):

160.

161.

R.M. Glier, T. Sodiqov.  
"Gulsara" op. "Final xori".

**Moderato**

Kvarta-kvintali va tersiyali munosabatlarda VII<sup>p</sup> uchtovushligi qo'llanishi hech qanday maxsus sharoitlar bilan chegaralanmaydi.

### **2.4. Nomdosh tonika**

Nomdosh minor tonikasi ko'pincha major tonikasi bilan taqqoslash sifatida kiritiladi. Bunday solishtirishakkordlar o'ttasida bo'lган holda (T-t), minor tonikasi asosiy major tonikasini tuslaydi. Aylanmalarining qiyoslanishi esa, aks sado effektini yaratadi (№ 162):

162.

## M. Glinka "Ruslan va Lyudmila". Uvertyura.

**Allegro**

**3. MINOR-MAJOR**

Yuqorida aytib o'tilganidek, minor-major badiiy amaliyotda kamroq qo'llaniladi. VI va III balandlashtirilgan pog'onalar uchtovushliklari minor-majorning maxsus akkordlaridir.

VI<sup>b</sup>-odatda subdominanta sifatida ishlataladi, III<sup>b</sup> esa, dominanta funksiyasini bajarishi mumkin (№ 163):

163.

Keltirilgan lavhada VII<sup>b</sup> uchtovushligi re minorga xos hazin kayfiyatni yanada kuchaytiradi (№ 164):

164.

**Moderato**

S. Prokofyev.  
"Bolalar musiqasi".  
"Tazarru".

#### 4. PARALLEL MAJOR-MINOR

Parallel major minor parallel garmonik lardarning birlashtirish natijasida hosil bo'ldi. Masalan, garmonik Do major - garmonik lya minor.

Maxsusakkordlar:

- a) majorga - garmonik minorakkordlarining o'tishidan V<sup>g</sup>;
- b) minorga - garmonik majorakkordlarining o'tishidan IV<sup>g</sup>, II,<sup>g</sup> paydo bo'ladilar.

Natijada major - III pog'onasi major uchtovushligi bilan, minor - VI pog'onasi minor uchtovushligi va kamaytirilgan kvintali kichik septakkord bilan boyitiladi (№ 165-a, b):

##### 165. a) Do major

##### b) lya minor

"Shubert akkordi" "Raxmaninov akkordi"

Major VI<sup>g</sup> pog'onasining (lya ♭) minor VII<sup>g</sup> pog'onasi (sol#) bilan engarmonik mos kelishi tufayli garmonik rivojlantirish jarayonida bir laddan boshqasiga osongina o'tish imkoniyati tug'iladi. Bu esa ko'pincha har ikkala tonikalarning teng huquqli bo'lishiga sharoit yaratadi.

#### 4.1. Major III pog'onasining major uchtovushligi (III<sup>maj</sup>)

Parallel tizim shakllanishining dastlabki bosqichlarida III<sup>maj</sup> parallel minorning dominantasi sifatida namoyon bo'ladi. U yarim kadansda D o'mnida kelsa, ikkinchi jumlada ko'pincha o'zining tonikasiga yechiladi.

Asta sekin III<sup>maj</sup> uchtovushligini qo'llashda uning paralleli bilan aloqasiga kamroq urg'u beriladi vaakkord bevosita major tizimiga kiritiladi.

Quyida keltirilgan parcha o'zaro tersiya munosabatida bo'lgan ikkita major uchtovushligining serjilo solishtirilishiga asoslangan (T va III<sup>maj</sup>) (№ 166):

166.

*Allegro non troppo*

N. Rimskiy-Korsakov.  
"O'lmas Kashchey", 2 k.

Navbatdagi misolda III<sup>maj</sup> pog'onasi uchtovushligi bevosita avtentik aylanmaga kiritilgan (№ 167):

167.

M. Musorgskiy. "Boris Godunov". II k.

*Poco pin mosso*

#### 4.2. Minor VI – pog'onasining minor uchtovushligi (IV<sup>min</sup>)

VI<sup>min</sup> pog'onasi uchtovushligi ko'pincha "Shubertakkordi" deb yuritiladi. Negaki, F. Shubert ijodida mazkur uchtovushlik parallel tizim uchun xarakterli aylanmalarda qo'llanilgan.

Xususan, ushbuakkord Shubertning mashhur “Boshpana” qo’shig‘i kulminasiyasiga kiritilishi diqqatga sazovordir (№ 168).

Biroq, qator hollarda minorda VI<sup>min</sup> qo’llanishi diatonik VI pog‘ona uchtovushligi o‘rniga kiritilgan *nomdosh*akkord deb izohlashga ham asos beradi.

168.

F. Shubert.  
“Boshpana”.

Nicht zu geschwind *fff*

го - лы - е ска  
лы.

бур ный по - ток.  
ча


*decresc*

#### 4.3. Minorning kamaytirilgan kvintali kichik septakkordi

Mazkurakkord S. Raxmaninovning shunga o‘xshash garmoniyalarga moyilligi tufayli “Raxmaninov garmoniyasi” nomini oldi. Bu garmoniya nafaqat parallel minor-majorakkordi sifatida, balki garmonik minorning tersiyasi o‘rnida kvartali VII pog‘ona terskvartakkordi ( $VII_{4/3}^4$ ) sifatida ham talqin etiladi (№ 169-a):

169. a)

parallel Iya minor-major



Iya minor



Quyidagi misolda mazkurakkord "Raxmaninov garmoniyasi"ga xos bo'lgan parallel yurish bilan tonikaga yechiladi (№ 169-b):

169. b)

S. Raxmaninov. "Aleko".  
"Nuroniy hikoyasi".

Moderato espressivo

## 5. TERSIYA QATORLARI

Tersiya qatorlari paydo bo'lishi nom do sh va parallel major-minorning kompozitorlar amaliyotida keng tarqalganligi bilan bog'liq. Tersiya qatorlari – buakkordlar yoki ular guruhlarining tersiya bo'yicha yuqoriga yoki pastga taqqoslama harakatidir. Bunday yo'nalishdan yopiq turkum shakllanishi mumkin.

Nom do sh tizim negizligida quyidagi pastga va yuqoriga harakatlanuvchi tersiya qatori sodir bo'lishi mumkin (№ 170-a,b):

170. a) Do major-minor

b)

Keltirilgan misolda har qaysiakkord o'zidan oldingiakkordga nisbatan VI<sup>p</sup>sifatida baholanadi (mis. № 170 a), natijada major uchtovushliklarining pasta harakatlanuvchi yopiq katta tersiyali qatori hosil bo'ladi. Keyingi (№ 170-b) misolda har birakkord o'zidan oldingiakkordga nisbatan III<sup>p</sup>pog'ona sifatida baholanadi va major uchtovushliklarining yuqoriga harakatlanuvchi kichiktersiyali yopiq qatori hosil bo'ladi.

Minor-majorga asoslangan tersiya qatorlari minor uchtovushliklarni taqqoslash bilan shakllanadi.

Shunga o'xshash tersiya qatorlari parallel tizim bilan alohida tuzilishi mumkin.

Tersiya qatorlari sekvensiyali xususiyatga ega va badiiy amaliyotda ko'pincha bir-biriga silliq o'tib ketadi.

Tersiya qatorlari qo'llanishining kulminatsion davri – tonal jihatdan noaniqlik vositalarini yaratish uchun izlanishlarning ibtidosi sifatida ajralib turadigan XIX asrning ikkinchi yarmidir.

Tersiya qatorlarida tonal jihatidan noaniqlik darajasi kontekstga bog'liq. Masaian, T-VI<sup>p</sup>-III<sup>maj</sup>.-Takkordlari izchilligida (mis. № 170-a) funksiyaviy asosi yetarlicha belgilangan, zeroki T - S - D - T izchilligini namoyon qiladi.

S. Prokofyevning "Romeo va Juletta" baletidan "Juletta-qizaloq" raqsining boshlang'ich taktlarini shunday katta tersiyali qatorlarning mumtoz namunasi sifatida keltirish mumkin (№ 171):

171.

S. Prokofev. "Romeo va Juletta", "Juletta-qizaloq".

Navbatdagi misolda tersiya qatorining funksiyaviy mazmuni kamroq belgilangan, chunki u odait tusini olgan funksiyaviy aylanmalarga mos kelmaydi (№ 172):

172.

F. List. "Baxtli".



Akkordning funksiyaviy aloqasi kichik tersiya qatorida yana ham ko'proq buziladi. Negaki, bu harakatning ikkinchi "qadami" triton munosabatlariiga olib keladi.

Akkordning o'rtasidagi aloqalar zaifligi va shunga muvofiq funksiyaviy noaniqligi tersiya qatorining jilosini kuchaytiradi. Bunda u alohidaakkordlarning yangrashiga, ularning taqqoslanishiga o'ziga xos kolorit baxsh etadi.

Major uchtovushliklarining katta tersiyali xalqalari **b u t u n t o n l i** gammaning garmoniyalash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin (№ 173-a):

173. a)

M. Glinka. "Ruslan va Lyudmila". Uvertyura.

**Presto**

O'z navbatida kichik tersiyali rishta ham ko'pincha tovushlar qatorining to'rtta (major yoki minor)akkordlarida joylashgan **t o n – y a r i m t o n l i g a m m a** bilan bog'liq (№ 173-b):

173. b)

N. Rimskiy-Korsakov. "Sadko", IIp.

**Andante**

## 6. MODULYATSIYA VA NOMDOSH MAJOR-MINORNING VOSITALARI

Major-minor tizimi sharoitida b i r i n c h i d a r a j a l i t u r d o s h tonalliklar doirasi kengayadi. Diatonik o'xhash tonalliklar guruhiga tonikasi major-minor (va minor-major)ningakkord tarkibiga kiradigan tonalliklar qo'shiladi. Masalan, dastlabki Do major va do minorga – diatonik va major-minor turdoshlik munosabatida quyidagi tonalliklar bo'ladi:

- Do major (C) a, e, G, d, F, f (diatonik o'xhashlik)  
c, As, Es, B, g (major-minor o'xhashlik)  
do minor (c) Es, f, As, g, B, G (diatonik o'xhash)  
C, F, d, a, e (minor-major o'xhash)

### 6.1. VI – pasaytirilgan pog'ona (VI<sup>p</sup>) uchtovushligi vositasidagi modulyatsiya

VI<sup>p</sup> pog'ona uchtovushligi vositasidagi modulyatsiya ko'p jihatdan garmonik S orqali tezlashtirilgan modulyatsiyaga o'xshaydi. VI pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi uch, to'rt, besh va kamroq hollarda oltita belgiga ajraydigan major va minor tonalliklarni qo'shish imkoniyatiga ega.

Modulyatsiya majordan *bemol* tonalliklari sari bajarilsa umumiyakkord (tonallik) sifatida *birinchi* tonallikning VI pasaytirilgan uchtovushligi qo'llanadi. Masalan, Do majordan quyidagi tonalliklarga o'tish mumkin: C – Es, c, As, f, Des, b, Ges, es.

VI<sup>p</sup> quyidagi yo'l bilan kiritiladi: a) "bo'lingan" aylanishda, b) bevosita T keyin, d) o'zining dominantasi orqali.

Quyidagi misollar dastlabki tonallikning VI<sup>p</sup> pog'ona uchtovushligi orqali bajariladigan modulyatsiyalar tizimini ko'rsatadi (№ 174-a, b):

#### 174. a) Do maj. - Mi bemol maj.

I VI<sup>⁹</sup> IV II<sub>65</sub> DD<sub>65</sub> K 6<sub>4</sub> V<sub>7</sub> I

b) Do maj. - si bemol min.

1 V<sub>7</sub> VI=VII<sup>P</sup><sub>6</sub> 43II K<sub>64</sub> V<sub>7</sub> I

Modulyatsiya majordan va parallel minordan *diez* tonalliklar sari bajarilsa, umumiy akkord (tonallik) sifatida *yangi* tonallikning VI pasaytirilgan uchtovushligi qo'llanadi. Undan keyin, yangi tonallikni mustahkamlash uchun kadensiya kiritiladi.

Yangi tonallikning VI – pasaytirilgan pog'onasi uchtovushligi orqali bajariladigan modulyatsiyalarining odat tusidagi chizmalari (№ 175-a, b):

175. a) Lya min. - Mi maj.

V<sub>65</sub> I V<sub>2</sub> → III<sub>6</sub> = VI<sub>6</sub><sup>P</sup> II<sub>7</sub><sup>g</sup> II<sub>65</sub><sup>g</sup> V<sub>7</sub> I

b) Do maj. - Lya maj.

I V<sub>2</sub> → IV<sub>6</sub> = VI<sub>6</sub><sup>P</sup> II<sub>65</sub><sup>g</sup> DD<sub>65</sub><sup>25</sup> K<sub>64</sub> V<sub>7</sub> I

## 6.2. Nomdosh tonika vositasidagi modulyatsiya

Nomdosh tonika u m u m i y a k k o r d sifatida qo'llanilganda modulyatsiya ko'pincha quyidagi tonalliklarga bajariladi.

Majordan: C - Es, As, B.

Minordan: c - a, e, d.

Nomdosh tonikani kiritish yo'llari:

a) avtentik kadansga major tonikasi o'rniiga minor tonikasining kiritilishi. Bunday almashuv keyingi garmoniya rivojiga ichki turtki bo'ladi, chunki minor tonikasining major tonikasiga ko'ra turg'unlik xususiyatlari bo'shroqdir. Teskari tartib esa (minor o'rniiga — major tonikasi kiritilishi) modulyatsiyalarda kam uchraydi, chunki bu holda to'sqinlik taassuroti tug'iladi;

b) sezura orqali bo'lingan, ko'pincha o'xshash major va minor tuzimlarning qiyoslanishi.

Quyida keltirilgan misol nomdosh tonika orqali bajariladigan modulyatsiya chizmasini ko'rsatadi (№ 176):

176. C-c-B

A musical score for two staves. The top staff is in treble clef and 3/4 time, starting with a C major chord. The bottom staff is in bass clef and 3/4 time, also starting with a C major chord. The music consists of eighth-note patterns. At the end of the piece, there is a change in harmonic function, indicated by a sharp sign over the bass note, signaling the transition to the next section.

Betxovenning 2-fortepiano sonatasidagi ikkinchi qismda Mi b majordan Sol b majorga modulyatsiya *umumiyligi*, birinchi tonallikka *nomdosh* mi b minor vositasida amalga oshiriladi (№ 177):

177.

Adagio con molt' espressione

L. Betxoven. Son. №11, II.

A musical score for two staves. The top staff is in treble clef and 9/8 time, with a key signature of one flat. The bottom staff is in bass clef and 8/8 time, with a key signature of one flat. The music features sustained notes and rhythmic patterns. The piece begins in Mi b minor and transitions to Sol b major, which is clearly marked with a sharp sign over the bass note.



## 7. BIR TERSIYALI TIZIMLAR

Bir tersiyali tizim yarim ton oraliqda joylashgan va umumiy tersiyaga ega bo‘lgan major va minor ladlar qo’shilishi natijasida sodir bo’ladi (Do major – do  $\sharp$  minor). Keltirilgan misollarda bir tersiyali tizim umumiy tovushqator sifatida shakllanishi jarayonining chizmasi ko’rsatilgan (№ 178, 179):

178.

Do major

do diyez minor

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11

179.

lya minor

Lya bemol major

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11

Bir tersiyali lya minor-major


1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11

Nomdosh tizimga o’xshab, bu tizim ham ikki turda mavjud:

1. Bir tersiyali major-minor tizimi. Bu holda major yarim tonga baland joylashgan minor ohangdoshliklari bilan murakkablanadi va major uchtovushligi tonika ahamiyatiga ega bo’ladi (№ 180):




2. Bir tersiyali minor-major tizimi. Bu holda minor yarim ton pastda joylashgan major ohangdoshliklari bilan murakkablanadi (№ 181):



Nomdosh va parallel tizimlarga qaraganda bir tersiyali tizimning juda muhim farqi bor, zero, unda maxsusakkordlar lading asosiy pog'onalalarida joylashadi:

a) bir tersiyali major-minorda I, IV va V balandlantirilgan pog'onalarda tuzilgan minor uchtovushliklari va ularning parallel major uchtovushliklari (№ 182):



b) bir tersiyali minor-majorda – bu I, IV va V – pasaytirilgan pog'onalarda tuzilgan major uchtovushliklari va ularning parallel minor uchtovushliklari (№ 183):



I, IV va V – o'zgargan pog'onalarda tuzilganakkordlar, diatonikakkordlarga o'xshab, T, S va D funksiyalariga egadir. Masalan bir tersiyali Do major-minorda ikkita T, ikkita S va ikkita D qo'llanishi mumkin.

Ladda oltita asosiy uchtovushlik mavjudligi butunlay yangi va o'ziga xos garmonik yo'nalishlar tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Keltirilgan misolda bir tersiyali tonikalar (mi b minor va Re major) bevosita taqqoslangandir (№ 184):

184. *Andantino*

A. Borodin. "Knyaz Igor". I.

*mf*

$I_6$

$I_6^{bt}$

D. Kabalevskiyning "Vals ohanglarida" asarida avtentik aylanishning o'ziga xosligi shundan iboratki, tonikadan keyin oddiy dominanta qatorida bir tersiyali dominanta kiritilgan (№ 185):

## 185.

D. Kabalevskiy. "Vals ohanglarida".

*Allegretto contabile*

*p*

V      I


S. Prokofyev "Gavoti"ning garmoniyasini esa bir tersiyali tizim qo'llanishining mumtoz namunasi deb hisoblash mumkin. "Gavot"ning birinchi davriyasida fa# minorakkordlari qatorida bir tersiyali Fa majorakkordlari nihoyatda ta'sirchan ishlatalgan. Fa# minorning tonikasi bir tersiyali dominanta (1, 5, 7 taktlar) va subdominantalar (3, 4 taktlar) bilan navbatlashadi. Diatonik dominanta davriyaning faqat pirovardidagina yakunlovchi tonika oldidan paydo bo'ladi (№ 186):

186. *Allegro non troppo*

S. Prokofyev. "Gavot".

*pp*

I                  V<sup>bt</sup>                  I                  IV<sup>bt</sup>                  I                  IV<sup>bt</sup>



## 8. MAJOR-MINOR TIZIMLAR VA TONALLIK REJALARI

Musiqa shaklining tonallik rejasi tuzilishi jarayonida, major-minor aloqalari diatonik aloqalar bilan birga qo'llaniladi yoki ularning o'mini bosadi.

Badiiy tajribada aynan major-minorakkordlariga o'g'i s h m a l a r nihoyatda keng tarqalgan. Bunday og'ishmalarning bajarilishi oddiy diatonik og'ishmalardan farqlanmaydi. Major-minor tonikaga olib keladigan noturg'unakkordlar sifatida D, D<sub>7</sub>, VII<sub>7</sub> (aylanmalari bilan), subdominanta guruhidan esa II<sub>7</sub> (aylanmalari bilan) qo'llaniladi.

M o d u l y a t s i y a v i y jarayonni tashkil etuvchi tonalliklar doirasini major-minor tizimi sezilarli darajada kengaytiradi. Masalan, davriyaga xos bo'lgan dominanta tonalligiga modulyatsiya, major-minor sharoitida III<sup>p</sup> pog'ona tonalligiga modulyatsiya tarzida amalga oshirilishi mumkin (№ 187):

187.

F. Shubert. "Vals", insho 9a, № 15.

Ikkinchisida esa, davriya III<sup>maj</sup>. uchtovushligida tugallanadi (Fis – B) (№ 188):

188.

A. Skryabin.  
Sonata №4.

Andante

Major-minor tizimlari shaklning katta bo'linmalarida tonal aloqalarini uyshtirishi mumkin: sonata allegrosida bosh va yordamchi partiya, rondo shaklida – refren va lavha, sonata turkumining o'zga qismlari va hokazo.

Ayniqsa aniq bu hodisa bosh va yordamchi partiyalar tonal munosabatlarda yorqin namoyon bo'ladi.

Btxovvenning 21-fortepiano sonatasi ekspozitsiyasida bosh partiya Do majorda, yordamchisi esa-Mi majorda yozilgan.

D. Shostakovichning 1-kvintetining birinchi qismida ushbu partiyalar Do major va Mi ♭ major holatida kelgan.

Umuman, XVIII asrdan barcha major-minor turlari (nomdosh, parallel, bir tersiyali tizimlar)ning vositalari tonal rivojining boyitish maqsadida tobora xilma-xil va muntazam ravishda kompozitorlar ijodida qo'llanila boshlandi.

S. Raxmaninovning "Paganini mavzusiga rapsodiya"sidagi 23-variatsiyasi o'ta ta'sirchanlik, yorqin lya ♭ minor – lya minor – Lya ♭ major tonalliklar munosabatlariiga asoslangan.

## 9. MAJOR-MINOR TIZIMINING IFODALI IMKONIYATLARI

Major-minor tizimining shakllanishi va rivoji garmoniyada koloristik vositalardan faol foydalanish jaryoni bilan bog'langan. Agar nomdosh va parallel tizimlarning vujudga kelishi musiqada bir necha asr mobaynida yuz bergen bo'lsa, bir tersiyali tizim faqat XIX asrning ikkinchi choragidan q'llanila boshlandi.

Nomdosh tizim eng kuchli koloristik imkoniyatlarga ega. Chunki, parallel tizimga qaraganda nomdosh tizim asosida ancha uzoq masofadagi major va minor tonalliklari birlashtiriladi va natijada, tovushqatorga sezilarli o'zgarishlar kiritiladi. Nomdosh tonalliklar yokiakkordlar qiyoslanishining kuchli taassuroti quyidagicha asoslanadi: tonal markazi o'zgarmas, umumiy holda saqlanib, major yoki minor ladlarini yaqqol ta'riflaydigan tovush – t e r s i ya, o'zgaradi.

Bir tersiyali tizimning koloristik xususiyatining mohiyati murakkabroq. Bu holda tizim uzoq tonalliklarning qo'shilishi natijasida sodir bo'ladi. Nomdosh tizimga ko'ra, bir tersiyali tonalliklar yokiakkordlar qiyoslanganida, ladni ta'riflovchi tersiya tovushi o'zgarmaydi, biroq tonallik yokiakkordning ladi o'zgaradi.

Major va minor birlashtirilishining ifodali effektlaridan biri, bu asosiy lad xususiyatlarining kuchayishidir. Xususan, majorga xos bo'lgan shodiyona, qvonchli qiyofalar major-minorakkordlarining yangrashi natijasida yanada kuchayadi. Chunki, nomdosh va parallel tizimlar maxsusakkordlarining barchasi major uchtovushliklaridir (VII<sup>p</sup>, III<sup>p</sup>, VI<sup>p</sup> va III<sup>maj.</sup>).

Keltirilgan parchaning tantanali, mahoratl xarakterini yaratishda major-minor vositalarining ahamiyati katta. Asosiy tonallik Do major III<sup>p</sup> va III<sup>maj.</sup> uchtovushliklar bilan boyitilgan. Garmoniya asosida faqat uchtovushliklar izchilligi bo'lib, uchinchi pog'onada tuzilgan uchtovushliklar variantlari (III<sup>p</sup>, III<sup>maj.</sup>) ta'sir qoldiradigan ravishda qiyoslangan (№ 189):

189.

Maestoso

A. Skryabin.  
Simf. №2, V.

The musical score for piano by A. Skryabin, Simf. №2, V. The score consists of two staves. The top staff is in treble clef (C) and the bottom staff is in bass clef (C). The music is in common time. The progression of chords is indicated below the notes: I, V, III<sup>p</sup>, V, I, V, III<sup>maj.</sup>, V. The score shows a series of eighth-note chords followed by sustained notes.

Minorda esa major-minor vositalari minorga xos qayg'uli, g'amgin kayfiyatlarni chuqurlashtiradi. F. Shubertning "Boshpana" qo'shig'ining fojiali avji nihoyatda kuchli ta'sirchanligi – garmoniyada tonikadan keyin VI minor uchtovushligining uzoq davomli sadolari bilan bog'liq (№ 168 misolga qarang).

## VI B O B

### TABIYI LADLAR GARMONIYASI

#### 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

XIX asrdagi yangi ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar turli mamlakatlarda o'z iste'dodini milliy kompozitorlik maktabini shakllantirishga bag'ishlagan bir guruh ijodkorlarni yetishtirib chiqardi. Ularning nomlari bilan umuman garmonik ko'p ovozlik rivojlanishini boyitgan ulug' kashfiyotlar, yorqin topilmalar bog'liq. Ushbu jarayonga har biri o'z o'mida – F. Shopen, M. I. Glinka, N.A. Rimskiy-Korsakov, A. P. Borodin, M. P. Musogorskiy, E. Grig kabi kompozitorlar karvonboshilik qilishgan.

Rus, polyak, chex, vengr, norveg va boshqa millatlarning xalq musiqasi tabiiy ladlar negizida asoslangan. Milliy kompozitorlik musiqasining namoyon bo'lishi uchun mazkur ladrarga asoslangan kuylar bilan mos bo'ladigan garmonik vositalarning qonuniyatlarini izlab topish o'sha davming dolzorb muammolaridan biri edi. Ushbu murakkab masalani ijobiy hal etishda har bir milliy musiqa maktabi uzoq izlanish yo'llini bosib o'tgan.

O'zbekistonda esa, bunday jarayon boshqa Sharq mamlakatlar qatori, XX asrning birinchi yarmidagina boshlangan. Unda dastlabki avlod kompozitorlari V. A. Uspenskiy, A. F. Kozlovskiy, G. A. Mushel, M. M. Burhonov, M. A. Ashrafiy va boshqa ijodkorlarning xizmatlari katta.

#### 1.1. Tabiiy ladlar

Tabiiy ladlar guruhibi – ioniy, doriy, frigiy, lidiy, miksolidiy, eoliy va lokriy ladlari tashkil qiladi.

Ushbu ladrarni kuyidagicha tasniflash mumkin:<sup>1</sup>

1) tabiiy ladlar bir tovushqatori pog'onalarida tuzilib, bularda faqat tayanch tovush o'zgaradi. Ushbu holda ladlar "bir tarkibli" deb nomlanadi (№ 190):

190. ioniy ladi

doriy ladi

<sup>1</sup> Ushbu ladlar maxsus adabiyot va darsliklarda cherkov, o'rta asrlar, ayrim diatonik, xalq. modal ladlar nomlariga ham ega.

frigiy ladi                      lidiy ladi

miksolidiy ladi                coliy ladi

lokriy ladi

2) tabiiy ladlar bir tovushdan tuziladilar (masalan, "do" tovushidan) va "nomdosh" deyiladilar (№191):

191.      eoliy ladi                      doriy ladi                      frigiy ladi

dor. 6.                                      fr. 2.

ioniy ladi                      miksolidiy ladi                      lidiy ladi

miks. 7.                                      lid. 4.

Keltirilgan ladlar tizimlanishi avvalambor xalq musiqasiga mos lad va funksiyalar o'zgaruvchanligi bilan bog'liqdir.

## 2. TERSIYA BO'YICHA TUZILGAN AKKORDLAR

### 2.1. Akkordlarning tuzilishi

Tabiiy ladlar garmoniyasi ikki xil tuzilmaga, ya'ni *tersiya* bo'yicha tuzilgan va *notersiyali* akkordlarga tayanadi.

Dastlab shakllangan t e r s i y a v i y tabiiy lad garmoniyasi mumtoz major-minor tizimi ta'siriga duchor bo'lganligi natijasida yuzaga kelgan. Shuning uchun tabiiy ladlar garmoniyasi asosini quyidagi qonunlar tashkil qildi:

Tersiya bo'yicha tuzilgan akkord normativ birlik sifatida belgilanadi.

Asosiy akkord *uchtovushlik*. Septakkord va nonakkordlarning qo'llanishi cheklangan, chunki tabiiy ladlarning o'ziga xosligi aynan konsonanslar izchilligida ta'sirchan namoyon bo'ladi.

Akkordlar qo'llanishida bir necha o'ziga xos usullar bor. *Kvartsekstakkordlar*, uchtovushlik va sekstakkordlarga o'xshab erkin yuritiladi (№192):

N. Zokirov. "Kichik syuita".

192. [Vazmin]

To 'liqsizakkordlarning kvintasi emas, balki *tersiyasi* tushirib qoldirilgan ko'rinishi keng tarqaladi (№ 193):

193. Allegro moderato > D. Zokirov. "Kamalagim"

Ovoz yo'nalishida kuychanlikka katta urg'u berilganligi tufayli,akkord tovushlarining erkin juftlanishiga yo'l qo'yiladi (№ 194):

194.

Allegro moderato

S. Yudakov. "Gulla Mirzacho'l"

## **2.2. Funksional aloqalar**

Tabiiy ladlar garmoniyasidaakkordlar va tonalliklar munosabati o'zarot funksional aloqalarga asoslanadi.

Mazkur funksionallikning ta’rifi va aloqalari bir necha o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lganligi tufayli, ularni major-minor tizimining qoidalari bilan solishtirib ko’rib chiqamiz.

Major-minor garmoniyasiga o'xshab tabiiy ladlar garmoniyasida ham uch asosiy funksiya mavjud – T, S, D.

Ma'lumki, major-minor tizmida *dominanta* – major uchtovushligi bo'lib, yetakchi ton va basning tonikaga intilishi bilan tizimning eng noturq'un funksiyasini ifodalaydi.

Tabiiy ladlar garmoniyasida esa *dominanta* – ko'pincha minor uchtovushligidir. Ya'ni tonikaning asosiy toniga nisbatan yarim tonlik tortilishga ega emas. Shuning uchun bunda avtentik izchillik – d-T ning kuchi, major-minorga qaraganda ancha zaiflashib, *tonikaning* markazlashtirishi va umuman turg'unlik xususiyatlari pasayadi.

*Subdominanta* major-minor tizimida dominanta singari noturg‘unlik sohasini namoyon qiladi. Lekin uning noturg‘unligi butunlar boshqa qoidalan asosida yuzaga keladi. Dominanta tonika bilan bog‘lanib, shu funksiyaga tortilsa, aksinchalik subdominanta o‘xshash holatda mustaqillikka intiladi. Buning tonika va subdominanta o‘rtasida sodir bo‘lgan qarama-qarshilik dominanta paydo bo‘lishi bilan yechiladi.

Tabiiy ladlar garmoniyasiga xos funksional aloqalar *subdominantani* tonikaga tortilishi kuchayishi bilan ajralib turadi. Tonika va dominantal funkisiyalari bo'shligi vaziyatida subdominanta muhim ahamiyatga molik bo'lib, plagal aloqalar keng tarqaladi.

Natijada, agar major-minor tizimida asosiy funksiyalar aloqalari aniqlanadi va kuchli ifodasini topgan bo'lsa, tabiiy ladlar garmoniyasida ushbu funksiyalar aloqalari birmuncha zaifdir. Major-minorga qat'iy funksionalizchillik xos bo'lsa — T-S-D-T, tabiiy ladlar garmoniyasida funksionalizchilligiga kombinatsion boylik va erkinlik xosdir — T-d-S-T, T-S-T, T-VII-d-S-T. Shuning uchun, subdominanta — dominanta qurshovida, dominanta — subdominanta qurshovida va h. qo'llanishi tabiiydir (№ 195):

## 2.3. Yondoshakkordlar

Tabiiy ladlar garmoniyasida asosiyakkordlar (I, IV, V) qatorida, yondoshakkordlar (II, III, VI, VII) keng qo'llanadi. Ularning ahamiyati shunchalik kuchliki, major-minorga o'xshabakkordlarni asosiy va yondosh guruhlarga bo'lish ko'pincha o'z mazmunini yo'qotadi. Foydalanadiganakkordlarning doirasi kengayishi ularning bir-biri bilan bo'ladigan munosabat shaklarini boyitadi. Kvarta-kvintaga asoslanganakkordlarning nisbatlari qatorida *tersiya* va *sekunda* nisbatlari katta joy egallaydi (№ 196):

196.

Moderato

N. Rimskiy-Korsakov. "Sadko".

## 2.4. O'zgaruvchanlik

Tabiiy ladlarda asoslangan kuylar ko'pincha lad-tonallik tomonidan xilma-xil izohlarga yo'l ochadi. Sodir bo'lgan o'zgaruvchanlik ladlarda yetakchi ton bo'lmasisligi, ladlarning barcha turlari bir tovushqatorga (birtarkiblikka) asoslanishi ehtimoli bilan bog'liqidir.

Masalan, "birtarkiblik" sharoitidaakkordlarning to'liq umumiyligi ma'lum bo'ladi (№ 197):

197.

**do ioniy**

T S D T S D T S D T S D T S D  
I II III IV V VI VII I II III IV V VI

**re doriy**

T S D T S D T S D T S D T S D  
I II III IV V VI VII I II III IV V VI

**mi frigiy**

T S D T S D T S D T S D T S D  
VI VII I II III IV V VI VII I II III IV

**fa lidiy**

T S D T S D T S D T S D T S D  
V VI VII I II III IV V VI VII I II III IV

**sol miksolidiy**

S D T S D T S D T S D T S D  
IV V VI VII I II III

**ly a eoliy**

ly a eoliy

S D T S D T S D T S D T S D  
III IV V VI VII I II

Bunday holakkordlarni barcha lad-tonalliklarga yengil o'tishiga yo'l ochib, o'zgaruvchan funksional aylanishlarni tashkil qiladi. Masalan, o'zgaruvchanlik parallel eoliy va ioniy ladlar o'rtasida paydo bo'lishi tabiiydir (№ 198):

198.

**do ioniy**

do ioniy

ly a eoliy

Shu qator o'zgaruvchanlikning yuzaga kelishi tonikani markazlash funksiyasi zaiflashuvi, markazdan chetda joylashgan yondoshakkordlarning keng qo'llanishi va ularning ichki aloqalarining faollashuvi bilan ham bog'liqidir. Bunday vaziyat major va minor uchtovushliklari tonika sifatida izohlanishiga sharoit tug'diradi. Masalan, miksolidiy ladida tonika sifatida II, IV va VII pog'onalarda tuzilgan uchtovushliklar qo'llanishi mumkin. Ushbuakkordlarning dominantalari VI, I va IV pog'onalarda joylashadi. Keltirilgan misolda do miksolidiy va fa ioniy ladlarakkordlarining to'la umumiyligini, va shuakkordlarni funksional aloqalari o'zgaruvchanlikni vujudga kelishi ehtimolini ko'rsatadi. Akkordlarni tonikaviy xususiyatlari katta darajada metro-ritm sharoitlariga, akkordni qayta takrorlanishiga ham qaram bo'ladi. (№ 199):

199.

do miksolidiy



Quyidagi misol parallel ladlar (mi ioniy – do ♯ eoliy) o‘zgaruvchanligiga namunadir (№ 200):

200.

Tempo di

M. Burhonov. "Bahor qo'shig'i".

## 2.5. Eoliy ladi (tabiiy minor)

Eoliy ladiakkordlari jaranglashining o‘ziga xosligi VII tabiiy pog‘ona bilan bog‘liqdir. Shuning uchun VII pog‘onani o‘z tarkibiga kiritadigan dominanta akkordlari guruhi bu lad uchun xarakterli degan ta’rifga ega.

Lekin eoliy ladida yetakchi ton yoqligi dominanta guruhi akkordlarining funksional tortilishlarini bo‘sashshtiradi. Bunday sharoitda subdominantaga guruhi akkordlarining e’tibori oshib, tonika, markaz sifatida, ushbu akkordlar orqali tasdiqlanadi. Shu sababli eoliy ladida plagal kadensiyalarining ahamiyati katta (№ 201):

201. lya eoliy

xarakterliakkordlar

VII      V      III

tarqalgan aylanmalar

III I      VII I      V I      VII I      IV<sub>6</sub> I      IV<sub>6</sub> I

Allegro

G'. Qodirov. "Bahtiyor".

## 2.6. Doriy ladi

Doriy ladiga xos xarakterliakkordlar "doriy sekstani" o'z tarkibiga kiritishi bilan shakllanadi. Bu subdominanta guruhini tashkil qiladigan major S, II pog'onada joylashgan minor uchtovushligi va septakkordi. Shuning uchun doriy ladining mohiyatini plagal aylanmalar, xususan S-t belgilaydi (N202):

202. lya doriy

xarakterliakkordlar

IV      II      II<sub>7</sub>

**tarqalgan izchilliklar**

A musical score for piano in G major. The left hand plays a sustained bass note. The right hand plays chords. The harmonic progression is indicated below the staff: IV, I, II, I, II<sub>2</sub>, I, IV<sub>6</sub>, V<sub>6</sub>, I.

A. Kozlovskiy, "Ulug'bek"

**Allegro risoluto**

A musical score for piano in G major, 6/8 time. The left hand provides harmonic support with sustained notes and chords. The right hand plays melodic lines. Dynamics include *sforzando* (sf) and *pianissimo* (p). Measure 1 starts with a forte dynamic. Measure 2 begins with a piano dynamic. Measure 3 ends with a fermata over the first note of the measure.

### 2.7. Frigiy ladi

Ushbu ladning II pasaytirilgan pog'onasi tonikadan kichik sekunda oralig'ida joylashgan bo'lib, "frigiy sekunda"deb nomlanadi. Frigiya toni bilan tuziladigan akkordlar II major uchtovushligi va septakkordi, VII pog'onaning minor uchtovushligi o'zining jozibali yangrashi bilan diqqatni jalb etadi.

Frigiya ladida ham doriy ladiga o'xshab subdominanta funksiyasining ahamiyati ajralib turadi. Shu qator VII uchtovushligi ham yetakchi toni yo'qligi tufayli ko'proq subdominanta sifatida namoyon bo'ladi (№ 203):

## 203. Ilya frigiy

xarakterliakkordlar

The musical score consists of two staves. The top staff shows a treble clef and a bass clef. The harmonic progression is indicated below the staff: II, II<sub>7</sub>, VII, V<sub>6</sub>. The bottom staff shows a bass clef and a treble clef. The harmonic progression is indicated below the staff: VII<sub>6</sub>, I, II<sub>6</sub>, I, I, VI, VII, I, I, II<sub>6</sub>, I, VII<sub>6</sub>, I. The title "tarqalgan izchilliliklar" is centered between the two staves.

Moderato espressivo

S. Boboyev. "Qalb"

The musical score consists of three staves. The first staff has a treble clef and a key signature of one flat. The second staff has a treble clef and a key signature of one flat. The third staff has a treble clef and a key signature of one flat. The tempo is indicated as "Moderato espressivo". The title "S. Boboyev. 'Qalb'" is to the right of the score. Dynamics include "men", "mp", "p", "pp", and "Or - tiq".

## 2.8. Ioniy ladi

Ushbu ladning tovushqatori major tovushqatori bilan bir xil. Lekin tabiiy ladlarga xos garmonik qonunlar ushbu ladning qo'llanishida aniq kuzatiladilar. Xususan, subdominanta guruhiningakkordlarini va yondoshakkordlarining e'tibori kuchayganligi, tersiya va sekunda nisbatlarining ahamiyatligi (№ 204):

## 204.

do ioniy

The musical score consists of a single staff with a treble clef. The notes are: E, G, B, D, F, A, C, E.

**tarqalgan izchilliliklar**

II VI I I II III I I IV<sub>6</sub> I

P. Chaykovsky. "Oprichnik"

**Allegro moderato**

*f* Сла вен, славен как солнце красный день  
*f* Сла вен, славен как солнце красный день

**2.9. Miksolidiy ladi**

Ushbu lad major ladicidan VII pasaygan pog'ona bilan farqlanib, dominanta guruhiakkordlari bilan namoyon bo'ladi. Bu minor dominanta, VII pog'onada joylashgan major uchtovushligi va ularning septakkordlari. III pog'onaakkordi kamaytirilgan uchtovushligi tufayli kam qo'llanadi (№ 205):

**205.**

**do miksolidiy**

**xarakterliakkordlar**

V V<sub>7</sub> VII VII<sub>7</sub>

**tarqalgan izchilliklarlar**

V      I      VII      I      I      V      VII      I      V<sub>2</sub>      I<sub>6</sub>      II      I

Quyidagi misolda sol ioniy va sol miksolidiy ladlarni o'zgaruvchanligi kuzatiladi (№ 206):

206. **Maestoso**

Y.u. Rajabiy, G. Mushel. "Farhod va Shirin"

### 2.10. Lidiy ladi

Ushbu lad boshqa tabiiy ladlarga ko'ra kam qo'llanishi bilan ajralib turadi. Asosan polyak va norveg xalq musiqasiga taaluqli bo'lgan bu ladning o'ziga xosligi "lidiy kvarta" va tonika tonlari o'rtaida sodir bo'lgan triton bilan bog'liq. Ladning xarakterliakkordlari "lidiy kvarta" bilan shakllanadilar (№ 207):

207.

do lidiy

xarakterli akkordlar

II      VII

**tarqalgan izchilliklar**

A musical score for two voices (treble and bass) on four-line staves. The key signature changes between G major (two sharps) and C major (no sharps or flats). The progression is marked with Roman numerals: II, I, VII<sub>6</sub>, and I. The bass line consists of sustained notes, while the treble line has more active melodic movement.

**Alla polacca, non troppo allegro**

**M. Musorgskiy. "Boris Godunov"**

A musical score for piano (two staves) and orchestra (two staves). The piano part is in 3/4 time, with dynamic markings 'sf' (sforzando) and 'sfz' (sforzando decrescendo). The vocal parts are in 2/4 time. The vocal parts enter at the end of the first system, indicated by a vertical bar line and a repeat sign. The vocal parts consist of sustained notes, while the piano and orchestra provide harmonic and rhythmic support.

### 2.11. Shakllanish xususiyatlari

Tabiiy ladlar garmoniyasi negizligida badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratilgan va yaratilib kelinyapti. Ya’ni ushbu tizim mustaqil tarzda tasdiqlanadi. Lekin unga xos bo’lgan funksional aloqalar kuchi bo’shligi shakl yaratish xususiyatlarini ham zaiflashtirishiga olib keladi. Shu sababdan ko’p paytlarda, ayniqsa davomi katta asarlarda, tabiiy ladlar garmoniyasi vositalari doirasiga major-minorning kuchli shakllantiruvchi vositalari qo’shiladi (№ 208):

Moderato

### 3. TERSIYASIZ TARKIBDAGI AKKORDLAR

Tabiiy ladlar garmoniyasining namoyon etilishini ikkinchi yo'nalishi – notersiyali (tersiya bo'yicha tuzilmagan) akkordlarga tayanadi. Bu yo'nalish

XX asrda B. Bartok, I. Stravinskiy, M. Musorgskiy, O. Messian kabi kompozitorlar ijodida shakllangan. Ushbu yangi yo'nalish lad-ohang tizimi xususiyatiga asoslanib, og'zaki musiqa tabiatini aks ettiradi.

O'zbekistonda bunga o'xshash badiiy kashfiyotlar o'zbek xalq kuylarini qayta ishlash jarayonida V. Uspenskiy tomonidan birinchi bo'lib joriy etilib, keyinchalik bu oqim F. Yanov-Yanovskiy, M. Tojiyev, M. Mahmudov, T. Qurbonov, D. Saydaminova, N. Zokirov va boshqalar asarlarida rivojlangan.

#### 3.1. Akkordlar tuzilishi

Akkord tuzilishi kuyning asosiy ohanglariga, ladning tayanch tovushlariga qaramdir. Tabiiy ladlarning ko'p turlarida tayanch tonlari kvarta va kvinta negizligida uyg'unlashadi, ammo ushbu ladlarda sekunda aloqalari ham mavjud. Bu kuya xos bir necha intervallarni ahamiyatligi akkordlarni ko'p ko'rinishda shakllanishini belgilaydi. Shu qator akkordlar tuzilishining meyorlariga xalq cholg'u musiqligi, ayniqsa xalq cholg'ulari sozlanishi ham ta'sir etgan. Natijada tabiiy ladlar garmoniyasiga xos ikkinchi oqimida monointervalli (kvartakkordlar, kvintakkordlar, sekundakkordlar) va poliintervalli akkordlar tashkil topadilar.

Mazkur akkordlar quyidagi xususiyatlarga ega: fonizm va katta koloristik imkoniyatlar, ladning major yoki minor xislatlariga neytrallik, akkordlarning ichki yaxlitlik darajasi bo'shligi. Oxirgi sifat ko'p tovushli

akkordlarni qatlamlarga bo'linishiga imkoniyat tug'diradi.

V. Saparovning: "Nay va dutor" asarida ikki tovushli kvart va kvintakkordlar dutorga xos sozlanishni aks ettiradilar (№ 209):

209.

O'rtacha

V. Saparov. "Nay va dutor"

Quyidagi misolda besh tovushdan iborat kvartakkordlarni izchilligi registr orqali ikki qatlamga bo'lingan (№ 210):

210.

O'rtacha

E. Qalandarov. "Nuroniy hikoyasi"

### 3.2. Funksional aloqalar

Tabiiy ladlar garmoniyasining bu oqimida uch tovushdan tashkil topganakkord har doim *dissonans* bo'lishi tabiiy hol (№ 211):

211.

Mavjud turli ohangdoshliklar qatorida faqat ikki tovushli vertikal – kvarta yoki kvinta konsonansni tashkil qiladi. Binobarin, *turg'unlik* sohasini, xususan tonika funksiyasini konsonans ham, dissonans ham orqali ifodalanishiga yo'l qo'yiladi. Bunday holat ladning markazini (tonikani) barpo etilishida qiyinchiliklarni tug'diradi, qaysiki qisman metro-ritm vositalari orqali bataraf qilinishi mumkin.

A. Nabihev "Tanovar" kuyini qayta ishlashida tonika sifatida ikki tovushdan iborat kvintakkordni ishlatgan (№ 212):

212.

A.Nabihev. "Tanovar"

D. Saydaminova asarining oxirgi taktlarida tonika sifatida qo'llangan sekundakkord kуuning tovushlarini vertikalga jamlanishi bilan tashkil topgan (№ 213):

213.

D. Saydaminova. "Qadimiy Buxoro devorlari".  
"Ajodolar ruhi".

*Noturg'unlik* sohasi ichki guruhlarga bo'linmaydi. Ya'ni, S va D guruhlari tashkil topmaydi. Akkordlar bir-biridan faqat fonizm va dissonanslik darajasi bilan ajralib turadi.

Noturg'unlik sohasini bir turliligi garmoniya rivojlanishi ikki funksiya – turg'unlik va noturg'unlik almashuviga tayanishiga olib keladi.

### 3.3. Shakllanish xususiyatlari

Ladning markazi, ya'ni turg'un funksiyasining kuchi susayishi, ko'p pog'onali funksionali aloqalarning yo'qligi bu garmonik tizimni shakllash xususiyatlarini pasaytiradi. Bunday sharoit asarning yaxlitligini tashkil qiladigan vositalarni joriy etish muhim vazifaga aylanadi. Ushbu vazifani yechish yo'llari ichida quyidagilar eng ko'p tarqalgandir.

I. Asarda garmoniya rivoji bir xil yoki bir loyiha bo'yicha tuzilgan akkordlarda asoslanadi.

N. Zokirovning "Ruboiy" asarining garmoniyasi bir kvartakkording asta-sekin ikki tovushli ko'rinishidan to oltitovushlikkacha o'sishi negizida barpo etiladi. (№ 214):

214.

**Andante** *p sempre legato*

N. Zokirov. "Ruboiy IV"

Yer - ga      a - ra - la - shib      yo - tar   ne - cha      dil  
ja - hon      zar - ra      la      ri      lab,      tish      yo - ki      til

II. Asarda turli tuzilganakkordlar qo'llangan holda yaxlitlik eng ko'p qaytariladiganakkord, ya'ni "garmonik konstanta" (Yu. Xolopov) orqali amalga oshiriladi. Konstanta sifatida ko'pincha organ punkti ishlatalishi tabiiydir.

N. Zokirov "Fantaziya" asarining yakunlov qismi birligi, "konstanta" vazifasini bajaradigan, figurasiyalı organ punkti yordamida tashkil topadi. (№ 215):

215.

*Allegro*

N. Zokirov. "Fantaziya"

Ko'rib chiqilgan tabiiy ladlar garmoniyasining har ikkala — ya'ni *tersiyaviy* va *notersiyaviy* turlari bir-biridan farqlanib, o'ziga xos kuchli va kuchsiz jihatlarga egadir. Birinchisi, major-minor tizimi negizida shakllanib, ushbu tizimning vositalarini qisman o'zgartirgan holda ham, umuman XIX asr kompozitorlari musiqasi qoidalari doirasida qolgan. Ikkinchisi esa, butunlay kuy tuzilishiga qaram bo'lganligidan tashkil topib, asosan XX asrga xos yangi garmonik usul yuzaga kelishiga zamin bo'lgan.

**O. Azimova  
M. Ro'zmetova**

**L U G‘ A T**

Lug'at professional musiqachilar, musiqiy o'quv maskanlarining o'qituvchi va o'quvchilari, talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, 185 ta tushuncha, atamalar va garmoniyaning asosiy qoidalarini o'z ichiga oladi. Lug'atdagi tushunchalaming asosiy qismini klassik va zamonaviy garmoniyada qo'llaniladigan tushunchalar tashkil etadi.

Atama va tushunchalar alfavit bo'yicha joylashtirilgan. Ularning ko'p qismiga nota misollari berib o'tilgan. Ba'zi tushunchalarga kompozitorlar asarlaridan parchalar, ba'zilariga esa sxematik tarzda nota misollari keltirib o'tilgan.

Tushunchalarning yoritilishi quyidagi rejaga asoslanadi:

- 1) qaysi tildan kelib chiqishi (*ingl., lot., yunon.* va h.)
- 2) tarjimasi
- 3) ta'rifi
- 4) tarixiy nuqtai nazari
- 5) nazariy qonun-qoidalari.

Barcha tushunchalar va atamalar haqida yanada chuqurroq ma'lumot olishni istagan o'quvchi uchun adabiyotlar ro'yxati alfavit bo'yicha joylashtirilgan. Har bir tushunchaning yakunida adabiyotlar raqamlangan tartibda kiritilgan.

**AKKORD** (*ital. accordo, frans. accord, qadimgi lotin tilida – accordare – kelishilgan, uyg'unlashgan*) musiqada tovushlarning bir vaqtda uyg'un yangrashi.

Yevropa klassik va romantik musiqasidaakkordlar tizimi quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

Akkord – kamida uch tovushdan iborat bo'lib, har bir tovushi o'zaro tersiya bo'yicha joylashgan ohangdoshdir.

Akkordlar tarkibidagi tovushlar miqdoriga qarab bir-biridan farqlanadi va nomlanadi:

1. Uchtovushlik (3 ta tovushdan iborat)
2. Septakkord (4 ta tovushdan iborat)
3. Nonakkord (5 ta tovushdan iborat)
4. Undetsimakkord (6 ta tovushdan iborat)

Akkordning pastki tovushi a s o s i y t o n, qolganlari asosiy ton orasida hosil bo'lgan interval nomi bilan ataladi (t e r s i y a, k v i n t a, s e p t i m a, n o n a, u n d e t s i m a).

Agar asosiy ton yuqoriga yoki o'rta ovozlarning biriga o'tsa, u holda akkord aylanmasi vujudga keladi.

Akkord zich hamda keng joylashuvga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, aralash joylashuv ham uchraydi, unda keng va zich joylashuv nishonlari kuzatiladi.

Bas va tenor ovozlari har qanday interval masofasida bo'lishi mumkin.

XX asr musiqasida dissonansli akkordlar, notersiyaviy ohangdoshlar mustaqil ravishda qo'llanila boshlandi. Shu sabab, akkord tushunchasining ma'no doirasi o'zgardi va kengaydi.

Akkord sifatida mantiqan differensiyalangan, yaxlit ohangdoshlik belgilandi.

Akkord zamonaviy musiqada ikki tovushdan ham iborat bo'lishi mumkinligi isbotlandi, tuzilish jihatdan (kvarta, kvinta, sekunda bo'yicha) erkinlikni qo'liga kiritdi.

Akkord yaxlit majmua sifatida hozirgi kunda uch taraflama o'rganiladi:

- 1) tonlarning kuy chizig'i;
- 2) tonal funksionallik–akkordning tonal markazga nisbatan bajarayotgan vazifasi;

3) akkordning fonizmi(yorqinligi) — interval, tarkibi, joylashuvi, registri bilan bog'liq bo'lgan ahamiyati.

Adabiyot: 1, 2, 10, 12, 21, 22, 23, 33, 36, 37, 46, 50, 54, 67, 71, 84, 91, 87, 88, 89, 94, 101.

**AKKORD AYLANMASI** har qanday akkord asosiy ko'rinishidan tashqari, aylanma ko'rinishida ham bayon etilishi mumkin. Agar akkordning pastki tovushida uning *tersiya*, *kvinta* yoki *septimasi* joylashgan bo'lsa, u holda akkord aylanmasi yuzaga keladi:

Uchtovushlikning birinchi aylanmasi — sekstakkord, ikkinchi aylanmasi — kvartsekstsakkord deb yuritiladi:

Uchtovushlik

septakkord  
1)  
2)

C dur

asosiy tovush  
T

tersiya  
T<sub>6</sub>

kvinta  
T<sub>64</sub>

Septakkordning birinchi aylanmasi — kvintsekstsakkord, ikkinchi aylanmasi — terskvartakkord, uchinchi aylanmasi — sekundakkord deb nomlanadi:

septakkord

uning aylanmalari

C dur

asosiy tovush  
II<sub>7</sub>

tersiya  
II<sub>65</sub>

kvinta  
II<sub>43</sub>

septima  
II<sub>2</sub>

Nonakkord ko'pincha asosiy ko'rinishda qo'llanilganligi tufayli, uning aylanmalari maxsus nom olmagan.

Adabiyot: 2, 28, 29, 50, 87, 88, 101.

**AKKORD JOYLASHUVI** — akkord zich hamda keng joylashishi mumkin. Zich joylashuv — yuqorigi uch ovoz bir-biridan sekunda tersiya yoki kvarta oralig'ida:

keng joylashuv — yuqorigi uch ovoz kvintadan septima oralig'igacha:

Bas yuqorigi uch ovoz bilan har qanday interval oralig'ida bo'lishi mumkin.  
Ovozlarning qaysi biri yuqorida joylashishiga qarabakkordlar quyidagi kuy  
(melodik) holatlarga ega bo'ladi:

asosiy ton holatida    tersiya toni holatida    kvinta toni holatida

Adabiyot: 27, 28, 65, 66, 87, 88.

**AKKORDLARNING GARMONIK QO'SHILISHIda umumiy tovush(lar)**  
doinm o'z o'mnida, ya'ni berilgan ovozda qoladi:

C dur

*Kvarta—kvintali, tersiya nisbatliakkordlar o'zaro garmonik qo'shilishi mumkin (Akkordlar nisbatiga qarang).*

Adabiyot: 2, 27, 28, 65, 66.

**AKKORDLARNING MELODIK QO'SHILISHIda tovushlar (umumiy tovushi bo'lsa ham) o'z o'mnida qolmaydi:**

*Kvarta—kvintali, tersiya nisbatliakkordlar o'zaro melodik qo'shilishi mumkin. Sekunda nisbatidagiakkordlar hamisha melodik tarzda qo'shiladi (Akkordlar nisbatiga qarang).*

Adabiyot: 2, 27, 28, 65, 66.

**AKKORDLAR NISBATI** –akkordlarning o'zaro munosabati, ularning asosiy toni hosil qilgan interval bilan belgilanadi:

*sekunda yoki septima* –akkordlar aro **sekunda** nisbatini:

*tersiya* yoki *seksta* –akkordlar aro *tersiya* nisbatini:



*kvarta* yoki *kvinta* –akkordlar aro *kvarta* – *kvinta* nisbatini hosil qiladi:



Adabiyot: 2, 84.

**AKKORDLI TIZIM** – yaxlitligi, monoritmligi bilan ta’riflanadi. Ko’pincha uning yuqorigi ovozi kuy chizig’ini olib boradi, ba’zida esa u basga ham topshirilishi mumkin. Akkordli tizimning eng oddiy ko’rinishi xoral janriga xos bo‘lib, xususan Bax ijodida kuzatiladi.

I. S. Bax. Xoral № 102

Musical score for piano and voice. The piano part (top staff) has a treble clef and a bass clef, with a key signature of one sharp. The vocal parts (bottom staff) have a soprano (G-clef) and an alto (C-clef), also with a key signature of one sharp. The score shows four measures of music.

Cholg’u musiqasida ham ana shunday xoral bayon etish usuli qo’llaniladi (Shuman – “O’smirlar uchun albom”, Xoral; Shopen – Noktyurn № 11).

Odatda cholg’u musiqasida akkordli tizim melodik figuratsiya, shuningdek, koloristik qatlamlanish bilan to’ldiriladi va murakkablashtiriladi. Akkordli tizimda kuyning ajralib chiqishi, ba’zan uni gomofon tizimiga yaqinlashtiradi (Gomofon tizimga qarang). Akkordli tizim uchun ritm va metr qonuniyatlarini nihoyat muhimdir. Ushbu tizimda yozilgan asarlar: Bax – “XTK” I-tom, prelyudiya № 7; Betxoven – Sonata № 23, II-qism; Wagner – “Tangeyzer” operasining uvertyurasi; Musorgskiy – “Ko’rgazmadan olingan suratlar”, Katakombi; Shubert – Kvartet № 6, II-qism.

Adabiyot: 86, 89.

**AKKORD TOVUSHI** – har qanday ohangdoshning barcha tovushlari akkord tovushi deb yuritiladi (*asosiy ton*, *tersiya*, *kvinta*, *septima*, *nona*, *undetsima* va b.).

Akkord tovushi garmonik yoki melodik figuratsiya sharoitida qo’llanishi mumkin.

XX asrdan boshlab kompozitorlar akkordning tersiyaviy tuzilmasidan

tashqari sekunda, kvarta, kvinta va boshqa intervallar bo'yicha tuzilganakkordlarga ham murojaat eta boshlashdi. Bundayakkordlarning tonlari ham akkordtovushlari sifatida belgilanadi.

Adabiyot: 50, 51.

**ALEATORIKA** (*lot. alea – suyag o'yin, tasodif*) – XX asr musiqasidagi oqim bo'lib, ijod va ijro jarayonida tasodifiylik tamoyilli muhim shakllantiruvchi omil vazifasini bajaradi. Aleatorika 1957 yili Fransiyada (P. Bulez), Olmoniyada (K. Shtokxauzen) deyarli bir vaqtida paydo bo'lgan va ma'lum ma'noda o'ta qat'iy qoidalarga asoslangan dodekafoniyaga qarshi yo'llangan. Musiqaga tasodifiylik elementlari turli usullar orqali kiritiladi. Xususan, musiqiy kompozitsiya – "qur'a tashlash", shaxmat o'yini tizimi asosida, raqamli usullar, nota qog'oziga siyoh tomchilarini sachratish, o'yin suyaklarini tashlash yordami bilan tuzilishi mumkin. Aleatorikaning o'zga uslublari ham mavjud – bu asar ijrosi jarayonidagi tasodifiylik belgilarini kiritish, ya'ni asarning alohida lavhalar o'rnini almashtirgan holda ijro etish, ijrochi ixtiyoriga qo'yib berish (K. Shtokxauzen, Klavierstuke, XI) va h.k. Aleatorikada bir necha orkestrlarning baravariga, oldindan kelishilmagan holda ijro etilishi ham qo'llaniladi (K. Shtokxauzen, "Guruuhlar"). Polyak kompozitori V. Lyutoslavskiy "Nazokatli aleatorika" turini joriy etgan.

Adabiyot: 30, 37, 45, 50, 100, 101.

**ALMASHUVCHI TONLAR** – deb tersiyaviy tuzilmaga ega bo'lgan,akkorddagi tushib qoldirilgan ton o'rniga kiritilgan tonga aytildi. Masalan:

- a) D<sub>7</sub><sup>6</sup> – kvinta toni o'rniga, seksta; b) VII<sub>3</sub><sup>4</sup> – tersiya toni o'rniga kvarta;
- c) II<sub>7</sub><sup>4</sup> – tersiya o'rniga kvarta; d) T<sup>6</sup> – kvinta o'rniga seksta.

The musical example shows four chords in C major (C dur) on a two-line staff. The chords are: a) D<sup>6</sup><sub>7</sub>, b) VII<sup>4</sup><sub>3</sub>, c) II<sup>4</sup><sub>7</sub>, and d) T<sup>6</sup>. The bass line consists of eighth notes, and the treble line consists of quarter notes.

Adabiyot: 2, 87, 88, 97.

**ALTERATSIYA** (*lot. alteratio-o'zgarish*) – tovushqator pog'onalarining pasayishi yoki ko'tarilishi. Alteratsiya xromatik noakkord tovushlardan (yordamchi va o'tkinchi) kelib chiqqan. Xromatik yordamchi va o'tkinchi tovushlar amaliyotda muayyan metroritmik sharoitlarda akkord va intervallar tarkibiga kira boshlagan. Vaqt o'tishi bilan ular – "alteratsiyalangan tovushlar" deb yuritila boshlandi. Alteratsiyaning quyidagi turlari mavjud:

*lad tarkibidagi alteratsiya* – ladotonallikda noturg'un tovushlarning pasayishi yoki ko'tarilishi natijasida turg'un tovushlarga intilib, yechillishi:

The musical example shows a progression of chords in C major (C dur). The bass line consists of eighth notes, and the treble line consists of quarter notes. The progression illustrates a change in chord structure (alteration).

*Modulyatsion alteratsiya* – turg‘un va noturg‘un tovushlarning pasayishi yoki ko‘tarilishi tusayli yangi tonal markazga intilib, yangi tonallik alomatlarini vujudga keltirishi:

a) turg‘un tovushning o‘zgarishi



b) noturg‘un tovushning o‘zgarishi



*Lad tarkibidagi alteratsiya.*

**Majorga xos alteratsiya**

C-dur

II      II      IV      VI

Majorni D guruhining alteratsiyasi

Majorni S guruhining alteratsiyasi

**Minorga xos alteratsiya**

c-moll

II      IV      IV

Minorni D guruhining alteratsiyasi

Minorni S guruhining alteratsiyasi

Adabiyot: 10, 27, 28, 53, 54, 75, 87, 88, 94.

**ANGEMITON TOVUSHQATOR** (*yunon.* ἄντεντικός – yo'q, ημι – yarim, τονος – ton) – yarim tonsiz tovushqator. Turli xil yarim tonsiz lad tuzilmalari angemiton tovushqatorlari sarasiga kiritiladi.

Angemiton tovushqatorining noto'liq, oligoton – uch, to'rt pog'ona, to'liq - besh pog'ona (pentatonika) turlari mavjud.

Angemiton tovushqatori xalq kuylarida keng tarqalgan (xitoy, boshqird va boshqalar).

Adabiyot: 50, 94, 101.

**ASOSIY TON** – har bir akkordning pastki tovushi *asosiy* ton deb nomlanadi va 1 raqami bilan belgilanadi. Asosiy ton – akkordning mantiqan muhim toni hisoblanib, uning nomi butun akkord majmuasining nomlanishini belgilaydi.

Adabiyot: 50, 67.

**ATONALLIK** (*yunon.* α – yo'q va tonallik) – atonallik–lad, garmonik bog'liqlarni, tonal markazini, shuningdek tonal funksiyalarni rad etadi. Atonallik tizimida yozilgan musiqiy asar lad hamda garmoniya mantiqiy bog'liqligini, tonlarning o'zaro tortilishini inkor etgan holda, maxsus tovushqator tizimini joriy etadi. Undagi barcha o'n ikki pog'onalarining o'zaro tenghuquqligi – atonal musiqasining eng muhim tamoyilidir.

XX asning boshlarida A.Shyonberg (1874-1951) va uning shogirdlari A. Berg va ayniqsa A. Vebern ijodida atonallik alohida yo'nalish bo'lib ajralib chiqadi. A.Shyonberning ilk atonal asarlari sirasiga – fortepiano uchun uchta pyesa op.11; "Kutmoq" monodramasi; "Baxtli qo'l" operasi; "Oymomoli Pyero" mclodramasi kiradi.

Atonallikning quyidagi turlari mavjud:

1) **erkin atonallik** – seriya kompozitsiyalaridan ilgari yaratilgan bo'lib, yo'nalishning dastlabki ko'rinishi;

2) **dodekafoniya, seriallik** – o'n ikki tonli tizim;

3) **serializm** va "**erkin**" o'n ikki tonli tizim – yuqoridagi ikki punktning alomatlarini o'z ichiga kiritadi.

Adabiyot: 17, 23, 24, 30, 37, 45, 46, 50, 73, 100, 101.

**AVANGARDIZM** (*frans.* avant – gardizme, avangarde-ilg'or guruhi) – zamonaviy san'atdagi turli oqimlarning shartli nomlanishi. Realistik san'at an'analaridan uzoqlashish, yangi ifoda vositalari hamda shakllarni izchil izlash bilan tavslanadi. "Avangardizm" termini tanqidchilikda 1920 yilda vujudga kelib, 1940-1945 yillarda qaror topdi.

Musiqada "Avangardizm" yo'nalishiga seriyali (dodekafoniya), aleatorik, puanistik, sonoristik va elektron musiqalar kiritiladi. Avangard yo'nalishiga mansub kompozitorlar P. Bulez, P. Anri, A. Shyonberg, A. Berg, A. Vebern, O. Messian, Ya. Ksenakis, K. Shtokxauzen va boshqalar.

Adabiyot: 13, 17, 23, 37, 50, 56, 73, 98, 100, 101.

**AVTENTIK KADENSIYA, avtentik kadans** (*yunon.* ανθεντικός – bosh, asosiy) – V pog'ona (dominant) va I pog'ona (tonika) akkordlarning birintekinligi orqali musiqiy tuzilma yoki butun bir asarni yakunlash. Avtentik kadensiya to'liq **avtentik** (D-T) yoki **yarim avtentik** (T-D) bo'lishi mumkin.

To'liq avtentik kadensiyalar *mukammal* va *nomukammal* turlariga ega. *Mukammal* avtentik kadensiyada-yakuniy tonika taktning kuchli hissasiga to'g'ri keladi. Asosiy

tovush esa melodik holatda joylashgan bo'lib, basda V-I pog'onaga harakat sodir etiladi. *Nomukammal* avtentik kadensiyada-oxirgi tonika taktning kuchsiz hissasiga to'g'ri keladi. Melodik holatda esa *tersiya* yoki *kvinta* joylashgan bo'lib, basdag'i harakat V-Iakkordlarning (D,T) aylanmalari qo'llanilganligi sababli sodir etilmaydi.

Adabiyot: 50, 65, 66, 104.

**AYRIM INTONATSION HARAKATLARni** garmoniya fani chetlab o'tadi. Ovoz yo'nali shida hosil bo'lgan orttirilgan intervallarni – kamaytirilgan intervallarga almashtirish afzaldir:

Kichik *septimalar*, katta *septimalarga* nisbatan yangrashi tabiiyroqdir:

Ikkita *kvarta* yoki *kvinta* bo'yicha bir tomonlama sakrama harakatni to'lqinsimon yo'nali shida bilan almashtirish o'rinnlidir:

Adabiyot: 2, 87, 89.

**BASSO OSTINATO** (basso ostinato; *ital.-qat'iy bas*) – variatsion shakllardan biri bo'lib, basda o'zgarmas mavzuning ko'p marotaba takrorlanishi, yuqori ovozning esa doimiy yangilanib turishi bilan belgilanadi. XVI-XVII asrlarda basso ostinato raqs musiqasida keng qo'llanilgan. Passakalya, chakona va boshqa qadimgi raqlar shu shaklda yozilgan. Vaqt o'tishi bilan passakalya va chakona o'z raqlsona ahamiyatini yo'qotsa ham, basso ostinato shaklini saqlab qoldi. XVII-XVIII asrlarda basso ostinato opera ariyalari va xorlariga, oratoriya va kantatalarga

kirib keldi. Bosh mavzusining qisqaligi sababli kompozitorlar uni kontrapunktli ovozlar, garmonik vositalar va tonal almashtirishlar bilan boyitishga harakat qildilar. Basso ostinato gomofon-garmonik tizimning qoror topishiga asos bo'ldi. Avvaliga uning mavzulari gammasimon (diatonik, xromatik) harakatga asoslanar edi, keyinchalik kompozitorlar yorqin, individual mavzularni yaratdilar.

Adabiyot: 50, 94, 101.

**BIR OVOZLIK, BIROVOZLILIK** – kuy harakatining (unison yoki oktavali) jo'rsiz bir ovozlik ijrosi. Yevropa kompozitorlari bir ovozlikni odatda torli cholg'ularning solo asarlari uchun qo'llaganlar (I.S. Baxning skripka, violonchel uchun partita – sonatalari). Ko'p ovozli musiqada ba'zi lavhalargina bir ovozlikda bayon etiladi. Xususan yirik gomofon shakllar – simfoniyalarda esa asosiy mavzu ayrim hollardagina birovozlilikda bayon etilishi mumkin.

Allegro moderato

A. Borodin. Simf. N 2, I q.

To'laligicha birovozlikda yaratilgan qism bu Shopenning b-moll sonatasining finalidir, unda garmonianing ornamental harakati tasvirlanadi. Sharq, xususan O'zbekiston kompozitorlari ijodida birovozlilik uslubidan keng foydalaniylmoqda.

Adabiyot: 12, 86, 102.

**BIR TERSIYALI MAJOR – MINOR** deb tersiyasi umumiy bo'lgan ladrarning (Do major va do ♯ minor) umumlashtirilgan holda qo'llanishiga atyiladi. Bu tizim ikki turda namoyon bo'ladi. Bir tersiyali major–minor tizimi. Bu holda major yarim tonga baland joylashgan minor ohangdoshliklari bilan murakkablashtiriladi va major uchtovushligi tonika ahamiyatiga ega bo'ladi.

Bir tersiyali Do major-minor

Bir tersiyali minor – major tizimi. Bu holda minor yarim ton pastda joylashgan major ohangdoshliklari bilan murakkablashtiriladi.

Bir tersiyali lya minor-major



Quyidagi misolda bir tersiyali tonikalar (mi ♭ minor va Re major) bevosita taqqoslanadi:

A. Borodin. "Knyaz Igor"

*Andantino*

$\text{I}_6$        $\text{I}^{\text{bl}}_6$

Adabiyot: 2, 12, 80.

**BUTUN TONLI GAMMA**, butun tonli lad – o‘z pog‘onalari orqali butun tonli izchillikni tashkil etgan tovushqator. Ba’zan orttirilgan uchtovushlikni, alteratsiyalangan D, larni figuratsiyalanishida qo’llaniladi. Butun tonli gamma qo’llanilgan misol sifatida V.A. Motsartning “Musiqiy hazil” asarining III qismini keltirish mumkin. M.I. Glinka, A.S. Dargomijskiy, A.P. Borodin, N.A. Rimskiy-Korsakov, K. Debyussi va boshqa kompozitorlar asarlarida ham uchrab turadi.

A. Dargomijskiy. "Toshli mehmon"

*(Allegro)*

Adabiyot: 50.

**BO‘LINGAN KADENSIYA** – dominanta yoki dominantseptakkordning asosiyo ko‘rinishidan so‘ng musiqiy fikrning VI-bosqich akkordi bilan vaqtinchada to‘xtalishi “bo‘lingan kadensiya” deyiladi. Bunday vaziyatda VI-bosqich akkordi shartli ravishda muvaqqat tonika vazifasini bajaradi.



Bo'lingan kadensiyadan so'ng jumla ko'pincha subdominanta yoki II-bosqichakkordi bilan boshlanadi. Dominanta guruhni akkordlarning VI-bosqich akkordiga yechilishida VI-bosqichning tersiya toni ikkilanishi lozim. Bo'lingan kadensiya davriyani kengaytirish usullaridan biridir.

Adabiyot: 67.

**DAVRIYA** – gomofon musiqadagi yakunlangan mavzuviy tuzilmaning ma'lum shaklidir, to'liq kadensiya yakunlovchi belgi sifatida xizmat qiladi. Davriya mustaqil gomofon asarning eng oddiy shaklidir. U ko'p hollarda ikkita bir-biriga o'xshash tuzilma(jumla)lardan iborat bo'lishi mumkin (4 takhti, 8 takhti, 16 takhti). Ulardan biri yarim kadensiya (yoki to'liq nomukammal) bilan, ikkinchisi – to'liq mukammal kadensiya bilan yakunlanadi.

Davriyaning quyidagi turlari mavjud: 1) takroriy tuzilmaga ega bo'lgan davriyalar – unda ikkinchi jumla o'zgacha kadensiyaga ega bo'lsa ham birinchi jumla musiqiy matnnini takrorlaydi; 2) takrorlanmas tuzilmaga ega bo'lgan davriyalar – unda ikkinchi jumla birinchi jumla musiqiy matnnini takrorlamay, yaxlit tuzilmaga ega bo'ladi.

Davriyani kengaytirish usullari: sekvensiyali rivoj, bo'lingan yoki nomukammal kadensiyalar. Ba'zida davriya qo'shimcha qismiga ega bo'ladi. Unda to'liq mukammal kadensiyadan so'ng uni ma'lum qismini takrorlaydi. Davriya bir tonallik (agar dastlabki tonallikda yakunlansa) va modulyatsiyali (agar o'zga tonallikka o'tsa) bo'lishi mumkin.

Adabiyot: 28, 47, 48, 54, 77, 78, 88, 89, 103.

**DIATONIKA** (yunon. *ἄεια* – orqali va tovoç – ton, ya'ni bir tondan ikkinchi tonga harakat) – yetti tovushli tizim. Undagi har bir tovushni sof *kvinta* (yoki *kvarta*) bo'yicha joylashtirish mumkin.

A musical staff in C major (indicated by a C and 'dur' at the beginning). It shows a diatonic scale starting on C, passing through D, E, F, G, A, and B, returning to C. The notes are represented by open circles on the staff.

Agar har bir tovush sekunda bo'yicha joylashtirilsa, katta va kichik sekundalardan iborat diatonik tovushqator vujudga keladi.

A musical staff showing a diatonic scale where the second interval is emphasized. The notes are represented by open circles on the staff.

Diatonik ladlarga – lidiy, ioniy, frigiy, doriy, eoliy, miksolidiy, lokriy ladlari mansubdir. Keyinchalik diatonik ladlar doirasiga garmonik va melodik major va minorlar kiritildi. Diatonika nafaqat konsonans, balki dissonans orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Diatonika ladning asosi va xromatikaning tayanchidir.

Adabiyot: 24, 50, 53, 74, 84, 87, 94, 103.

**DIATONIK LADLAR** – diatonik tovushqatorga asoslangan, qadimgi lad tizimlari. Maxsus adabiyotlarda, pedagogik amaliyotda bu ladlar turlicha nom olgan (qadimgi, cherkov, o'rta asr, tabiiy, xalq musiqasi ladlari). Bu ladlarning har biri diatonik tovushqatorning yetti pog'onasida tuzilishi mumkin. Hozirgi davrda bu ladlar major va minor nuqtai nazardan qaraladi. Aslida esa ular ilgari paydo bo'lgan bo'lib, eoliy va ioniy ladi bilan tovushqatori bir xildir.

Six musical staves illustrating diatonic modes:

- Top row: **ioniy** (top), **doriy** (bottom)
- Middle row: **miksolidiy** (top), **eoliy** (bottom)
- Bottom row: **lokriy** (top), **frigiy** (middle), **lidiy** (bottom)

Each staff shows a diatonic scale with open circles representing notes. The staves are separated by vertical bar lines.

Yagona tovushdan tuzilganda shunday ko'rinishga ega:

The image shows four staves of musical notation. The top staff is labeled 'frigiy' and 'eoliy'. The second staff is labeled 'dor. 2' and 'miksolidiy'. The third staff is labeled 'dor. 6' and 'liidiy'. The bottom staff is labeled 'ioniy' and 'lid. 4'. The notation consists of quarter notes and eighth notes on a treble clef staff.

Adabiyot: 9, 20, 21, 31, 36, 39, 84, 89.

**DISSONANS** (*frans.* dissonance, *lot.* dissono – nosoz yangrash) – bir-biri bilan keskin, uyg'unlashmagan ohangdoshni tashkil etuvchi tovushlar birikmasi.

Dissonans intervallar – kichik, katta sekunda; orttirilgan kvarta; kamaytirilgan kvinta; kichik, katta septima.

Dissonansakkordlar – kamaytirilgan, orttirilgan uchtovushliklar; septakkordlarning barcha turi, ko'p tarkibli va tersiyasiz tarkibidagiakkordlar, nonakkordlar dissonansakkordlar qatoriga kiritiladi. Dissonans o'z tabiatiga ko'ra yechillishni, ya'ni konsonansga o'tishni talab qiladi. XV – XVI asrlarda dissonans faqatgina uchtovushlik tarkibiga tayyorlangan to'xtalma yoki o'tkinchi tovush kiritilishi bilan tashkil topgan. Keyinchalik to'xtalmalar tayyorlanmasdan qo'llanila boshlangan, undan so'ng esa asta-sekin konsonans bilan bog'liqlikni yo'qotib, mustaqilakkord sifatida anglandi. XIX asrning oxiridan boshlab musiqada dissonanslarning ketma-ket kelishi kuzatiladi. XX asr musiqasida dissonans konsonans bilan teng ahamiyatga ega bo'ladigan bo'lib, hatto ba'zan tonika o'mini egallaydigan bo'ldi.

Adabiyot: 6, 21, 53, 67, 84, 87, 94, 103.

**DODEKAFONIYA** (*yunon.* δω οεχα – 12 va φωνη – tovush – o'n ikki tovushlik – "seriya" ("qator") yordamida tashkil topgan 12-tonli tizimning tamoyilli. 1922 yili A. Shyonberg tomonidan kashf etilgan. "Fortepiano uchun 5 ta pyesa", op. 23 va "Serenada", op. 24 kabi asarlari dodekafoniya texnikasining ilk namunalaridandir. Xromatik tovushqatordagi 12 yarimtonlarning o'zaroteng huquqligi bu uslubning asosiy shartidir. Tovushlarning bir-biriga tortilishi, tonlarning o'zarobog'liqligi, asosiy tonga intilish, shuningdek, subdominanta, dominanta, yetakchi va boshqa ton funksiyalari rad etiladi.

Oktavadagi 12 tonlarning barchalaridan tuzilgan "seriya" musiqiy kompozitsiyaning (kuy, garmoniya, polifoniya va shakl) asosi sifatida matn vazifasini bajaradi. Seriyada tovushlar bir marotaba yangragan holda, boshqa 11 ta tovush yangramaguncha takrorlanishi man etiladi. Matematik qonunlariga binoan 12 ton – 479001600 ta turli interval kombinatsiyalarini vujudga keltiradi. Seriyadagi tovushlarning joylashuvi oktava doirasidan chetga chiqishi, shuningdek tonlarning bir *oktavadan* ikkinchi oktavaga o'tishi erkendir. Seriya musiqiy asarning rivojlanishida quyidagi o'zgarishlarga duch kelishi mumkin:

a) "aylanma" yoki "inversiya" – seriyadagi intervallar teskari yo'nalishda tuziladi.

b) "rakoxod" aylanma" - seriya oxiridan boshiga qarab "qisqichbaqa" simon harakatlanadi.

d) "rakaxod aylanma"ning "inversiya"si.

e) "transpozitsiya" – serianing barcha ko'rinishi istalgan intervalga yuqoriga ko'tarilishi yoki pastga tushirilishi.

Seriya

"inversiya"

a)

"rakoxord aylanma"

"rakoxord aylanmaning inversiyasi"

"transpozitsiya" d) mi soli tersiya pastga

e)

Seriya pyesaning gorizontal tuzilishi bilan birga, vertikal (garmoniyaning) tuzilishiga ham xizmat qiladi.

Seriya

A. Vebern. "Bolalar pyesasi".

Lieblich

Adabiyot: 8, 16, 17, 37, 45, 46, 73, 100, 103.

**DOMINANTA** (*lot. dominante – hukm suruvchi*) – gammadagi V bosqichning nomlanishi. Dominanta D harfi bilan belgilanadi. Garmoniya darsligida dominanta guruhiakkordlari tarkibiga – V, III va VII pog'onalarda tuzilganakkordlar kiritiladi. Tonal – funksional tizimda dominanta tonika bilan o'zaro munosabati orqali belgilanadi. Dominantaning asosiy toni tonika tarkibiga va I pog'onadan tuzilgan oberton qatoriga kiradi. Majorda va garmonik minorda dominantaakkord tarkibida yetakchi tonning mavjudligi tonikaga qarab, yorqin ifodalangan intilishni hosil etadi.

Adabiyot: 21, 50, 87, 103.

**DOMINANTNONAKKORD** – *Nonakkordga* qarang.

**DOMINANTSEPTAKKORD** (D<sub>7</sub>) – major yoki garmonik minorning V pog'onasida tuzilgan septakkord. D<sub>7</sub> tuzilishi:

Dominantseptakkord to'liq va to'liqsiz (kvinta toni tushirilib, asosiy toni juftlanadi) turlari mavjud.

Dominantseptakkorddan avval – T, T<sub>6</sub>, D, D<sub>6</sub>, S, S<sub>6</sub> va K<sup>6</sup><sub>4</sub> lar qo'llaniladi.

Dominantseptakkordning tonikaga yechilish qoidalari: 1) septima – bir pog'ona pastga; 2) kvinta – bir pog'ona pastga; 3) tersiya – soprano bo'lsa bir pog'ona yuqoriga, boshqa ovozlarda bo'lsa, xuddi shunday yoki tersiya pastga; 4) prima – sakrama harakat orqali tonikaga yechiladi.

Dominantseptakkordning kadensiya bo'limlarida o'rni muhimdir. (S, – D, – T; S<sub>6</sub> – D, – T; K<sup>6</sup><sub>4</sub> – D<sub>7</sub> – T; S – K<sup>6</sup><sub>4</sub> – D, – T).

Adabiyot: 2, 28, 29, 54, 65, 66, 87, 88, 97.

### **DORIY LADI – Diatonik ladlarga qarang.**

**DORIY SEKSTASI** – 1) doriy ladining I va VI pog'onalarida hosil bo'lgan katta seksta; 2) doriy ladining VI pog'onasi; 3) tabiiy minorda VI ko'tarilgan pog'ona. Minorda doriy sekstasini VII pog'onaning ko'tarilmasdan yonma-yon qo'llash, musiqaga doriy ladi ohanglarini baxsh etadi. (*Diatonik ladlarga qarang*).

Adabiyot: 50.

**EKMELIKA** (*yunoncha. εχμελη*) kuydan tashqari bo'lgan, kuysiz) – bu tizimda tovushlar aniq, belgilangan balandlikka ena emas. Ekmelika sof tizim sifatida qo'llanilmaydi, u ijro turiga mansubdir. Ekmelikani laddan ilgarigi ilk tizim sifatida ko'rish mumkin.

Adabiyot: 5, 50, 94.

**ELLIPSIS** (*yunoncha. tushirib qoldirish*) – kutilayotganakkordning o'zga akkord bilan almashtirilishi natijasida vujudga keladi. Masalan: D, –tonikaga emas VI ga yechilishi; qo'sh dominanta dominanta yoki tonikaga emas S ga yechilishi va boshqalar.

C-dur

D<sub>7</sub>      VI

Adabiyot: 9, 27, 28.

**ENGARMONIZM** (*yunon. εναρμονιος* – muvofiqlashtirilgan, ohangli) deb-yozilishi turlicha bo'lgan, balandlik bo'yicha teng tovushlarga (des = cis), intervallarga



tonalliklarga (Fis dur = Ges dur) aytildi. Engarmonizm tushunchasi 12 pog'onalni (teng) temperatsiyalangan tuzilmasini nazarda tutadi.

Adabiyot: 9, 21, 53, 54, 62, 65, 66, 94.

**ENGARMONIK MODULYATSIYA** Ada ikki tonalliklar o'rtasida umumiy akkordning bir yoki bir nechta tovushlari engarmonik o'zgartiriladi. Engarmonik modulyatsiyaning o'ziga xosligi shundaki, birligina akkordda vositachi va modulyatsiyalovchi akkordlarining xususiyatlari uyg'unlashadi. Engarmonik modulyatsiya uchun qo'llaniladigan akkordlar, ko'pincha dissonanslar bo'lib, kamaytirilgan septakkordlar, D<sub>7</sub> va orttirilgan uchtovushlikning engarmonik talqinlanishi keng tarqalgan. Engarmonik modulyatsiya boshqa tonallikka

kutilmaganda o'tishi natijasida yorqin bo'yoqli taassurot hosil qilib, ko'proq uzoq tonalliklarga o'tish uchun qo'llaniladi.

F. List. "Qachondir Fulda qirol yashagandi".

**Allegro agitato**

Adabiyot: 2, 9, 21, 28, 29, 53, 54, 65, 66, 75, 87, 88.

**ENGARMONIK TENG AKKORDLAR** – Engarmonizmga qarang.

**ENGARMONIK TENG INTERVALLAR** – Engarmonizmga qarang.

**ENGARMONIK TENG TONALLIKLAR** – Engarmonizmga qarang.

**EOLIY LADI** – Diatonik ladlarga qarang.

**ERKIN OVOZ YO'NALISHI** – qat'iy, belgilangan ovoz yo'nalishidagi qonuniyatlardan cheklanish. Ayniqsa bu cholg'u musiqasiga tegishli bo'lib, tonlarning elementar lad bog'liqliklaridan chetlanadi. Erkin ovoz yo'nalishida:

1) barcha ovozlarda erkin sakrama harakatlar;

2) yetakchi tonning qoida bo'yicha yuqoriga emas, pastga qarab yechilishi qo'llaniladi.

Adabiyot: 2, 27, 28, 53, 54, 88, 97.

**EFFEKTIV PARALLEL KVINTALAR** – to'rtovozlikning eng chetdag'i tovushlari, soprano va alt, tenor va bas orasida vujudga keladi (a).

Juda sezilarli effektiv parallel kvintalar yonma-yon bo'Imagan tovushlar orasida ham mavjud (b).

Adabiyot: 2, 83, 87, 88.

**FRIGIY LADI** – Diatonik ladlarga qarang.

Adabiyot: 14, 15, 36, 76, 84, 88.

**FUNKTSIONAL MODULYATSIYALAR** tonalliklarning garmonik o'xshashligiga asoslanadi.

*Bevosita funksional modulyatsiya* jarayonida to'rt bosqichdan iborat vazifalar bajariladi:

1) dastlabki tonallikning garmonik rivoji ancha davomli bo'lishi kerak, aks holda birinchi tonallik asosiy tonallik sifatida sezilmaydi;

2) umumiyakkord boshlang'ich tonallikda boshqa bir funksiya, navbatdagi yangi tonallikda esa yana boshqa bir funksiyaakkordning funksional baholanishi faqat modulyatsiyalovchiakkord paydo bo'lganidan so'nggina ayonlashadi.

3) modulyatsiyalovchiakkord umumiyakkorddan so'ng keladigan va yangi tonallikka xarakterli bo'lgan ohangdoshlik, ayniqsa yechilishiga moyil bo'lgan dissonansakkordlar qo'llaniladi (II., VII., DD., D, va ularning aylanmalari K<sup>6</sup>).

4) ikkinchi tonallikni ko'rsatish uchun tugallovchi kadensiya kiritiladi.

Adabiyot: 2, 27, 28, 53, 54, 87, 88, 89.

**GARMONIK MAJOR** – tabiiy majordan VI pog'onanining pasaytirilganligi bilan farqlanadi. Garmonik majorda VI va VII pog'onalar oralig'ida orttirilgan sekunda vujudga keladi.

VI

**GARMONIK MINOR** – tabiiy minordan VII pog'onanining ko'tarilishi bilan farqlanadi. VII pog'onanining o'zgarishi natijasida yuqorida, tonikaga intiluvchi yetakchi ton hosil bo'ladi. Garmonik minorda VI va VII pog'onalar oralig'ida orttirilgan sekunda vujudga keladi. I, III, V pog'onalarda joylashgan turg'un tovushlar minor uchtovushligini hosil qiladilar. To'rtta noturg'un tovush yondosh turg'un tovushlarga tortiladi.

VII

Adabiyot: 14, 15, 36, 76.

**GARMONIK FIGURATSIYA** –akkord tovushlarining birin-ketin, ornamental ravishda bayon etilishi. Garmonik figuratsiyaakkord asosini niqoblaydi va gomofon tizimning ko'p qo'llaniladigan ifodali vositalaridan birini tashkil etadi. Vazmin tempda garmonik figuratsiya melodik tarzda tebranuvchi fonnivujudga keltiradi, tez tempda esa dinamik, jo'shqin xarakterga ega bo'ladi. Garmonik figuratsiyani Betxovenning №14 sonatasining I-qismida kuzatish mumkin.

**Adagio sostenuto**



sxema

I	I <sub>2</sub>	VI	II <sub>6</sub> <sup>H</sup>	V <sub>7</sub>	I <sub>64</sub>	V <sub>7</sub>	I
---	----------------	----	------------------------------	----------------	-----------------	----------------	---

Garmonik figuratsiya qismning boshidan oxirigacha saqlanibgina qolmay, muayyan musiqiy qiyofani yaratishda asosiy vosita vazifasini bajaradi.

Adabiyot: 67, 86, 88, 89.

**GARMONIYA** (*yunon. ἀρμονία – ohangli, uyg'un*) – keng ma'noda – musiqiy to'qimaning har tomonlama badiiy yetukligi bilan bog'liq bo'lgan, umuman musiqiy san'atdagi ifoda vositalarining o'zaro uyg'unligi sifatida tushuniladi. Musiqiy – nazariy ilmnning muhim bo'limlaridan biri ham garmoniya deb nomlanadi. Undaakkord tuzilmalari, ularning ladotonal bog'liqliklari o'rganiladi. Tor ma'noda – garmoniya "akkord" tushunchasiga yaqindir. Ba'zan bu tushuncha ma'lum kompozitor uslubiga yoki yo'naliishiga nisbatan ham qo'llaniladi: "Vena klassiklari garmoniyasi", "Prokofyev garmoniyasi" va hokazo.

Musiqiy – nazariy fan sifatida garmoniya taxminan XIX asrning boshidan qo'llanila boshlangan, unga qadar bu fan general bas deb nomlangan.

Garmoniya musiqiy asarning asosi, negizidir. U kuy, metr va ritm, temp, faktura, dinamika va ijro talqini birligida namoyon bo'ladi.

Adabiyot: 9, 12, 21, 46, 48, 50, 54, 65, 66, 67, 68, 75, 77, 84, 85, 86, 87, 88, 89, 91, 92, 94, 97, 99, 102.

**GARMONIYALASH** – berilgan kuya garmonik jo'rlikni bastalash. Yagona kuy turlicha garmoniyalashtirilishi mumkin. Kuyning lad tuzilishiga qarab, uning uslubi, funksiyalarning joylashuvni, modulyatsiya va boshqa hollar belgilanadi. Garmoniya fanida kuyni garmoniyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ko'p kompozitorlar (Y. Gaydn, L. Betxoven, M.P. Musorgskiy, N.A. Rimskiy-Korsakov, O'zbekistonda – M. Burhonov, A. Kozlovskiy, S. Boboev, I. Akbarov) xalq kuy va qo'shiqlarini garmoniyalashga alohida e'tibor bergenlar. Bu usul milliy musiqiy garmonik tilning yanada shakllanishiga va yirik janrlar, xususan, simfoniya, opera, kamer musiqalarda xalqchilik xususiyatlarini yanada teranlashtirishga ko'mak bo'ldi.

Adabiyot: 7, 19, 28, 29, 31, 32, 39, 75, 87, 88, 102.

**GEKSAXORD** (*yunon. εξ ολτι καὶ χωρδῇ τόρ; ya'ni olti torli*) – olti pog'onali tovushqator. XI asrda Gvido d'Aretstso tomonidan quyidagi ko'rinishda joriy etilgan: ton, ton, yarim ton, ton, ton; pog'onalar – ut, re, mi, fa, sol,

la – deb nom olgan. Bu tizimning umumiy tovushqatori 20 tovushdan iborat bo’lgan (G dan e 2 gacha).

Adabiyot: 50.

**GEMIOLIKA** (*yunon.* ημιολίκα – yarim tonli harakat) – bir yoki ikkita orttirilgan sekundani o’z ichiga kiritgan tovushqator (vengr, sigan gammasi). Gemiolika sharqning arab mamlakati musiqasiga, hind va boshqa xalqlar musiqasiga xosdir.

Adabiyot: 94.

**GENERAL – BAS** (*nem.* Generalbaß, *ital.* basso generale, ya’ni umumiy bas) – yuqorida ovozlar ohangini belgilovchi raqamli bas ovozi. O’zga nomlanishlari ham mavjud: *ital.* basso continuo, *engl.* through bass – uzlusiz bas. Shuningdek, “raqamlangan bas” ham deyiladi (*ital.* basso numerato, *frans.* basse chiffree, *nem.* Bezifsterter Baß).

General – bas ko’povozlikning qisqartirilgan yozuvi sifatida organ va klavesin jo’rligi amaliyotida XVI asr boshlarida gomofon musiqaning yuksalishi natijasida keng tarqaldi. Pastki tovush(bas)ning nota bilan, yuqorigi ovozlar esa bas bilan hosil qilgan interval raqamining belgilanishi – bu usulning asosiy mohiyatidir.

Ilk bor general–bas A. Bankerining (1595) “Cherkov kontsertlarida”, E. Kovaleri, M. Pretorius asarlarida, keyinchalik K. Monteverdi, G. Shyuts, A. Korelli, A. Skarlatti, I.S. Bax, G.F. Gendel, Dj. Pergolezi, Y. Gaydn va boshqa kompozitorlar ijodida uchraydi.

Akkordlarni belgilash usullari: diatonik uchtovushliklar raqamlanmaydi; 6 raqami sekstakkord,  ${}^6_4$  – kvartsekstakkord,  ${}^7_6, {}^4_3, {}^4_2$  – diatonik septakkord va uning aylanmalari; 9 raqami – nonakkordni bildiradi. Alteratsiya belgilari – diez (#), bemol (b), bekar (h).

I.S.Bax. 2-ta skripka va raqamlangan bas uchun Sonata III q.

Adabiyot: 50.

**GTEROFONIYA** – *unison* ijrodagi kuyning yoki birligidagi kuylashning ba’zi lavhalarida ko’povozlikning paydo bo’lishi bilan xarakterlanadi.

Adabiyot: 86, 102.

**GOMOFON – GARMONIK TIZIM** (*Gomofoniyaga qarang*).

**GOMOFONIYA** (*yunon.* ομοφωνία – bir tovush, unison; ομοζ – bir va φωνη – tovush, ovoz) asosiy kuy va unga birikkan jo’rlik bilan xarakterlanadi. XVII-

XVIII asr gomofoniyaning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Shu davrda opera janrining paydo bo'lishi sababli gomofoniya yanada professional darajaga ko'tarildi. Shuningdek, gomofoniyaning qaror topishida turli cholg'ularning, ayniqsa skripka uchun yozilgan musiqaning o'rni muhimdir.

Vena klassik maktabi kompozitorlarining musiqasi gomofoniyaning bebahos xususiyatlarini namoyon etdi.

Jo'rlikning garmoniyani yaqqol namoyish etishi maxsus ma'noda gomofon – garmonik deb atalishiga sabab bo'ldi.

Largo

F. Chopin. Preljudiya №4.

Adabiyot: 50, 86, 91, 103.

**INTERVAL** (lot. intervallum – oraliq, masofa) – ikkita tovushning birin-ketin yoki baravariga yangrashi. Oddiy diatonik intervallar quyidagilar:

- 1) sof *prima* = 0 ton;
- 2) kichik *sekunda* = 0,5 ton;
- 3) katta *sekunda* = 1 ton;
- 4) kichik *tersiya* = 1,5 ton;
- 5) katta *tersiya* = 2 ton;
- 6) sof *kvarta* = 2,5 ton;
- 7) orttirilgan *kvarta* = 3 ton;
- 8) kamaytirilgan *kvinta* = 3 ton;
- 9) sof *kvinta* = 3,5 ton;
- 10) kichik *seksta* = 4 ton;
- 11) katta *seksta* = 4,5 ton;
- 12) kichik *septima* = 5 ton;
- 13) katta *septima* = 5,5 ton;
- 14) sof *oktava* = 6 ton;

#### Tarkibiy intervallar:


- 1) kichik *nona* = 6,5 ton;
- 2) katta *nona* = 7 ton;
- 3) kichik *detsima* = 7,5 ton;
- 4) katta *detsima* = 8 ton;
- 5) sof *undetsima* = 8,5 ton;
- 6) orttirilgan *undetsima* = 9 ton;

- 7) kamaytirilgan *undetsima* = 9 ton;
- 8) sof *duodetsima* = 9,5 ton;
- 9) kichik *tertsdetsima* = 10 ton;
- 10) katta *tertsdetsima* = 10,5 ton;
- 11) kichik *kvartdetsima* = 11 ton;
- 12) katta *kvartdetsima* = 11,5 ton;
- 13) sof *kvindetsima* = 12 ton.

Intervallar sifat bo'yicha belgilanadi: sof, kichik, katta, shuningdek orttirilgan, kamaytirilgan, ikki marotaba orttirilgan va ikki marotaba kamaytirilgan turlari mavjud.

Adabiyot: 14, 15, 36, 76, 89, 104.

**INTERVAL AYLANMASI** – interval asosiy ko'rinishidan tashqari, aylanma ko'rinishida ham bayon etilishi mumkin. Agar oddiy intervalning pastki tovushi oktava yuqoriga yoki yuqorigi tovush oktava pastga joylashtirilsa, u holda interval aylanmasi vujudga keladi.



### *Intervallar aylanmalari:*

sof *prima* = sof *oktava*;  
kichik *sekunda* = katta *septima*;  
katta *sekunda* = kichik *septima*;  
kichik *tersiya* = katta *seksta*;  
katta *tersiya* = kichik *seksta*;  
sof *kvarta* = sof *kvinta*;  
orttirilgan *kvarta* = kamaytirilgan *kvinta*;

kamaytirilgan *kvinta* = orttirilgan *kvarta*;  
sof *kvinta* = sof *kvarta*;  
kichik *seksta* = katta *tersiya*;  
katta *seksta* = kichik *tersiya*;  
kichik *septima* = katta *sekunda*;  
katta *septima* = kichik *sekunda*;  
sof *oktava* = sof *prima*.

Adabiyot: 14, 15, 76.

### **IONIY LADI** – Diatonik ladlarga qarang.

**JORIYLANUVCHI TON** – deb tertsiyaviy tuzilmaga ega bo'lgan akkorddag'i tonlarning barchasi saqlangan holda, yana bir qo'shimcha tonning kiritilishiga aytildi.

S. Boboyev. "Pyesa".

Adabiyot: 2, 12, 23, 94.


**JUMLA** – deb kadensiya bilan yakunlangan, davriyaning bo'lingan qismlariga aytildi. Oddiy davriya ikki jumladan iborat:

Jumla oddiy ko'rinishda o'z navbatida ikki ibora, ibora esa ko'pincha ikki motivdan tashkil topadi.

Adabiyot: 27, 29, 78.

**KADANS** (*frans. cadence*) – Kadensiyaga qarang.

**KADANS KVARTSEKSTAKKORDI** ( $K^6_4$ ) – I pog'ona uchtovushligining kvartsekstakkordi ( $I^6_4$ ),  $K^6_4$  faqat kadensiyada qo'llanilib, kuchli yoki nisbatankuchli hissada joylashtiriladi.  $K^6_4$  o'z ichiga ikki funksiyani kiritadi:



$K^6_4$  dan avval subdominanta guruhiakkordlari, undan so'ng esa dominanta guruhiningakkordlari qo'llaniladi.  $K^6_4$  tonikaning tasdiqlanishida muhim o'rinni egallaydi.

Adabiyot: 28, 29, 54, 87, 88, 94.

**KADENSIYA** (*ital. cadenza; lotin. cado – yakunlamoq*) – musiqiy tuzilmanni yakunlovchi ma'lum garmonik (melodik) aylanma. Kadensiya musiqiy asarni qismrlarga bo'linishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

*To'liq kadensiya* ikki noturg'un funksiyaakkordlarini o'z tarkibiga kiritib, tonikada yakunlanadi (S-D-T) Akkord tarkibiga binoan avtentik (V-I) va plagal (IV-I) kadensiyalar mavjud.

*Mukammal kadensiya* – dominanta yoki subdominantaning asosiy ko'rinishidan so'ng kuchli hissada kelgan asosiy toni melodik holatda joylashgan tonika bilan tashkil topadi.

*Nomukammal kadensiya* – agar yuqoridagi shartlarning biri bo'lmasa u kadensiya nomukammaldir.

*Yarim kadensiya* – dominantada yakunlanadi (I-V; II-V; IV-V; I-IV).

*Bo'lingan kadensiya* – dominanta guruhiakkordlarining tonikaga emas o'zga accordga yechilishi (V-VI; V-IV<sub>6</sub>; V-IV).

C dur

avtentik (mukammal)	plagal (mukammal)	nomukammal (avtentik)	nomukammal (plagal)
D <sub>7</sub>	T	S	T

### Yarim kadensiyalar

C dur

avtentik	a moll plagal		
T	D	VI	D
	t		
		VI - S <sub>6</sub> - D	

### Bo'lingan kadensiyalar

C dur

D <sub>7</sub>	VI	D	S

Musiqiy davriyadagi o'rniga qarab kadensiyalar quyidagicha farqlanadi:

*O'rta kadensiya* – birinchi jumlani oxirida joylashib, ko'proq I-V yoki IV-V garmonik harakatida asoslanadi.

*Yakuniy (xotima) kadensiya* – davriyaning oxirida joylashib, asosan V-I garmonik harakatida asoslanadi.

Adabiyot: 6, 50, 67, 94, 104.

**KAMAYTIRILGAN INTERVALLAR** – deb intervalning sof yoki kichik turidagi xromatik yarim tonga zichroq bo'lgan intervallarga aytildi. Har qanday interval (primadan tashqari) kamaytirilishi mumkin.

#### a) sof intervallarning kamaytirilishi

prima	oktava	kvarta	kvinta
ye'q			

### b) katta va kichik intervallarning kamaytirilishi

*sekunda*

*tersiya*

*seksta*

*septima*

Shuningdek, ikki marotaba kamaytirilgan intervallar mavjud:

2 marta kam. 5                            2 marta kam. 8

Adabiyot: 50.


**KAMAYTIRILGAN LAD** – simmetrik ladning bir turi, uning asosini kichik tersiyali akkord tashkil etadi (kamaytirilgan septakkord).

Adabiyot: 24, 50, 90, 94.

**KAMBIATA** (*ital. cambiare* – о'згартирмоq) – yechilmagan yordamchi tovush. Agar yordamchi tovush (yuqorigi yoki pastki) avvalgiakkord toniga qaytmasdan o'zgaakkordning tovushiga o'tsa kambiata hosil bo'ladi.


**Adabiyot:** 21, 86, 88, 89, 94.

**KVARTAKKORD** – kvartalar izchilligida tashkil topgan ohangdoshlik.



Adabiyot: 2, 12, 23, 31, 32.

**KVARTSEKSTAKKORD** – kvinta toni basda joylashgan, uchtovushliklarning ikkinchi aylanmasi. Kvartsekstakkord –  $\frac{6}{4}$  deb belgilanadi.




Kvartsekstakkordning qo'llanishi klassik garmoniyaning ma'lum sharoitlari bilan bog'liqdir. Garmoniya fani kadans kvartsekstakkordini ( $K_4^6$ ), o'tkinchi kvartsekstakkordlarni ( $I_6 - V_4^6 - I$ ;  $II_6 - VI_4^6 - II$  va b.) yordamchi kvartsekstakkordlarni ( $I - IV_4^6 - I$ ;  $V - I_4^6 - V$  va b.) o'rganadi.

Adabiyot: 2, 54, 67, 87, 88.

**KVINTA DOIRASI** – barcha tonalliklar bu tizimda so'f kvinta bo'yicha joylashtiriladi.

S x e m a



Ushbu kvinta doirasi nazariy jihatdan cheksiz davom etishi mumkin, lekin kelib chiqadigan tonalliklar mavjud tonalliklarning engarmonik al mashgan tonalligi sifatida namoyon bo'laveradi. Keltirilgan kvinta doirasida uchta engarmonik teng tonalliklar mavjud.


Adabiyot: 14, 15, 76.

**KVINTAKKORD** – kvintalar izchilligida tashkil topgan ohangdoshlik.



Adabiyot: 2, 12, 23, 31, 32.

**KVINTA TONI** – har qandayakkordni qaysi turi bo'lishidan qat'i nazar, tersiya qatorining uchinchi tovushidir.



*Kvinta toni* 5 raqami bilan belgilanadi.

Adabiyot: 67.

**KVINTDETSIMAKKORD** – *tersiya* bo'yicha joylashgan, 8 tovushdan iborat bo'lgan akkord.



Kvintdet simakkord turli ko'rinishda namoyon bo'lib, ba'zi hollarda poliakkord qiyofasiga ega bo'ladi.

Adabiyot: 2, 23.

**KVINTSEKSTAKKORD** – Septakkord aylanmalariga qarang.

**KLASTER** (ingl. cluster – g'uj-g'uj) – sekundali garmoniyaning ma'lum turi, shu intervalning zich joylashishida namoyon bo'ladi.



Adabiyot: 2, 23, 24.

**KOLORISTIK QATLAMLANISH** – akkord tonlarining oktavaga ikkilanishida namoyon bo'ladi. Koloristik qatlamlanish akkord tuzilmasining ustki qurilmasi hisoblanib, ladofunktional ahamiyatiga ega bo'lmaydi. U yangi bo'yoq kiritib, garmoniyani membr jihatidan boyitadi.

Adabiyot: 86.

**KONSONANS** (frans. consonance, lot. consonantia – uyg'un yangrovchi) – deb bir-biri bilan uyg'un birikkan, ohangdosh bo'lib eshitilgan tovushlar yig'indisidir. Konsonans intervalning absolyut, mukammal, nomukammal turlari mavjud.

*Absolyut konsonanslar:* sof prima, sof okta.

*Mukammal konsonanslar:* sof kvarta, sof kvinta.

*Nomukammal konsonanslar:* kichik tersiya, katta tersiya, kichik seksta, katta seksta.

Konsonans klassik va romantik musiqada lad tayanchi, uning markazi va tonika sifatida xizmat qiladi.

*Konsonans uchtovushliklar* – major (kat.)<sup>5</sup>, minor (kich.)<sup>5</sup>,

Adabiyot: 6, 21, 53, 84, 87, 94, 104.

**KUY** – musiqiy fikrning bir ovozli bayoni. U musiqada yaxlit, birovozlikda yoki ko'povozlik to'qimaning bosh ovozi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Har bir kuy quyidagi musiqiy vositalarni – ritm, dinamika, membrni o'z ichida mujassamlashtiradi. Kuyda balandlik va vaqt o'chovi muhim ahamiyatni kasb etadi. Uning ritmi janr xususiyatlarini (marsh, raqs, qo'shiq) belgilab beradi. Kuydag'i balandlik tashkili ikki tomonlarma ta'riflanadi: 1) kuy chizig'i; 2) tovushlarning ladotonal munosabati.

Har bir kuya kulminatsiyaning o'rni muhimdir. Kulminatsiya kuyning yuksak tarangligidir. U asosan kuyning uchinchi choragida joylashadi (8 taktsli kuya 6 taktda).

Adabiyot: 21, 43, 47, 48, 54, 77, 78, 81, 84, 86, 88, 89, 97, 105.

**KO'P OVOZLIK, KO'POVOZLILIK** – turli ovozlarning bir vaqtida yangrashiga asoslangan musiqiy tizim. Ko'povozlilikning bir necha turlari mavjud: 1) geterofoniya (Geterofoniyaga qarang); 2) gomofoniya (Gomofoniyaga qarang);

3) polifoniya (Polifoniyaga qarang).

Adabiyot: 21, 50, 105.

**LAD** (*yunon. ἀρμονία*, lot. modulatio, modus, frans. va *ingl.* mode slavyancha – lad - kelishilgan, tartibili) – musiqiy tovushlarning balandlik tashkili, turg'un tovush – tonikaga bo'lgan munosabati orqali belgilangan tizimi. Musiqada lad turg'un va unga intilgan noturg'un tovushlar bilan namoyon bo'ladi. Asosiy ladlar – major va minor.

Major ladining muhim alomati – I va III pog'onalar o'rtasida katta tersiya; minor ladining muhim alomati – I va III pog'onalar o'rtasida kichik tersiyaning tashkil topishidir.

Klassik major va minorda VII pog'ona – yetakchi tonning o'rni muhim. Ladning qolgan pog'onalar tonika bilan hosil bo'lgan sifati orqali belgilanadi. Har qanday lad o'z pog'onalarinng intervalli munosabati, pog'onalarining funksiya tizimiga ega.

Ladlar tasnisi:

1) diatonik ladlar – cherkov, o'rtal asr, xalq musiqasi ladlari deb ham nomlanadi (*Diatonik ladlarga qarang*).

2) ekmelika (*Ekmelikaga qarang*).

3) pentatonika (*Pentatonikaga qarang*).

- 4) orttirilgan sekundali ladlar (“*Vengr gammasi*”ga qarang).
- 5) major (*Majorga* qarang).
- 6) minor (*Minorga* qarang).
- 7) xromatika (*Xromatik tizimga* qarang).

Adabiyot: 1, 2, 4, 5, 7, 9, 11, 12, 20, 21, 23, 26, 31, 37, 41, 60, 71, 81, 84, 88, 94, 105.

**LADOTONALLIK** – bosh tonni belgilangan balandlikda joylashgan major yoki minor ladi (*Tonallikka* qarang).

Adabiyot: 21, 88.

**LAD FUNKSIYALARI** – lad pog’onalarining xususiyati, pog’onalarning ahamiyati bilan belgilanadi: I-pog’ona – bosh tayanch tovush – tonika; tonika atrofisidagi II va VII-pog’onalar – yuqorigi va pastki yetakchi ton deb yuritiladi. V-pog’ona – dominanta; IV-pog’ona – subdominanta; III, VI – mediantalar (yuqorigi va pastki).

Lad funksiyalari garmoniya fanida qo’llanilib, har bir akkordning laddagi o’rniga vazifasi bilan belgilanadi.

Lad funksiyalarining uch garmonik turi farqlanadi: 1) tonika (T); 2) dominanta (D); 3) subdominanta (S).

Adabiyot: 2, 21, 27, 28, 84, 87, 88, 105.

**LIDİY KVARTASI** – lidiy ladining I va IV pog’onalarida hosil bo’lgan orttirilgan *kvarta* intervali.

**LIDİY LADI** – *Diatonik ladlarga* qarang.

**LOKRIY LADI** – *Diatonik ladlarga* qarang.

**MAJOR** (*it. maggiore* – katta) – katta (major) uchtovushligiga tayanuvchi lad. Major lot. – *dur* deb belgilanadi. Uning barcha noturg‘un tovushlari tonikaga intiladi.

Majorning quyidagi turlari mavjud:

- 1) tabiiy major (*Tabiiy majorga* qarang);
- 2) garmonik major (*Garmonik majorga* qarang);
- 3) melodik major (*Melodik majorga* qarang).

Adabiyot: 21, 46, 54, 76, 84, 87, 88, 89, 94, 105.

**MEDINANTA** (*frans. mediante; lot. medians* – o’rtada joylashgan) – tonikadan *tersiya* yuqorida yoki pastda joylashgan, ya’ni ladning III- va VI-pog’onalarida tuzilgan akkordlarning belgilanishi.

1) *majordagi pastki medianta* (VI-pog’ona uchtovushligi). Parallel lad markazi. Pastki mediantaning *Bo’lingan kadensiyada* roli muhim.

2) *majordagi ustki medianta* (III-pog’ona uchtovushligi) – tonika va dominanta funksiyalarini umumlashtirganligi sababli, *kvinta-yetakchi ton* va *asosiy ton* o’rtasida qarama-qarshilik hosil bo’ladi. Shu sababli ustki medianta funksional tarafdan sust bo’lib, kam qo’llaniladi. Yuqorigi tetroxordni garmoniyalashda ustki medianta o’tkinchi akkord sifatida kiritiladi (I-III-IV).

3) *minordagi ustki mediantaning ikki turi* mavjud. Garmonik (III-orttirilgan uchtovushlik) va tabiiy (III- major uchtovushligi). Lad tarafidan III akkordida – *yetakchi ton* va turg‘un *tersiya* toni o’rtasida qarama-qarshilik hosil bo’ladi va u I-III-VI aylanmasida qo’llanilgani ma’qul. Minordagi tabiiy ustki medianta – yondosh lad markazidir. U kuchli hissada tonika o’rnini egallab modulyatsion

ahamiyatini kasb etishi mumkin (I-VI-III<sup>T</sup>; I-VII<sup>T</sup>-III<sup>T</sup>). Pastlama tabiiy tetraxordda o'tkinchiakkord ahamiyatini kasb etadi.

Adabiyot: 9, 21, 87, 88.

**MELODIK-GARMONIK MODULYATSIYA** – dissonans akkordlarning melodik aloqasiga asoslangan va muayyan funksional munosabatda ega bo'lmagan modulyatsiya. Modulyatsiyaning bu turi kutilmagan va to'satdan sodir etilgan toifaga taalluqli va shuning uchun *elliptik* modulyatsiya deb ham yuritiladi.

L. Betxoven. Simfoniya №7. III.



Adabiyot: 2, 9, 54, 87, 88.

**MELODIK MAJOR** – tabiiy majordan VI va VII pog'onasining pasaytirilganligi bilan farqlanuvechi lad.

C dur



Adabiyot: 14, 15, 36, 76, 84.

**MELODIK MINOR** – yugorilama harakatda VI va VII pog'onalarning ko'tarilishi; pastlama harakatda minoring tabiiy ko'rinishida vujudga keluvchi lad.



Adabiyot: 14, 15, 36, 76.

**MELODIK MODULYATSIYA** – kuy harakatining o'zida modulyatsion alomatlarni paydo bo'lishi bilan belgilanadigan modulyatsiya.

(Allegretto)

V. Motsart. Son. № 11, III.



Adabiyot: 2, 54, 87.

**MELODIK FIGURATSIYA** –akkord tarkibiga kirmagan, lekin uni tonlariga tobe bo'lgan tovushlarni garmoniya bilan kelishilgan holda, mustaqil melodik harakatda vujudga keladi. Melodik figuratsiyada bu tovushlarakkordsiz deb yuritiladi. Akkordsiz tovushlarning quyidagi turlari mavjud: 1) *to'xtalma*; 2) *o'tkinchi tovushiar*, 3) *yordamchi tovushlar*, 4) *kambiata*; 5) *pred'yom*.

Adabiyot: 21, 53, 54, 67, 86, 87, 88, 89.

**MIKROXROMATIKA** – xromatikaning bir turi, yarim tonli pog'onalar oraliq'ida chorak tonlar, o'n olti tonliklarning qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Adabiyot: 50, 94.

**MIKSOLIDIY LADI** – *Diatonik ladlarga qarang.*

**MINOR** (*ital.* minore – kichik) – bu lad kichik (minor) uchtovushligiga tayanadi. Minor *lot.* – *moll* deb belgilanadi. Uning barcha noturg'un tovushlari tonikaga intiladi.

Minorning quyidagi turlari mavjud:

- 1) tabiiy minor (*Tabiiy minorga qarang*);
- 2) garmonik minor (*Garmonik minorga qarang*);
- 3) melodik minor (*Melodik minorga qarang*).

Adabiyot: 21, 36, 46, 54, 76, 84, 87, 88, 89, 94.

**MODALLIK** – muayyan lad tovushqatorini o'z asosiga olgan garmoniya tamoyillaridan biri. Modal turdag'i ladning o'ziga xos belgisi – muayyan tovushqatorgagina amal qilishi bilan xarakterlanadi (asosiy tonikaga bog'lanmaydi).

Modal turdag'i ladlar:

1) ioniy, eoliy, doriy, frigiy, lidiy, miksolidiy, lokriy, gipofrigiy, "obixod", podgalyan (lidiy-miksolidiy); dominantali, ikkita orttirilgan sekundali (turli ko'rinishdagi). O'ziga xos turdag'i – o'zgaruvchan – ladli, o'zgaruvchan – tonal tizimlar; pentatonika.

2) Simmetrik ladlar – butuntonli, kamaytirilgan, orttirilgan va uchtonli tovushqatorlar.

Adabiyot: 7, 23, 24, 31, 37, 82, 93, 94.

**MODULYATSIYA** – (*lot. modulatio – teng o'ichovli*) – bir tonallikdan ikkinchi tonallikka o'tish. Modulyatsyaning xarakterli alomatlaridan biri bu – tovushning alteratsion o'zgarishidir. O'zgargan tovush esa asosan yetakchi tonni yoki yangi tonallik dominantasining septima tonni hosil qiladi. Bir tonallikdan ikkinchi tonallikka olib keluvchi bunday alteratsiya – modulyatsion alteratsiya deyiladi. Ba'zi hollarda modulyatsiya o'zaro yaqin bo'lgan tonallikkarda alteratsiyasiz ham amalga oshirilishi mumkin, u holda yangi tonallikka o'tish vositasini ma'lum garmonik aylanma belgilaydi. Erishilgan yangi tonallikni ahamiyatliligi mustahkamlash kadansga bog'liqidir.

Modulyatsyaning asosiy turlari:

- 1) **funktional** (*Funksional modulyatsiyaga qarang*)
- 2) **engarmonik** (*Engarmonik modulyatsiyaga qarang*)
- 3) **melodik – garmonik** (*Melodik – garmonik modulyatsiyaga qarang*)
- 4) **melodik** (*Melodik modulyatsiyaga qarang*)
- 5) **taqqoslama** (*Taqqoslama modulyatsiyaga qarang*).

Modulyatsiya asta-sekin, ya'ni tayyorlangan, alohida e'tiborni jalg etmaydigan o'tish orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri bexosdan, ya'ni keskin buriish orqali sodir bo'lishi mumkin. Tonallikning "funktional og'irligi" uning davomiyligi bilan belgilanadi. Bu borada modulyatsiya 2 turga ega:

*Mukammal modulyatsiya* – ikkinchi tonallikning dastlabki tonallikka nisbatan turg'unligi kuzatiladi.

*Nomukammal modulyatsiya* – yuqorigi turning aksi bo'lib, ikkinchi tonallikning dastlabki tonallikka nisbatan kamroq turg'unligi kuzatiladi. Nomukammal modulyatsyaning 2 turi mavjud – *modulyatsion og'ishma* (avvalgi tonallikka qaytish); *o'tkinchi modulyatsiya* (yangi tonallikka o'tish jarayonidagi o'tkinchi zanjir).

Adabiyot: 2, 6, 12, 21, 27, 28, 29, 34, 46, 49, 52, 53, 54, 61, 64, 65, 66, 67, 75, 87, 88, 94, 97.

**MONODIYA** (*yunon. μονωδία – yagona kuy*) – musiqiy tafakkurning bir turi bo'lib, bir ovozlik ijro bilan xarakterlanadi. Monodiya o'rta asr Yevropa, ko'proq esa butkul Sharq musiqasiga xosdir.

Adabiyot: 18, 19, 25, 39, 42, 105.

**MONOINTERVALLI AKKORDLAR** – bir xil intervallardan tuzilgan bo'lib, kvartali (*Kvartakkordga qarang*), kvintali (*Kvintakkordga qarang*), sekundali (*Sekundakkordga qarang*) turlariga bo'linadi.

Adabiyot: 2, 12, 23, 24.

**MUKAMMAL KADENSIYA** – *Kadensiyaga qarang*.

**MUKAMMAL MODULYATSIYA** – *Modulyatsiyaga qarang*.

**MUSIQIY TIZIM** – fakturaning bayon etilishi turli tamoyillarga asoslanadi. Ular musiqiy tizim deb nomlanadi: 1) monodik tizim (*Monodiyaga qarang*); 2) polifonik tizim (*Polifoniyaga qarang*); 3) akkordli tizim (*Akkordli tizimga qarang*); 4) gomofon tizim (*Gomofoniyaga qarang*).

Adabiyot: 12, 86, 87, 88, 89.

**MUSIQIY FAKTURA** – (*lat. factura* – qilayapman) – musiqiy matnning bayon etish usuli bo'lib, kuy, garmoniya va ritm birligida namoyon bo'ladi. Faktura musiqiy tovush, ohanglar orqali fazoviy sohani to'ldiradi.

Musiqiy matnning konfiguratsiyasi uch taraflama qabul qilinadi: 1) vertikal yo'nalish bo'yicha (ovoz funksiyalarining bir vaqtida yangrashi); 2) gorizontal yo'nalish bo'yicha (fakturaning vaqt mobaynida o'zgarishi); 3) fakturaning chuqurligi bo'yicha (ovozlarning qatlamlarga bo'linishi).

Faktura konfiguratsiya sifatida nafaqat ovozlar yo'nalishi bilan, balki ovozlar yig'indisi, shuningdek ovozlarning "bo'yog'i" va yorqin foni bilan ham belgilanadi.

Fakturaning bayon etilishi turli tamoyillarga asoslanadi. Ular musiqiy tizimlar deb nomlanadi (monodik, polifonik,akkordli, gomofon tizimlar).

Garmoniyani bayon etilishi fakturaning 4 turiga ajratiladi:

- 1) koloristik qatlamlanish;
- 2) garmonik figuratsiya;
- 3) ritmik figuratsiya;
- 4) melodik figuratsiya.

Adabiyot: 12, 21, 48, 55, 58, 72, 86, 87, 88, 89, 96.

**NEYTRAL PARALLEL KVINTALAR** – alt va tenor o'rtasida mavjud bo'lib, ular ravshan eshitilmaydi. Shuning uchun klassik garmonyada va o'quv tajribasida qo'llaniladi. Neytral parallel kvintalar hisobiga mashhur "Motsart kvintalari" ham kiradi.



Adabiyot: 2, 83, 87, 88.

**"NEAPOLITAN SEKSTAKKORDI"** (*ing. the neapolitan sixth, nem. neapolitanisher sextakkord*) – II past pog'onadagi sekstakkord. Neapolitan sekstakkordi neapolitan opera maksiyati kompozitorlarining asarlarida qo'llanilgani sababli shunday nom olgan (A. Skarlatti va b.) Neapolitan sekstakkordining xarakterli tovushi – II past pog'ona.



Adabiyot: 50, 87.

**NOMDOSH MAJOR – MINOR** deb nomdosh ladlar (Do major va do minor)ning tabiiy turlarining umumlashtirilgan holda qo'llanishiga aytildi. Bunda major tonikasi bosh o'rinni egallaydi. Agar minor tonikasi boshchilik qilsa, unda kamroq yuritiladigan nomdosh minor – major tizimi hosil bo'ladi.

Nomdosh major – minorning shakllanishi qadimgi musiqadan boshlangan. Bu hol asarning oxirida yoki sezurali bo'lmalarida minor uchtovushligining major uchtovushligiga almashtirilishidan iborat bo'lgan. Shu xildagi yakunlanish I.S.Bax asarlarigacha saqlanib qolgan.

Major tarkibi nomdosh minorni subdominanta guruhiakkordlari bilan boyitilishi:

A musical staff in G major (one sharp) with a treble clef. It shows four chords: T (Tonic), II<sup>⁹</sup>, IV<sup>⁹</sup>, and VI<sup>⁹</sup>. The notes are: T (G-B-D-G), II<sup>⁹</sup> (A-C-E-G), IV<sup>⁹</sup> (D-F-A-C), and VI<sup>⁹</sup> (B-D-F#-A).

Major tarkibi nomdosh minorni dominanta guruhiakkordlari bilan boyitilishi:

A musical staff in G major (one sharp) with a treble clef. It shows four chords: T (Tonic), III<sup>⁹</sup>, V<sup>⁹</sup>, and VII<sup>⁹</sup>. The notes are: T (G-B-D-G), III<sup>⁹</sup> (B-D-F#-A), V<sup>⁹</sup> (D-F#-A-C), and VII<sup>⁹</sup> (A-C-E-G).

Do major – minorningakkordli tarkibi:

A musical staff in C major (no sharps or flats) with a treble clef. It shows five chords: T (Tonic), t (Subtonic), III<sup>⁹</sup>, VI<sup>⁹</sup>, and VII<sup>⁹</sup>. The notes are: T (C-E-G-C), t (D-F-A-D), III<sup>⁹</sup> (E-G-B-E), VI<sup>⁹</sup> (A-C-E-A), and VII<sup>⁹</sup> (G-B-D-G).

do minor-majorningakkordli tarkibi:

A musical staff in A minor (one flat) with a treble clef. It shows four chords: t (Subtonic), T (Tonic), III<sup>⁹</sup>, and VI<sup>⁹</sup>. The notes are: t (D-F#-A-D), T (A-C-E-A), III<sup>⁹</sup> (E-G-B-E), and VI<sup>⁹</sup> (C-E-G-C).

Nomdosh major-minor rivojlanishining yakuniy bosqichida har qandayakkord (major yoki minor) nomdosh uchtovushlikka almashtirilishi imkonipaydo bo'ldi.

Adabiyot: 2, 9, 12, 21, 28, 29, 36, 44, 53, 54, 75, 84, 87, 88, 94.

**NOMUKAMMAL KADENSIYA - Kadensiyaga qarang.**

**NOMUKAMMAL MODULYATSIYA – Modulyatsiyaga qarang.**

**NONAKKORD** – basdan hisoblaganda, septakkordga yuqorida nona qo'shilgan beshtovushlikdir. Nonakkordning nonasi katta bo'lsa – katta nonakkord, nonasi kichik bo'lsa – kichik nonakkord deyiladi. Katta nonakkord tabiiy majoring V bosqichida, kichik nonakkord esa garmonik major va minorning V bosqichida uchraydi.

A comparison of chord structures between C major (C dur) and A minor (a moll). Both show a V9 chord structure. The C major staff has notes C, E, G, B, D, F#, A, C. The A minor staff has notes A, C, E, G, B, D, F#, A.

To'rtovozli to'qimada uning kvintasi (tersiya va septimasini kamroq) tushirib goldiriladi. Nonakkord asosiy tonika uchtovushligiga yechiladi, bunda uning nonasi I bosqich uchtovushligining kvintasi tomon pastga tushadi, boshqa ovozlar esa dominantseptakkorddagi kabi harakatlanadilar (*Dominantseptakkordga qarang*). Nonakkordni IV va II bosqich asosiy uchtovushliklaridan keyin ham, II bosqich sekstakkordidan va septakkordlaridan keyin qo'yish lozim, ular asosan yuqorigi ovozdagi nona bilan garmonik aylanmada qo'shib bog'lanadi.

Nonakkord tabiiy majorda IV bosqichning uchtovushligi bilan sekstakkordlari o'rtaida o'tkinchi akkord tariqasida kelishi mumkin. Nonakkordni major va melodik minorning VI bosqich septakkordi oldidan tatbiq qilinishi o'rnlidir. Nonakkord asosan kadensiyalarda qo'llaniladi.

XIX asrda Betxoven, Shubert, Grig, Brams va boshqa kompozitorlar ijodida nonakkord nafaqat kadensiyalarda, balki mustaqil akkord sifatida qo'llanilib, shaklning har qaysi nuqtasida uchraydi. Shuningdek, XIX asr oxiri va XX asr kompozitorlari (Ravel, Skryabin) nonakkordning dominanta ( $D_9$ ) ko'rinishi bilan chegaralanmay, uning boshqa turlaridan ( $II_9$ ,  $I_9$ ) ham keng foydalanishgan.

Adabiyot: 2, 28, 29, 53, 54, 65, 66, 67, 87, 88, 97.

**OBERTON QATORLARI** (*nem. obertone – yuqorigi tonlar*) – asosiy tonning tarkibiga kirgan, yangrovchi jismning qisman tebranishi natijasida vujudga kelgan tonlar; obertonlar asosiy tondan yuqorida joylashadi. Oberton tonlari balandlik o'sishi tartibida tabiiy tovushqatorni vujudga keltiradi.

Do tovushidan:

Oberton qatori turli tembr xususiyatlarini ham belgilaydi; obertonning pastki tovushlari asosiy tonga yumshoqlikni, baxmallikni; obertonning yuqorigi tovushlari asosiy tonga keskinlikni baxsh etadi.

Adabiyot: 2, 84, 85.

**OVOZ YO'NALISHI** – deb akkordlarning o'zaro kuy va funksional taraflama birikishiga aytildi. Akkordlarning o'zaro bir-biri bilan bog'lanishi to'rtovozli to'qimada amalga oshirilishi mumkin. Uchtovushlikni to'rtovoz qilib joylash uchun uning asosiy tonini juftlash kerak (o'quv mashqlarida). Yuqorigi ovoz – soprano, yuqoridan ikkinchisi – alt, uchinchisi – tenor, to'rtinchisi (pastki) – bas.

Ovoz yo'nalishining 3 xili mavjud:

1) ikki ovozning bir tomoniga qarab, ya'ni yuqorilama yoki pastlama harakati – to'g'ri harakat:

Four musical staves labeled a, b, d, and e. Staff a shows two voices moving in parallel fourths. Staff b shows two voices moving in parallel thirds. Staff d shows two voices moving in parallel sixths. Staff e shows two voices moving in parallel fifths.

a) va b) misollaridagi bir xil intervallar bo'yicha to'g'ri harakat – parallel harakat deyiladi.

2) tovushlar har tomoniga qarab harakat qilsa, ya'ni biri ko'tarilib, ikkinchisi pasaysa, bunday harakat turiga – qarama-qarshi harakat deyiladi.

A musical staff showing two voices. The top voice moves in eighth-note pairs, and the bottom voice moves in eighth-note pairs, illustrating a different type of harmonic relationship than parallel movement.

3) ovozlarning biri siljib, ikkinchisi o'z o'rnidagi qolsa, bunday harakat turiga – qiya harakat deyiladi.


A musical staff showing a single melodic line with slurs and grace notes, illustrating a third type of harmonic relationship.

4) to'g'ri harakat qarama-qarshi harakat bilan, qiya harakat qarama-qarshi harakat bilan, to'g'ri harakat qiya harakat bilan o'zaro birlashishi ham mumkin. Bunday harakatga aralash harakat deyiladi.

Adabiyot: 2, 9, 12, 21, 54, 65, 66, 67, 75, 84, 87, 88, 89, 94.

**ORGAN PUNKTI** (*frans. pedale; ingl. pedal point – pedal puntti*) – ko'povozli musiqada yagona ovozni boshqa tovushlar garmonik harakati bilan birlgilikda uzoq vaqt mobaynida yangrashi. Bu atamaning kelib chiqishi organ soziga borib taqaladi. Organ punkti asosan pastki ovozlarda joylashib, to'qimaning basi hisoblanadi. Musiqada organ punktining dominanta – V pog'ona va tonika – I pog'ona turlari ko'p uchraydi.

Musical score for organ by H. Raximov, titled "Prelyudiya". The score consists of two staves. The top staff is in treble clef and the bottom staff is in bass clef. The key signature is B-flat major (two flats). The tempo is marked as "Moderato rubato". Dynamics include "pp" (pianissimo) and "p" (piano). The score features sustained notes (pedal points) in the bass line while the treble line provides harmonic support and melodic interest.



Organ punkti:

- 1) ovozlar joylashuvi bo'yicha (bas, soprano va o'rta ovozda)
- 2) ovozlarning eshitilishi bo'yicha (bittali, ikkitali, guruhli va h.)
- 3) fakturaning bayon etilishi bo'yicha (ostinato, figuratsiyali)
- 4) joylashuvi va shakldagi funksiyasi bo'yicha (koda, pred'ikt, boshlang'ich, o'rta) farqlanadi.

Adabiyot: 9, 28, 29, 53, 54, 67, 75, 86, 88, 94.

**ORTTIRILGAN INTERVALLAR** deb intervallarning sof yoki katta turidan xromatik yarim tonga kengroq bo'lgan intervallarga aytildi. Har qanday interval orttirilishi mumkin.

a) sof intervallarning orttirilishi

prima	oktava	kvarta	kvinta

b) katta va kichik intervallarning orttirilishi

sekunda	tersiya

yo'q

sexta	septima

yo'q

Shuningdek ikki marotaba orttirilgan intervallar mavjud:

--	--	--

2 mar. ort. 4      2 mar. ort. 1      2 mar. ort. 8

### **Adabiyot: 50.**

**ORTTIRILGAN LAD** – simmetrik ladning bir turi, uning asosini katta tersiyali akkord tashkil etadi (orttirilgan uchtovushlik). Orttirilgan lad uchko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: akkordli, melodik va guruhli.

A musical score page featuring two staves. The top staff is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a time signature of 3/4. It contains six measures of music. The bottom staff is in bass clef with a key signature of one sharp (F#) and a time signature of 3/8. It also contains six measures of music. Measure numbers 1 through 6 are written above the top staff, and measure numbers 7 through 12 are written above the bottom staff. The score includes various dynamic markings like 'p', 'f', and 'ff', as well as performance instructions like 'bassoon' and 'clarinet'.

Adabiyot: 50.

- **OG'ISHMA** – musiqa asarining ma'lum bir qismida yangi tonallik paydo bo'lib, kadensiya orqali tasdiqlanmasa og'ishma hosil bo'ladi. Og'ishma ko'proq o'rta qismlarga xosdir.

**Adabiyot:** 2, 10, 28, 29, 53, 54, 94.

**PARALLEL KVINTALAR** – musiqa nazariyasida parallel, qarama-qarshisof kvintalar harakatiga yo'l qo'yilmaydi. Parallel kvintalar – effektiv (*effektiv kvintalarga qarang*); neytral (*neytral kvintalarga qarang*) turlariga ega.

**Adabiyot:** 2, 83, 87, 88, 89.

**PARALLEL MAJOR-MINOR** deb parallel garmonik ladlarning o'zaro birikishiga aytildi. Parallel garmonik ladlarning umumlashtirilishi majorga garmonik minoring dominanta guruhi akkordlari, minorga garmonik majorning subdominanta guruhi akkordlarining kirib borishi bilan belgilanadi.

**Adabiyot:** 2, 12, 21, 53, 54, 94.

**PARALLEL OKTAVALAR (UNISON)LAR** – garmonik toʻrtovozlikda ovozlar mustaqilligiga ziyon yetkazadigan parallel oktava (unison)lar harakatiga yoʼl qoʼyish oʼrinsizdir. Ular yoqimsiz, boʼshliq taassurotini uygʼotadi.

Adabiyot: 2, 83, 87, 88, 89.

**PENTATONIKA** (*yunon.* πεντάτονος – besh va ton) – oktava oralig‘idagi turli balandlikka ega bo‘lgan 5 tovushli tizimdir.



Pentatonika tovushqatoridagi pog‘onalar oralig‘i butun ton (kat.2) va bir yarim ton (kich.3)lardan iborat. Pentatonikaning yarimtonsiz turi ko‘proq tarqalgan bo‘lib, u angemiton, ya’ni yarim tonsiz pentatonika deyiladi. Pentatonika xitoy, shotland, mo‘g‘ul, yapon va boshqa xalqlar musiqasi uchun xarakterlidir.

Adabiyot: 76, 94.

**PLAGAL KADENSIYA** (*yunon.* πλαγαί γένος – qiya) – garmonianing subdominanta va tonika izchilligidagi kadensianying bir turi (IV-I, II<sup>6</sup>-I, VII<sup>4</sup>-I va h.) Plagal kadensianying *to‘liq* (S-T) va *yarim* (T-S) turlari mavjud.

Adabiyot: 50, 65, 66.

**POLIAKKORDIKA** – (*yunon.* πολυτόνος – ko‘p vaakkord) – ko‘pakkordli, ya’ni bir vaqtida bir nechta mustaqil, aniq farq qiluvchi turliakkordlarning yangrashi. Uchtovushlik – uchtovushlik bilan, septakkord – uchtovushlik bilan, nonakkord – septakkord bilan yoki tersiyaviy majmua hamda notersiyaviy majmua bilan bir vaqtida yangrashi mumkin. Har birakkordning birlashib eshitilishi yoki umuman birlashmasligi fakturaga bog‘liq.

Adabiyot: 12, 24, 57.

**POLIGARMONIYA** (*yunon.* πολυτόνος – ko‘p va garmoniya) – o‘z tarkibiga bir vaqtida alohida tonlarni emas, balkiakkordlar, ohangdoshlarning yig‘indisini umumlashtiradi.

N. Zokirov. "Kichkina syuita". IV q.

Adabiyot: 12, 24, 57.

**POLIINTERVALLI AKKORDLAR** - (*yunon.* πολυτόνος – ko‘p va interval) – o‘z tarkibiga turli intervallarni (sekunda, tersiya, kvarta va boshqa) kiritadi. Bu turdagisi akkordlarning vertikal yig‘indisi bir nechta turli tuzilmaliiakkordlar mujassamligida vujudga kelishi mumkin. Poliintervalli akkordlar kompozitsion maqsadlarga xizmat qilib, fon, bo‘yoq sifatlarini namoyon etadi.

Adabiyot: 2, 23, 24.

**POLILADLIK** (*yunon. πολυς – ko'p va lad*) – turli lad ko'rinishlarini bir vaqtida umumlashgan holda yangrashi.

I. Bax. Kantata № 25

Bundan tashqari diatonik ladlar (miksolidiy, lidiy, ioniy va doriy, frigiy, eliy) ham o'zaro bir vaqtida yangrashi mumkin.

Adabiyot: 41, 86.

**POLIMODALLIK** (*yunon. πολυς – ko'p va lot. modus – lad*) – O. Messian (1944) tushunchasi bo'lib, polilad ko'rinishini belgilaydi. Polimodallik chegaralangan transpozitsiyali ladlarni (*Simmetrik ladlarga qarang*) bir vaqtida umumlashtiradi.

Adabiyot: 50, 23.

**POLITONALLIK** (*yunon. πολυς – ko'p va tonallik*) – musiqiy to'qimaning turli qatlamlarida turli tonalliklarning bir vaqt dagi yig'indisi.

Adabiyot: 12, 21, 23, 24, 40, 41, 53, 57, 58, 86.

**POLIFONIYA** (*yunon.* πολυς – ko'p va φωνη - tovush, ovoz; ko'povozlik) deb ovozlari o'z ahamiyatiga ko'ra mustaqil va o'zaro teng huquq bo'lgan ko'povozlikka aytildi. Fuga, fugetta, invensiya, kanon, polifonik variatsiyalar, XIV-XVI asrlarda motet, madrigal va boshqa musiqiy shakl va janrlar polifonik tizimda bayon etiladi. Polifonik faktura o'zining uzviyligi bilan ajralib turadi.

Polifoniyaning turlari:

*Jo'rovoz* – yagona kuyga murakkab bo'limgan jo'rlikning qo'shilishi (*Geterofoniya* qarang).

*Imitatsion* – imitatsiya tarzida asosiy mavzu har bir ovozda o'tishi.

*Kontrast* – turli mavzularning taqqoslanishi.

Polifoniya janri Bax ijodida o'z ravnaqini topgan.

Allegretto  
picicevole

I. S. Bax. "X.T.K." Ij. Prelyudiya № 1

Adabiyot: 6, 35, 47, 59, 70, 77, 78, 91.

**POLIFUNKSIONALLIK** (*yunon.* πολυς – ko'p va *lot.* functio – ijro) – musiqiy matnning qatlamlanishi. Qatlamlar o'zaro funksional qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Masalan: tonika quyi past registrda, dominanta esa yuqorigi registrda (va buning aksi). Polifunktionsallikning oddiy shakli sifatida turli ko'rinishdagi organ punktni aytish mumkin. Murakkabroq shakldagi polifunktionsallikni quyidagi misolda kuzatish mumkin.

I. Stravinskiy. "Mavra"

Polifunktionallik turli funksiyalarni bir vaqtida yangrashida namoyon bo'ladi. Bu turli funksiyalar o'ziga xos koloristik bo'yoqlarni vujudga keltirish uchun qo'llaniladi. Ular ritm, faktura tomonidan birlashtiriishi mumkin.

Adabiyot: 12, 57, 87.

**POLIQATLAMLIK** (*yunon. πολυς – ko'p va qatlam*) – ko'p ovozli matnning turli qatlamlarga qavatlanishi. Ular bir vaqtida yangrasa ham, turli planlarga bo'linib eshitiladi. Har bir qatlamning tuzilish mantiqi o'zgacha bo'lganligi sababli, qatlamlar orasida o'zaro qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Bu faktura, tuzilish, tonal, funksional yoki lad tomonidan bo'lishi mumkin. Poliqatlamlilik monodiya+monodiya, garmoniya+garmoniya, garmoniya+polifoniya, polifoniya+monodiya va boshqa tizimlarda o'z ifodasini topishi mumkin. Poliqatlamlilik uch ko'rinishga ega: 1) tuzilish bo'yicha (*Poliakkordikaga qarang*); 2) funksiya bo'yicha (*Polifunktionallikka qarang*); 3) tonallik bo'yicha (*Politonallikka qarang*).

Adabiyot: 12, 57, 58.

**PRED'YOM** – deb kuchsiz hissada keyingi akkordga tegishli bo'lgan tovushning nisbatan ilgari kelishiga aytildi.

Adabiyot: 21, 28, 53, 54, 88, 89, 94, 97.

**QAT'ITY OVOZ YO'NALISHI**da akkord tovushlarining bir-biri bilan bog'lanishi lad aloqalariga munosib bo'ladi.

Adabiyot: 2, 27, 28, 53, 54, 88, 97.

**QO'SH DOMINANTA (DD)** – xromatik akkordlar turi. Diatonik lad tizimidagi dominantaning – dominantasıdır.

Bu turdag'i akkordlarning muhim farqlovchi belgisi sifatida gammaning ko'tarilgan IV pog'onasi hisoblanadi. Qo'sh dominanta kadentsiya bo'limlarda qo'llaniladi. Bu akkord odatda dominanta yoki K<sub>b/4</sub>ga yechiladi.

Adabiyot: 2, 28, 54, 94.

**QO'SHIMCHA TONLAR** – akkordning *tersiyaviy* tuzilmasini akkordsiz tonlarning kiritish usuli bilan murakkablashtirishi. Yondosh tonlarning 2 turi mavjud: 1)almashuvchi tonlar (ga qarang); 2) joriylanuvchi tonlar (ga qarang).

Adabiyot: 2, 23, 86, 87.

**RITMIK FIGURATSIYA** – berilgan alohida tonning yoki tonlar yig'indisining metroritmik takrorlanishi. Ritmik figuratsiya ovoz yo'naliшини fakturaviy tomonidan murakkablashtiradi va garmonik, melodik figuratsiyalar bilan birga muhim, keng qamrovli ifoda ahamiyatini kasb etadi.

Adabiyot: 67, 86, 88, 89.

T. Toshmatov. "Raqs".

Allegro

**SEKVENTSIYA** – ma'lum melodik, yoki melodik – garmonik tuzilmaning bir balandlikdan ikkinchi balandlikka ko'tarilishi (yoki pasayishi). Berilgan melodik – garmonik tuzilma sekventsya zanjiri deb ataladi.

C dur

V<sub>7</sub>    I<sub>7</sub>    IV<sub>7</sub>    VII<sub>7</sub>    III<sub>7</sub>    VI<sub>7</sub>    II<sub>7</sub>    V<sub>7</sub>

Sekventsya turlari quyidagi alomatlar orqali farqlanadi.

**Harakatning yo'naliishi bo'yicha:** 1) pastlama; 2) yuqorilama.

**Interval oralig'i bo'yicha:** 1) sekundali; 2); tersiyali 3) kvartali; 4) kvintali.

**Zanjirdagiakkordlarning miqdori bo'yicha:** 1) ikki a'zoli; 2) uch a'zoli; 3) to'rt a'zoli va hokazo.

**Tonal alomatlar bo'yicha:** 1) tonal (sekventsyaning bir tonallikkagi bayoni); 2) modulyatsiyali (sekventsya zanjirlarining turli tonallikkardagi bayoni).

**Motivning saqlanish bo'yicha:** 1) qat'iy; 2) erkin.

Adabiyot: 6, 9, 10, 21, 28, 29, 53, 54, 67, 87, 88, 97.

**SEKSTAKKORD** – uchtovushlikning birinchi aylanmasi, 6 raqami bilan belgilanadi.

C dur

T    T<sub>6</sub>

Funktional tarafdan sekstakkordlar, tegishli bo'lgan uchtovushliklarning vazifasini bajaradi, lekin uning turg'unlik xususiyati uchtovushlikka nisbatan sustroqdir. Sekstakkordlar basning kuychanligini ta'minlaydi.

Yakuniy tuzilmalarda sekstakkordlar qo'llanilmaydi, chunki sekstakkord kadensiyani nomukammal kadensiyaga aylantiradi. Major va garmenik minorda sekstakkordlarning asosi va kvinta toni juftlanadi. II<sub>6</sub>, III<sub>6</sub>, VII<sub>6</sub> sekstakkordlarda tersiya ham juftlanishi mumkin.

Adabiyot: 2, 28, 29, 54, 67, 87, 88.

**SEKUNDAKKORD** – *Septakkord aylanmalariga qarang.*

**SEKUNDAKKORD** – sekundalar izchilligida tashkil topgan ohangdoshlik.




Adabiyot: 2, 23.

**SEPTAKKORD** – tersiya bo'yicha joylashgan, to'rt tovushdan iborat bo'lgan akkord. Septakkord 7 raqami bilan belgilanadi.



Septakkordning tonlari: *asosiy ton* (1); *tersiya toni* (3); *kvinta toni* (5); *septima toni* (7).

Septakkordlarning katta, kichik va kamaytirilgan turlari mavjud:



Septakkord zich mumkin.      va keng      joylashishi

Har qanday septakkord uch aylanmaga ega: kvintsekstakkord (6/5); terskvatakord (4/3); sekundakkord (2).

Adabiyot: 2, 53, 54, 65, 66, 67, 87, 88, 97.

**SEPTAKKORD AYLANMALARI** – har qanday septakkord (II<sub>6</sub>, D<sub>7</sub>, VII<sub>6</sub>, va hokazo) uch aylanmaga ega:

- 1) kvintsekstakkord (a)
- 2) terskvatakord (b)
- 3) sekundakkord (d)



Adabiyot: 54, 65, 66, 88.

**SEPTAKKORDLARNING AVTENTIK YECHILISH**ida septima toni sekundaga pastlama harakatlanadi. Bunday yechilishning uch turi mavjud:

1) pastki kvintali munosabat – V<sub>7</sub>ning I ga yechilishi (asosiy model)

Bunday namunada II<sub>7</sub> - V ga, III<sub>7</sub>-VI ga, IV<sub>7</sub>-VII ga va boshqa septakkordlar yechiladi;

2) yuqori sekundali munosabat - V<sub>7</sub>-VI va VII<sub>7</sub>-I ga yechilishi namunalidir.

3) Pastki tersiyali munosabat VI<sub>7</sub> – IV<sub>7</sub>, I<sub>7</sub>-VI ga yechilishi namunalidir.

Adabiyot: 2, 53, 54.

**SEPTAKKORDLARNING PLAGAL YECHILISH**ida septima toni o‘z o‘rnida, umumiy tovush sifatida qoladi. Bunday yechilishning ikki turi mavjud:

1) pastki sekundali munosabat – II<sub>7</sub> – I<sub>6</sub> ga, V<sub>7</sub> – IV<sub>6</sub> ga, VI<sub>7</sub> – V<sub>6</sub> ga yechilishi;

2) pastki kvartali munosabat – IV<sub>7</sub>-I ga yechilishi nazarda tutiladi.

Adabiyot: 2, 53, 54.

**SEPTIMA TONI** – septakkord va nonakkordning tersiya qatoridagi to‘rtinchı tovush.




Barcha septakkordlar asosiy ton va septima toni o‘rtasida septima intervali hosil bo‘lganligi sababli septakkord deb nom olgan. Septima toni 7 raqами bilan belgilanadi.

Adabiyot: 67.

**SIMMETRIK LADLAR** – tovushqatori oktavaning teng bo‘linishiga asoslangan lad. Major yoki minor ladiga qaraganda simmetrik ladlar major yoki minor uchtovushligi asosida emas, balki 12 yarimtonliklarning 2, 3, 4 yoki 6 ga teng qismlarga bo‘linishidan hosil bo‘lgan ohangdoshlik asosida tashkil topadi.





**Adabiyot:** 90, 50.

**SOKTA DOMINANTSEPTAKKORDLAR** – akkordlarning alteratsiyalanganligi sababli hosil bo‘ladi, yozilishi o‘zgacha bo‘lsada, yangrash jihatidan dominantseptakkord bo‘lganligi sababli shunday nomlanadi.

### Measurement

**SUBDOMINANTA** (*lot. sud – osti va dominanta*) – gammadagi IV bosqichning nomlanishi. Subdominantanta S harfi bilan belgilanadi (X.Rimman). Subdominantanta guruhiakkordlariga – II, IV va VI pog'onalarda tuzilganakkordlar kiritiladi. Garmoniyaning tonal – funksional tizimida subdominantanta tonika bilan o'zaro munosabati orqali belgilanadi. Tonikaning asosiy toni subdominantantaakkordining tarkibiga va IV pog'onadan tuzilgan oberton qatoriga kiradi. Rimanning fikricha, garmoniyaning tonika uchtovushligidan subdominantanta uchtovushligiga qarab harakati intilish markazining o'zgarishiga olib keladi, shuning uchun subdominantanta, dominantaga nisbatan tonikaga kamroq intiladi. Subdominantadan so'ng dominantaning kiritilishi intilishni yanada kuchaytirgan holda, tonallikni mustahkamlaydi.

**Adabiyot:** 21, 50, 87.

**TABİY LADLAR GARMONİYASI** – tabiiy ladlarga (*diatonik ladlarga qarang*) asoslangan xalq kuylariga mos keladigan garmoniya vositalarini qo'llash.

Tabiiy ladlar garmoniyasida yetakchi ton kam uchraganligi sababli, dominanta tonikaga kamroq intiladi. Markazni kuchaytirish ko'p marotaba takrorlash orqali amalga oshiriladi. Tabiiy ladlar garmoniyasida bosh tonika vazifasining susayishi, o'zgaruvchan funksiyalarni vujudga kelganligi bilan bog'liqidir. Tabiiy ladlar garmoniyasida lad pog'onalarining funksiyalari (T, S, D va h.) silliqlanadi, niqoblanadi. Natijada funksiyalarning aloqalari erkin bo'lib, dominantadan keyin subdominanta ham qo'llaniladi.

Tabiiy ladlar garmoniyasining kompozitorlar ladomelodik tarafa yondoshgan holda yaratadilar. Bunda akkordlar turli nisbatlarda (sekundali, tersiyali va kvartakvintali), turli interval munosabatida bo'lib, ular ham asosiy markaz, ham o'zaro uyg'unlashishi lozim.

**Adabiyot:** 7, 19, 31, 32, 39, 75, 87, 88, 93.

**TABIY MAJOR** deb 2 ta katta, kichik, 3 ta katta, kichik sekundalar bo'yicha joylashgan gammaga aytildi. I, III, V pog'onalarda joylashgan turg'un tovushlar major uchtovushligini hosil qiladilar. To'rtta noturg'un tovush yondosh turg'un tovushlarga tortiladi.

C dur



Adabiyot: 9, 76, 87.

**TABIY MINOR** deb katta, kichik, 2 ta katta, kichik, 2 ta katta sekundalar bo'yicha joylashgan gammaga aytildi. I, III, V pog'onalarda joylashgan turg'un tovushlar minor uchtovushligini hosil qiladilar. To'rtta noturg'un tovush yondosh turg'un tovushlarga tortiladi.

a moll



Adabiyot: 9, 36, 76, 87.

**TARKIBIY INTERVALLAR** – Intervalga qarang.

**TAQQOSLAMA MODULYATSIYA** – bog'liqliksiz, bexosdan yangi tonallikka o'tish. Taqqoslama modulyatsiya asar bo'linmalarida, pauza yoki sezurali qismlarda uchraydi. Bunday turdag'i modulyatsiya musiqaga yorqin bo'yoqni baxsh etadi.

Adabiyot: 2, 54, 87.

**TERSDETSIMAKKORD** – tersiya bo'yicha joylashgan, 7 tovushdan iborat bo'lgan akkord.



Tersetsimakkord turli ko'rinishda namoyon bo'lib, ba'zan poliakkord qiyofasiga ega bo'lishi mumkin.

Adabiyot: 2, 23, 24.

**TERSIYASIZ TARKIBDAGI AKKORDLAR**ning ikki turi mavjud:


1) O'zgartirilgan tersiyaviy tuzilma – bu turdag'i akkordlar tersiya bo'yicha joylashmasa ham, asl tersiyaviy manba bilan bog'liqligi sezilib turadi. Bunday o'zgarish tonlarning (tersiya yoki kvinta) tushurib qoldirilishi va akkord tuzilmasiga begona bo'lgan yondosh tonlarning kiritilishi natijasida amalga oshiriladi. (*Yondosh tonlar, Almashtirilgan tonlar, Joriylashuvchi tonlarga qarang*).

2) Aynan notersiyaviy akkordlar – bu turdag'i akkordlarning shakllari doimo

S.Slonimskiyning fikriga binoan bu turdag'i intervallarning tarkibiga qarab – monointervalli (*Monointervalli akkordlarga qarang*) va poliintervalli (*Poliintervalli akkordlarga qarang*) akkordlarga bo'linadi.

Adabiyot: 2, 12, 24.


**TERSIYA TONI** – har qanday akkord qaysi turli bo'lishidan qat'i nazar, tersiya qatorining ikkinchi tovushi – tersiya toniga ega.



*Tersiya toni* 3 raqami bilan belgilanadi.

Adabiyot: 67.

**TERSIYA QATORLARI** deb akkordlarning katta yoki kichik tersiya bo'yicha taqqoslanishiga aytildi. Laddagi barcha uchtovushliklarning funksional mohiyati tersiya qatorlarida belgilanadi. Uchtovushliklar bu qatorda umumiy tovushlarning maksimal miqdori bo'yicha joylashtiriladi.




Asosiy tonika uchtovushligidan yiroqlashgan sari noturg'un tovushlar miqdori ko'payib, xususan, umumiy akkordlar soni esa kamayib boradi. Tonikadan pastda subdominanta funksiyali akkordlar, yuqorida esa dominanta funksiyali akkordlar joylashgan. Mediantaning ikki turi (ustki va pastki) Subdominanta – Tonika – Dominanta oralig'ida o'rta vaziyatni egallaydi.

Adabiyot: 2, 21, 53, 87.


**TERSKVATAKKORD** – *Septakkord aylanmalariga qarang*.

**TETRAXORD** deb sekunda bo'yicha joylashgan sof *kvarta* doirasidagi to'rt tovushning yig'indisiga aytildi. Diatonik tetraxordlarning uch turi mavjud:


1) yuqoridagi kichik sekundali



2) o'rtada kichik sekundali



3) pastda kichik sekundali



Ba'zi ladlar bir turdag'i tetraxordlardan tashkil topadi:

Ba'zilari esa turli tetraxordlardan tashkil topadi:

Adabiyot: 50, 76.

**TONALLIK** (*frans. tonalite*) – tor ma'noda ladning tovushlar baland – pastligi qonuniyatlari bo'yicha joylashuvi. Tonallik deb nomlangan – Do major, Iya minorlar – aniqrog'i muayyan ladotonalliklardir, ya'ni lad (major yoki minor) va tonallik (do, Iya) birligidir. Keng ma'noda tonallik – balandlik aloqalari bog'liqliklarining funksional differentsiyalangan tizimidir. Tonallik turg'un funksiya (tonika) va noturg'un funksional (dominant va subdominanta) asosida ierarxik markazlashgandir. Tonallik quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) ratsional markazlashuv;
- 2) funksional tarafning boyligi;
- 3) har birakkordning bir-biri bilan bog'liqligi, tarangligi;
- 4) harakatni markazga faol intilishi.

Adabiyot: 21, 46, 53, 63, 69, 79, 87, 88, 94.

**TONALLIKLAR O'XSHASHLIGI** – funksional modulyatsiyalar tonalliklarning garmonik o'xshashligiga asoslanadi. U umumiyakkordlar bilan belgilanadi. Berilgan tonallik asosiy deb yuritiladi. Agar keyingi tonallikning tonikasi dastlabki (asosiy) tonallik tarkibiga kirsa, u holda I-darajali turdosh tonalliklar o'xshashligi hosil bo'ladi. II darajali turdosh tonalliklar o'xshashligida ikki tonalliklar o'rta sida bitta umumi uchtovushlikning mavjudligi (tonikadan tashqari) kifoya. Umumi uchtovushligi bo'lmagan tonalliklar uzoq hisoblanib, funksional bog'liqlik o'rta sida o'zaro yaqin tonalliklar orqali amalga oshiriladi.

Adabiyot: 2, 20, 21, 24, 27, 34, 53, 65, 66, 75.

**TONAL REJA** – har bir musiqiy asar ma'lum tonallikda bayon etiladi. Funktsional nazariyu nuqtai nazaridan bu tonallik yuksak tartibdag'i tonika vazifasini bajaradi. Asarning tonal tuzilishi uning rivojini, qismlarning o'zaro munosabatini, shaklning yaxlitligini ta'minlaydi. Turli davrlarda yaratilgan musiqiy asarlarning tonal rejasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Har qanday shakllarda,

xususan, davriya, 2, 3 qismli oddiy va murakkab shakllar, rondo, sonata va siklik tuzilmalarda, oratoriya, kantata va operalarda bosh tonallikning o'mni muhimdir.

Adabiyot: 9, 27, 28, 53, 77, 78.

**TONIKA** (*frans. tonique, nem. Tonika*) – ladning birinchi bosqichida tuzilgan uchtovushlik, turg'un lad markazi. Kuchli hissada garmonik harakatni to'xtatadi (ayniqsa melodik joylashuvda *asosiy ton* bo'lsa). Tonikaning kuchsiz hissada harakatni to'xtatish xususiyati pasayadi yoki neytrallahadi. Tonika, subdominantna va dominanta singari ladning bosh uchtovushliklar vazifasini bajaradi.

Adabiyot: 21, 50, 87.

**TRIXORD** (*yunon. τριχορδος* – uch torli) – uch pog'onali tovushqator (masalan, d – e – f). Diatonik tizimlarda trixord lad komponenti sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyot: 50.

### TO'LIQ KADENSIYA – *Kadensiyaga qarang.*

**TO'XTALMA** – ilgarigi akkord tovushining ikkinchi akkord doirasida, kuchli hissada uning tarkibiga kirmagan holda uzaytirilishi.

a) to'xtalma uch bosqichdan iborat: tayyorlov, to'xtalma va yechilish (sekunda harakati bilan). Uzaytirish liga, uzun nota bilan amalga oshiriladi.

b) ba'zi hollarda to'xtalma tayyorlov bosqichidan holi bo'lishi ham mumkin. Bunday to'xtalma "tayyorlanmagan to'xtalma" deb yuritiladi.

Adabiyot: 21, 28, 29, 54, 86, 88, 89, 94, 97.

**UNDETSIMAKKORD** – tersiya bo'yicha joylashgan, 6 tovushdan iborat bo'lgan akkord.

Undetsimakkord turli ko'rinishda namoyon bo'lib, ba'zi sharoitlarda poliakkord qiyofasiga ega bo'ladi.

Adabiyot: 2, 23, 24.

**UCHTOVUSHLIK** – prima yoki asosiy ton, tersiya va kvintadan iborat bo'lgan akkordga uchtovushlik deyiladi. Intervallarning katta, kichikligiga qarab, uchtovushliklar to'rt turga ega:

a) katt. 3      b) kich. 3      c) katt. 3      d) kich. 3      e) katt. 3

a) prima, katta tersiya va sof kvintadan iborat bo'lgan uchtovushlik – katta yoki major uchtovushligi deyiladi (katta tersiya + kichik tersiya).

b) prima, kichik tersiya va sof kvintadan iborat bo'lgan uchtovushlik – kichik yoki minor uchtovushligi deyiladi (kichik tersiya + katta tersiya).

d) prima, kichik tersiya va kamaytirilgan kvintadan iborat bo'lgan uchtovushlik – kamaytirilgan uchtovushlik deyiladi (kichik tersiya + kichik tersiya).

e) prima, katta tersiya va orttirilgan kvintadan hosil bo'lgan uchtovushlik – orttirilgan uchtovushlik deyiladi (katta tersiya + katta tersiya).

Uchtovushlik ikki aylanmaga ega: 1) sekstakkord ( $\frac{6}{4}$ ); 2) kvartsekstakkord ( $\frac{6}{4}$ ).

Adabiyot: 2, 28, 29, 53, 87, 54, 65, 66, 67, 97.

**UCHTONLIK ZAMINIDAGI LAD** (B. L.Yavorskiy termini) – simmetrik ladning bir turi. Lad markazi uchtonlikni hosil etadi.

O. Messian. " Tasavvurdagi kuy ohanglari"

Adabiyot: 50, 90.

**"VENGR GAMMASI"** – ikkita orttirilgan sekundali ladning shartli nomlanishi. "Vengr gammasi" qo'sh garmonik lad yoki "sigan gammasi" deb ham yuritiladi. U vengr, sigan va boshqa xalqlar musiqasida qo'llaniladi. "Vengr gammasi"ning ikki turi keng tarqalgan: 1) tabiiy minor ladiga nisbatan IV va VII pog'onalar ko'tarilgan; 2) II va VI pog'onalarda tuzilgan orttirilgan sekundali qo'sh garmonik lad.

“Vengr gammasi”ning har ikki turi oktavali tovushqator hisoblanadi.  
Adabiyot: 50.

**XROMATIZM** (*yunon. χρωματισμός* – bo’yoq, rang) yarim tonli tizim. Ladning har bir pog’onasi xromatik o’zgartirilishi mumkin. Mumtoz tonal musiqada xromatizm mustaqil tizimni tashkil etmaydi, u diatonika ustidagi qurilmadir. Xromatizm turlari – modulyatsiyali xromatizm, subsistemali xromatizm, yetakchi tonli xromatizm, alteratsiyali xromatizm, tabiiy xromatizm.

Adabiyot: 9, 76, 94.

**XROMATIK TIZIM** – *O’n ikki pog’onali tizimga qarang.*

**XROMATIK GAMMA** – yarim ton oralig’ida 12 ta tovushlarning yuqorigi yoki pastki harakatdagi izchillik. Xromatik gamma tabiiy major yoki tabiiy minor tovushqatoridagi katta sekundalarln xromatik yarimtonliklar bilan to’ldirilishi natiyasida tashkil topadi. Yuqorigi harakatdagi xromatik gammada yarimtonliklar pog’onalarning ko’tarilishida (♯); pastki harakatdagi xromatik gammada yarimtonliklar pog’onalarning pasaytirilishida (♭) namoyon bo’ladi.

Majorda yuqorigi harakatda VI pog’ona ko’tarilmasdan, o’rniga VII pog’ona pasaytiriladi; pastki harakatda V pog’ona pasaytirilishi o’rniga IV pog’ona ko’tariladi.

Minorda yuqorigi harakatdagi xromatik gammaning yozilish qoidalarli parallel major singari bo’lib, pastki harakatdagi xromatik gammaning yozilishi nomdosh major qoidalariiga asoslanadi.

The image contains two musical staves. The top staff is in G major (G-C-D-E-F-G) and shows a sequence of notes from I to VII, then back to I, with Roman numerals below each note. The bottom staff is in A minor (A-C#-D-F#-G-A) and shows a similar sequence with Roman numerals. Both staves illustrate the chromatic gamma scale where some notes are replaced by their enharmonic equivalents.

Adabiyot: 50, 76, 87.

**YAKUNIY KADENSIYA** – *Kadensiyaga qarang.*

**YASHIRIN PARALLELIZMLAR** – ikki ovozni oktava yoki kvinta tomoniga to’g’ri harakati va sopranoning yuqori sakrashi yashirin parallelizmni hosil qildi. U chetdagisi kuchli tovushlar harakati orqali eshitiladi. Effektiv yashirin parallelizmni qo’llash o’quv tajribasidagina man’ etilgan.

A musical staff in C major (C-E-G-B) showing two voices. The top voice (soprano) has notes with stems pointing down, and the bottom voice (bass) has notes with stems pointing up. Roman numerals 1 through 8 are placed above the notes to indicate pitch intervals between the voices.

Adabiyot: 2, 83, 87, 88, 89

**YETAKCHI TON** – ladning noturg‘un tovushi bo‘lib, I– pog‘onadan sekunda pastda (VII) yoki yuqorida (II) joylashgan holda unga intiladi. VII pog‘ona tovushi – pastki *yetakchi ton*; II pog‘ona yuqorigi yetakchi ton deyiladi. VII pog‘onada joylashgan pastki *yetakchi ton* I– pog‘ona (T)ga ayniqsa tortilishi kuchli bo‘lib, tabiiy va garmonik majorda, garmonik minorda namoyon bo‘ladi.

Adabiyot: 28, 29, 50, 54, 87.

**YECHILISH** – dissonans(akkord yoki interval)ning konsonansga o‘tishi.

C dur  
D<sub>6</sub> T  
D<sub>7</sub> T

Adabiyot: 28, 29, 54.

**YONDOSH DOMINANTA VA SUBDOMINANTA** – yondosh, ya’ni asosiy tonallikka tobe tonalliklardagi dominanta va subdominantanta. Yondosh dominanta va subdominantanta og‘ishma va modulyatsiya jarayonida vujudga kelib, yondosh tonikaga tegishlilar. Yondosh dominanta va subdominantalar akkordning har qanday turi: uchtovushlik, septakkord va uning aylanmaları, nonakkord ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin.

C dur  
T<sub>6</sub> D<sub>4</sub> (yondosh D) II D<sub>4</sub> T

Yondosh subdominantanta yondosh dominantaaga nisbatan kamroq qo‘llaniladi.

C dur  
S T II (yondosh S) VI (yondosh T)

Adabiyot: 9, 87, 88, 94.

**YORDAMCHI TOVUSHLAR** – kuchsiz hissada akkord va uning takrori o‘rtasidagi akkordsiz tovush. Yordamchi tovush akkorddan sekunda oralig‘ida yuqorida yoki pastda joylashishi mumkin. Yordamchi tovush xromatik yoki diatonik bir tovushda yoki ikki, uch tovushda bo‘lishi mumkin.



Adabiyot: 21, 28, 29, 53, 54, 86, 88, 89, 94.

**ZIDDIYAT** –akkord izchilligida xromatik yarim tonning bir ovozdan ikkinchi ovozga siljishi natijasida hosil bo'lgan yoqimsiz sado.



Adabiyot: 2, 27, 28, 67, 87, 88, 89.

**O'ZGARUVCHAN LAD** – bu tushuncha asosan folklor yoki professional musiqasiga nisbatan qo'llaniladi. O'zgaruvchan lad tushunchasi yaxlit tuzilmadagi tonika holatini belgilaydi. Bunday lad turida pog'onalarning funksional ko'p qirraligi kuzatiladi.

Adabiyot: 2, 12, 38, 21, 54, 87, 94.

**O'ZGARUVCHAN FUNKSIYALAR** harakat jarayonida musiqiy elementlarning o'zgaruvchanligi, ularning uzlusiz mantiqiy qayta baholanishida namoyon bo'ladi. Lad pog'onalarining asosiy markazga intilishi bilan birga, pog'onalarning o'zaro munosabatida, ya'ni noturg'un bosqichlarning vaqtincha markaz vazifasini bajarganligi tufayli o'zgaruvchanlik vujudga keladi. O'zgaruvchan funksiyalar, asosiy funksiyalarga qaraganda, harakatchan, o'zgaruvchan tuzilmani hosil qiladi.

Adabiyot: 84, 87, 89, 94.

**O'N IKKI POG'ONALI TIZIM** – xromatik tizim. Tonal garmoniyaning tizimi bo'lib, berilgan tonalilik doirasida, xromatik gammaning 12 pog'onasida har qanday tuzilmaliakkordlarni qo'llashga yo'l qo'yadi.

C dur

c moll



Adabiyot: 21, 24, 28, 29, 36, 53, 75, 80, 94.

### O'RTA KADENSIYA – *Kadensiyaga qarang.*

**O'TKINCHI TOVUSHLAR** – kuchsiz hissada pog'onama-pog'ona harakatda ikki akkord oralig'ida joylashganakkordsiz tovush. O'tkinchi tovushlarning diatonik (a) hamda xromatik (b) turlari mavjud.

Adabiyot: 21, 28, 29, 53, 54, 65, 66, 86, 88, 89, 94.

### CHORAKTONLI TIZIM – *Mikroxromatikaga qarang.*

## АДАВГҮОТ

1. *Абдуллаева Э.А.* Влияние основных направлений музыки XX века на творчество композиторов Узбекистана. // Методика преподавания музыкальных дисциплин. Вып. 6. Т., 1991.
2. *Azimova O.N.* Garmoniya. Nazariy kurs. Maxsus muharrir T. G'ofurbekov. Т. 2000.
3. *Akbarov I.* Muzika lug'ati. 2-nashri T., 1997.
4. Актуальные проблемы ладогармонического мышления. М., 1982.
5. *Алексеев Э.Е.* Проблемы формирования лада. М., 1976.
6. *Асафьев Б.В.* Музыкальная форма как процесс. 2-е изд. Л., 1971.
7. *Баранова Т.* Переход от средневековой ладовой системы к мажору и минору в музыкальной теории XVI-XVII веков. // Из истории зарубежной музыки. 1980, вып. 4.
8. *Батюк И.* Додекафония в хоровой музыке: исполнение и интерпретация. // Музыкальная академия. 1998, № 1.
9. *Берков В.О.* Гармония. 2-е изд. М., 1970.
10. *Берков В.О.* Формообразующие средства гармонии. М., 1971.
11. *Бершадская Т.С.* Проблемы ладовой классификации. —Сов. музыка, 1971, № 8.
12. *Бершадская Т.С.* Лекции по гармонии. 2-е изд. Л., 1985.
13. *Бронфин Е.* К спорам об "авангардизме...". // Вопросы современной музыки. Л., 1963.
14. *Vاخромеев В.А.* Элементарная теория музыки. М., 1975.
15. *Vахромеев V.A.* Muzikaning elementar nazariyasi. Maxsus muharrir T.G'ofurbekov. Т., 1980.
16. *Веберн А.* Лекции о музыке. Письма. М., 1975.
17. *Веберн А.* Путь к двенадцатитоновой композиции. // Зарубежная музыка XX века. М., 1975.
18. *Галицкая С.П.* Теоретические вопросы монодии. Т., 1981.
19. *Гафурбеков Т.Б.* Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. Т., 1984.
20. *Герциман Е.А.* Античное музыкальное мышление. Л., 1986.
21. *Григорьев С.С.* Теоретический курс гармонии. М., 1981.
22. *Гуляницкая Н.С.* Проблема аккорда в современной гармонии: о некоторых англо-американских концепциях. // Вопросы музыковедения. Вып. XVIII. М., 1976.
23. *Гуляницкая Н.С.* Современная гармония (лекции 1-5). М., 1977.
24. *Гуляницкая Н.С.* Введение в современную гармонию. М., 1984.
25. *Джами Абдурахман.* Трактат о музыке. Т., 1960.
26. *Должанский А.Н.* Некоторые вопросы теории лада. // Проблемы лада. М., 1972.
27. *Dubovskiy I.I., Evseev S.V., Sokolov V.V., Sposobin I.V.* Garmoniya darsligi. Т., 1979.
28. *Дубовский И.И., Евсеев С.В., Соколов В.В., Способин И.В.* Учебник гармонии. 9-е изд. М., 1984.
29. *Дьячкова Л.С.* Гармония в музыке XX века. М., 1989.
30. *Житомирский Д.В.* О технике композиции в XX веке. —Сов. музыка, 1978, № 11.

31. Закржевская С.А. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана и Туркменистана. Т., 1979.
32. Закржевская С.А. Вопросы гармонии, материалы лекций, методические замечания. Т., 1991.
33. Ibragimova S.H. O'zbek kompozitorlari ijodida zamonaviyakkord qo'llanishiga doir xrestomatiya. Т., 1999 /diplom ishi, rahbar Azimova O.N.
34. Иглицкий М.А. Родство тональностей и задача об отыскании модуляционных планов. // Музыкальное искусство и наука, вып. 2. М., 1973.
35. Карастоянов А. Полифоническая гармония. М., 1964.
36. Катуар Г.Л. Теоретический курс гармонии. Ч. I-II. М., 1924-1925.
37. Когоутек Ц. Техника композиции в музыке XX века. М., 1976.
38. Кон Ю.Г. К вопросу о вариантности ладов. // Современные вопросы музыкоznания. М., 1976.
39. Кон Ю.Г. Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и ее гармонизации. Т., 1979.
40. Коптев С.В. К истории вопроса о политональности. // Теоретические проблемы музыки XX века, вып. 1. М., 1967.
41. Коптев С.В. О явлениях полиладовости, политоникальности и политональности. // Проблемы лада. М., 1972.
42. Кушнарев Х.С. Вопросы истории и теории армянской монодической музыки. Л., 1953.
43. Мазель Л.А. О мелодии. М., 1952.
44. Мазель Л.А. О расширении понятия одноименной тональности. – Сов. музыка, 1957, № 2.
45. Мазель Л.А. О путях развития языка современной музыки. – Сов. музыка, 1965, № 6-8.
46. Мазель Л.А. Проблемы классической гармонии. М., 1972.
47. Мазель Л.А. Строение музыкальных произведений. 2-е изд. М., 1979.
48. Мазель Л.А., Цуккерман В.А. Анализ музыкальных произведений. М., 1967.
49. Методы и типы модуляционных переходов в тональности далекого родства. Саратов, 1986.
50. Музыкальная энциклопедия. 1-6 т. М., 1973.
51. Музыкальный энциклопедический словарь. Гл. ред. Келдыш Ю.В. М., 1991.
52. Мутли А.Ф. О модуляции. М-Л., 1948.
53. Мюллер Т.Ф. Гармония. М., 1976.
54. Мясоедов А.Н. Учебник гармонии. 2-е изд. М., 1983.
55. Назайкинский Е.В. Логика музыкальной композиции. М., 1982.
56. Нестьев И. О музыкальном авангардизме... // Вопросы эстетики, вып. 7. М., 1965.
57. Паисов Ю.И. Политональность в творчестве советских и зарубежных композиторов XX века. М., 1977.
58. Попеляш Л.В. О фактурных предпосылках политональности. // Скребков С.С. Статьи и воспоминания. М., 1979.
59. Протопопов В.В. История полифонии в её важнейших явлениях. М., 1962. Западно-европейская классика. М., 1965.

60. *Пустыльник И.Я.* Принципы ладовой организации в современной музыке. Л., 1979.
61. *Регер М.* О модуляции. Л., 1926.
62. *Ренчицкий П.Н.* Учение об энгармонизме. М., 1931.
63. *Рети Р.* Тональность в современной музыке. Л., 1968.
64. *Риман Г.* Систематическое учение о модуляции как основа учения о музыкальных формах. М., 1929.
65. *Rimskiy-Korsakov N.A.* Garmoniyadan amaliy darslik. T.Mirza tarjimasi. Т., 1948.
66. *Римский-Корсаков Н.А.* Практический учебник гармонии. 19-е изд. М., 1956.
67. *Рудольф Л.М.* Гармония. Баку, 1938.
68. *Скребков С.С.* Гармония в современной музыке. М., 1965.
69. *Скребков С.С.* Как трактовать тональность? – Сов. музыка, 1965, № 2.
70. *Скребков С.С.* Учебник полифонии. 3-изд. М., 1965.
71. *Скребков С.С.* Об итонационных особенностях гармонических функций в современной музыке. // Теоретические проблемы музыки XX века, вып. 1. М., 1967.
72. *Скребкова-Филатова М.С.* Фактура в музыке. М., 1985.
73. *Соллертинский И.И.* Арнольд Шёнберг. // Зарубежная музыка XX века. М., 1975.
74. *Сохор А.Н.* О природе и выразительных возможностях диатоники. // Вопросы теории и эстетики музыки, вып. 4. Л., 1965.
75. *Способин И.В.* Лекции по курсу гармонии. М., 1969.
76. *Способин И.В.* Элементарная теория музыки. 7-е изд. М., 1979.
77. *Способин И.В.* Музыкальная форма. 6-е изд. М., 1980.
78. *Sposobin I.V.* Muzika shakli. Mahsus muharrig T.G'ofurbekev. Т., 1982.
79. *Тараканов М.Е.* Новая тональность в музыке XX века. // Проблемы музыкальной науки, вып. 1. М., 1972.
80. *Тифтиклиди Н.Ф.* Теория днотерцовой и тонально-хроматической системы. // Вопросы теории музыки, вып. 2. М., 1970.
81. *Тифтиклиди Н., Стебунова В.* Точные методы исследования ладофонической структуры мелодии. – Музыкальная академия. 1993, № 4.
82. *Трембовельский Е.* Модальное развитие одно из основ мышления Мусоргского. – Музыкальная академия. 1993, № 1.
83. *Тюлин Ю.Н.* Параллелизмы в музыкальной теории и практике. Л., 1938.
84. *Тюлин Ю.Н.*. Учение о гармонии. 3-е изд. М., 1966.
85. *Тюлин Ю.Н.* Современная гармония и ее историческое происхождение. // Теоретические проблемы музыки XX века, вып. 1. М., 1967.
86. *Тюлин Ю.Н.* Учение о музыкальной фактуре и мелодической фигурации. Кн. 1-2. М., 1976-1977.
87. *Тюлин Ю.Н.* Краткий теоретический курс гармонии. 3-е изд. М., 1978.
88. *Тюлин Ю.Н., Привано Н.Г.* Учебник гармонии. 3-е изд. М., 1986.
89. *Тюлин Ю.Н., Привано Н.Г.* Теоретические основы гармонии. 2-е изд. М., 1965.

90. *Холопов Ю.Н.* Симметричные лады в теоретических системах Яворского и Мессиана. // Музыка и современность, вып 7. М., 1971.
91. *Холопов Ю.Н.* Очерки современной гармонии. М., 1974
92. *Холопов Ю.Н.* Об общих логических принципах современной гармонии. // Музыка и современность, вып. 8. М., 1974.
93. *Холопов Ю.Н.* Модальная гармония. // Музикальное искусство. Общие вопросы теории и эстетики музыки. Т., 1982.
94. *Холопов Ю.Н.* Гармония. М., 1988.
95. *Холопова В.Н.* Вновь об обертоновой гармонии. Из истории вопроса.— Сов. музыка, 1974, № 4.
96. *Холопова В.Н.* Фактура. М., 1979.
97. *Чайковский П.И.* Руководство к практическому изучению гармонии. 3-е изд. М., 1891.
98. *Шахназарова Н.Г.* "Авангард" в современной западной музыке. // Современное западное искусство. М., 1971.
99. *Шестаков В.П.* Гармония как эстетическая категория. М., 1973.
100. *Шнеерсон Г.М.* О музыке живой и мёртвой. М., 1964.
101. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. I-jild.—Т., 2000.
102. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. II- jild.—Т., 2001.
103. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. III-jild.—Т., 2002.
104. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. IV-jild.—Т., 2002.
105. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. V- jild.—Т., 2003.

# MUNDARIJA

<b>SO'Z BOSHI.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. GARMONIYANING LAD ASOSLARI</b>	
1. Lad ta'rifi.....	4
2. Lad va tovushqator.....	4
3. Major-minor .....	5
4. Ladning asosiy funksiyalari.....	5
5. Ohangdoshliklarning ladofunktional tizimlanishi.....	6
6. Funksiyalarning o'zgaruvchanligi .....	7
<b>II bob. OVOZ YO'NALISHI</b>	
1. Ovoz yo'nalishi tushunchasi.....	8
2. Ayrim intonatsion harakatlar.....	9
3. Duchlanish.....	10
4. Parallel oktavalar va unisonlar.....	12
5. Parallel kvintalar.....	13
6. Yashirin parallelizm.....	15
<b>III bob. GARMONIK VERTIKAL</b>	
<b>1. AKKORD.....</b>	<b>16</b>
1.1. Akkord ta'rifi.....	16
1.2. Klassik akkordning mantiqiy tuzilmasi.....	17
1.3. Klassik akkordning asosiy toromnlari.....	18
1.4. Akkord tuzilishining akustik negizi.....	19
<b>2. UCHTOVUSHLIKLER.....</b>	<b>22</b>
2.1. Umumiy ta'rif.....	22
2.2. Uchtovushliklarning juftlanishi va tuzilishi.....	22
2.3. Uchtovushliklarning qo'shilishi.....	24
<b>3. SEKSTAKKORD.....</b>	<b>28</b>
3.1. Umumiy ta'rif.....	28
3.2. Sekstakkordlarning juftlanishi.....	28
3.3. Sekstakkordlarning uchtovushliklar va boshqa sekstakkordlar bilan qo'shilishi .....	30
<b>4. KVARTSEKSTAKKORDLAR.....</b>	<b>32</b>
4.1. Umumiy ta'rif.....	32
4.2. Kvartsekstakkordlar turi.....	32
<b>5. SEPTAKKORDLAR.....</b>	<b>35</b>
5.1. Umumiy ta'rif.....	35
5.2. Septakkordlarning kiritilishi.....	37
5.3. Dominantseptakkord va uming aylanmalari.....	37
5.4. Barcha septakkordlarning yechilishi.....	40
5.5. Septakkordlarning qo'shilishi.....	42

<b>6. NONAKKORDLAR.....</b>	<b>45</b>
6.1. Umumiylar ta'rif.....	45
6.2. Funksional xususiyatlari.....	45
6.3. Nonakkordlarning qo'llanishi.....	47
<b>7. KO'POVOZLIK OHANGDOSHLIKLARI.....</b>	<b>49</b>
<b>8. TERSIYASIZ TARKIBDAGI AKKORDLAR.....</b>	<b>50</b>
8.1. Umumiylar ta'rif.....	50
8.2. Tersiyaviy tuzilmasi o'zgargan akkordlar.....	51
8.3. Uzviy tersiya bo'yicha tuzilmagan akkordlar.....	53
<b>IV bob. MODULYATSIYA</b>	
<b>1. MODULYATSIYANING UMUMIY NAZARIYASI.....</b>	<b>56</b>
1.1. Umumiylar ta'rif.....	56
1.2. Tonal modulyatsiya.....	57
1.3. Modulyatsiyaning turlari.....	59
<b>2. FUNKSIONAL MODULYATSIYA.....</b>	<b>59</b>
2.1. Tonalliklarning o'xshashligi.....	59
2.2. Bevosita funksional modulyatsiya.....	60
2.3. Tadrijiy funksional modulyatsiya.....	62
2.4. Birinchi darajali turdosh tonalliklarga modulyatsiya.....	63
2.5. Ikkinchi darajali turdosh tonalliklarga modulyatsiya.....	66
2.6. Uchinchi darajali turdosh tonalliklarga modulyatsiya.....	72
<b>3. ENGARMONIK MODULYATSIYA.....</b>	<b>75</b>
3.1. Kamaytirilgan VII, vositasida modulyatsiya.....	76
3.2. Dominantseptakkord engarmonizm.....	80
3.3. Ortitirilgan uchtovushlik engarmonizmi.....	82
<b>4. MELODIK – GARMONIK MODULYATSIYA.....</b>	<b>84</b>
<b>5. MELODIK MODULYATSIYA.....</b>	<b>85</b>
<b>6. TAQQOSLAMA MODULYATSIYA.....</b>	<b>86</b>

## V bob. LADLARNING O'ZARO BIRIKISHI

<b>1. NOMDOSH MAJOR-MINOR TIZIM.....</b>	<b>86</b>
<b>2. MAJOR-MINORNING O'ZIGA XOS AKKORDLARI.....</b>	<b>89</b>
2.1. VI pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi (VI <sup>p</sup> ).....	89
2.2. III pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi (III <sup>p</sup> ).....	91
2.3. VII pasaytirilgan pog'ona uchtovushligi (VII <sup>p</sup> ).....	93
2.4. Nomdosh tonika.....	93
<b>3. MINOR – MAJOR .....</b>	<b>94</b>
<b>4. PARALLEL MAJOR – MINOR.....</b>	<b>95</b>
4.1. Major III pog'onasining major uchtovushligi (III <sup>maj</sup> ).....	96
4.2. Minor VI – pog'onasining minor uchtovushligi (IV <sup>min</sup> ).....	96
4.3. Minoring kamaytirilgan kvintali kichik septakkordi.....	97

5. TERSIYA QATORLARI.....	98
6. MODULYATSIYA VA NOMDOSH MAJOR-MINORNING VOSITALARI .....	101
6.1. VI – pasaytirilgan pog’ona (VI <sup>p</sup> ) uchtovushligi vositasidagi modulyatsiya.....	101
6.2. Nomdosh tonika vositasidagi modulyatsiya.....	103
7. BIR TERSIYALI TIZIMLAR.....	104
8. MAJOR-MINOR TIZIMLAR VA TONALLIK REJALARJI.....	107
9. MAJOR-MINOR TIZIMINING IFODALI IMKONIYATLARI .....	109
 <b>VI bob. TABIIY LADLAR GARMONIYASI</b>	
I. UMUMIY MA’LUMOTLAR.....	110
1.1. Tabiiy ladlar.....	110
2. TERSIYA BO’YICHA TUZILGAN AKKORDLAR .....	111
2.1. Akkordlarning tuzilishi.....	111
2.2. Funksional aloqalar.....	113
2.3. Yondosh akkordlar.....	114
2.4. O’zgaruvchanlik.....	114
2.5. Eoliy ladi (tabiiy minor).....	116
2.6. Doriy ladi .....	117
2.7. Frigiy ladi.....	118
2.8. Ioniy ladi.....	119
2.9. Meksolidiy ladi .....	120
2.10. Lidiy ladi .....	121
2.11. Shakllanish xususiyatlari .....	122
3. TERSIYASIZ TARKIBDAGI AKKORDLAR.....	123
3.1. Akkordlar tuzilishi.....	123
3.2. Funksional aloqalar.....	124
3.3. Shakllanish xususiyatlari .....	126
LUG’AT.....	129
ADABIYOT.....	185

**Orzu Azimova**

**GARMONIYA**

Nazariy kurs

*Madaniyat va san'at kollejlari  
uchun darslik*

Muharrirlar *I. Fayzullayeva, A. Mo'minov*  
Badiiy muharrir *T. Sadullayev*  
Texnik muharrir *V. Veremeyuk*  
Musahhih *Z. Karimova*

IB № 476

Terishga berildi 1.06.2003. Bosishga ruxsat etildi 29.01.2004.

Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$

Adadi 3000 nusxada bosildi. Shartli b.t. 11,75. Nashr. tabogi 12,0.

Buyurtma № 190. Bahosi kelishilgan narxda.

A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,  
Toshkent, 129, Navoyi ko'chasi, 30.  
Shartnoma № 33-03

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Toshkent kitob-jurnal  
fabrikasi bosmaxonasida bosildi 700194, Toshkent. Murodov ko'chasi, 1-uy.